ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2021-yil, 4-son (128) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV - O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV - O'zFA akademigi
M. MUXIDDINOV - fil.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV - t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV - t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV - fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV - i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV - fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV - ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA - ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY - Indiana universiteti professori (AQSh)
MUSTAFA UGURLU - профессор (Муғла университети, Туркия)
N.T.NURULLAXODJAYEVA - professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)
TAMIR KLEIN - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIIE - Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - **5583,**
tashkilot, korxonalar uchun - **5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

A.A.Ungalov
Said Al-Xarashiyning Movarounnahrdagi faoliyati……..……. 3-8
A.A.Nazarov
Navbog‘tepa yodgorligining sirlangan tovoqlari..... 9-13
Sh.B. Kholikulov
Rus davlatchiligida notarial idoralar faoliyatining rivojlanish bosqichlari…….……... 14-19
В.Мухамеджанова
Социокультурное осмысление положения женщин Средней Азии 20-25
S.Ya.Umarov
Savdo-investitsion jabhada O’zbekiston-Germaniya hamkorligi..... 26-32
Sh. T. Saidaxmatov
Mustaqillik yillarida Termiz shahri sanoati..... 33-36
G`.R.Mirzayev
O‘zbekiston va Qirg‘iziston respublikalari hamkorligining shakllanish va rivojlanish masalalari…….. 37-43

FALSAFA / PHILOSOPHY

A.Z. Sharipov
Milliy g‘oyani rivojlantirish va ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasida ma’rifiylik va dunyoviylik tamoyillarining o‘ziga xosligi..... 44-48
B.T.Kuyliyev
Jamoatchilik ongini manipulyatsiyalash texnologiyalarining o’ziga xos aspektlari.. 49-54
N.Sh Yunusova., O‘.K. Erniyozov
Demokratlashtirish va ma‘naviyatni tadqiq qilishning nazariy asoslari……. 55-59
A.E.Amonov
Markaziy osiyo xalqlari madaniy hayotida buddaviylik dinining qoldirgan izlari.... 60-64
M.S.Abbasova
Ma’naviy raqobat tushunchasi: genezisi va evolyutsiyasi..... 65-69
B.M.Nabiyev
Ideological factors of strengthening socio-political stability in Uzbekistan……. 70-74
F.F.Xatamov
Harakatlar strategiyasi – inson huquqlari kafolati sifatida..... 75-78

HUQUQSHUNOSLIK/ LAW /

B.M.Azizov
“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunni davlat boshqaruvidagi ahamiyati va uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar..... 79-82
D.R.Qurbonov, S.R.Ibodullayev
Jinoyat huquqi tushunchasi (jinoyat huquqiga kirishning uslubiy jihatlari)..... 83-90

O‘QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY

A.Soleev, H.Shodiev
Student-centered credit system in education…….. 90-97
I.S.Umarov., Y.S. Ergashov
Ta’limning kredit texnologiyasi sharoitida modulli ta’lim tamoyillari…….……. 98-101
F.X.Baychayev
Kasbiy yo‘naltirilgan masalalar asosida kompetentlikni takomillashtirishning dolzarbligi……... 102-106

Mualliflarga

UDK: 94(575.152)

SAID AL-XARASHIYNING MOVAROUNNAHRDAGI FAOLIYATI

A.A.Ungalov
Samarqand davlat universiteti
E-mail: azizbek.ungalov111@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Said al-Xarashiyning Movarounnahrdagi faoliyati, Arab xalifaligiga qarshi yuzaga kelgan qo‘zg‘olon va qarshilik ko‘rsatish harakatlari, Devashtichning antiarab kaolitsiyani shakllantirish borasidagi ishlari, Turk xoqonligi va voha hokimliklarining arablarga qarshi ittifoqi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qutayba ibn Muslim, Said al-Xarashiy, G‘urak, Devashtich, «Samarqand shartnomasi», Alutar, Korzanch, Chilanj, Sobit, Abdurahmon al-Kushariy, Qum jangi, Isama g‘ori, Tarxun, Abdurahmon ibn Subh.

Деятельность Саида аль-Хараши в Мавераннахре

Аннотация. В статье рассказывается о деятельности Саида аль-Хараши в Мавераннахре, восстаниях и сопротивлениях Арабскому халифату, об усилиях Деваштича по формированию антиарабской коалиции, а также о союзе Тюркского каганата с правителями оазисов против арабов.

Ключевые слова: Кутейба ибн Муслим, Саид аль-Хараши, Гурек, Деваштич, «Самаркандский договор», Алутар, Корзанч, Чиландж, Сабит, Абдурахман аль-Кушари, Битва при Куме, пещера Исама, Тархун, Абдурахман ибн Субх.

Said al-Harashi's activities in Mawarannahr

Abstract. The article covers Said al-Harashi's activities in Mavarounnahr, the uprisings and resistance against the Arab caliphate, Devashtich's efforts to form an anti-arab coalition, and the alliance of the Turkish khanate and oasis rulers against the Arabs.

Keywords: Kutayba ibn Muslim, Said al-Harashi, Gurak, Devashtich, «The Treaty of Samarkand», Alutar, Korzanch, Chilanj, Thabit, Abdurahman al-Kushari, The Battle of Kum, Isama Cave, Tarhun, Abdurahman ibn Subh.

Kirish. Ko‘plab hududlarni Islom dini bayrog‘i ostida egallab kelayotgan Arab xalifaligi uzoq tayyorlanishdan so‘ng 705-715 yillarda Movarounnahrni ham harbiy jihatdan bosib olishga muyassar bo‘ldi. Bu ishlarda Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim jonbozlik ko‘rsatadi. Muayyan hududni bosib olishning o‘zi egallash degan tushunchaga teng kelmaydi, albatta. Movarounnahr xalifalik ma’muriyati uchun qo‘zg‘olon va qarshilik ko‘rsatish harakatlarining markaziga aylanib qolgan edi. Vaziyat deyarli izdan chiqqan, G‘urak, Devashtich va boshqa aksariyat hukmdorlar deyarli mustaqil siyosat yuritish tomon yuz tutgan edilar. Iroq hukmdori Umar ibn Xubayr 721 yil Xuroson noibi etib Said ibn Abdulaziz o‘rniga Said al-Xarashiy (يشرحلا) ni tayinlaydi[1,183-184].

Asosiy qism. Sug‘ddagi qo‘zg‘olon Movorounnahr hududidagi muvaffaqiyatsizliklar Xuroson noibligiga qattiqqo‘lroq siyosatchi zarurligini dolzarb qilib qo‘ydi. Ehtimol, Umar ibn Xubayr shu bois ham Said Xarashiyni shu lavozimga loyiq ko‘rgan bo‘lsa kerak. Chunki Said Xarashiy bundan oldin Iroqdagi xorijiylar qo‘zg‘olonini bostirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan va qattiqqo‘lligi bilan mashhur ham edi. Keyinchalik hatto u Umar ibn Xubayr bilan o‘zini teng nisabali sifatida talqin etib, unga bo‘ysunishni ham istamay qo‘ydi. Uning Movarounnahrdagi qilgan vaxshiyona siyosati va o‘zidan nisbatan yuqori mansabdorga bo‘ysunmaslik harakati oxir-oqibat lavozimidan ketishiga sabab ham bo‘lgan.

Said Xarashiy Xurosonga kelishi bilan avval shartnomani buzganlar bilan qaytadan kelishuv sulhlarini tuzdi. Ma’lumki, Qutayba ibn Muslimning 715 yildagi halokatidan keyin Movarounnahrda aholi qaytadan o‘zlarining avvalgi dinlariga o‘tish jarayoni yana jadallashgan edi. Qutayba istilosi davrida Movarounnahrni nafaqat siyosiy jihatdan, balki ma’naviy jihatdan

ham yo‘q qilinishga kirishilgan va mahalliy din va ma’rifatga toqatsizlik bilan munosabatda bo‘lingan edi.

Said Xarashiy noibligi davridagi Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat manzarasida Qutaybadan keyin harbiy jihatdan muvaffaqiyatga erishilmagan, Umar II ning esa Islom diniga o‘tganlar uchun joriy etgan yengilliklari hayotga to‘la tadbiq etilmay, norozilik chiqishlari yuzaga kelgan davr edi. Said Xarashiy vaziyat jilovini qo‘lga olish uchun kuchlar nisbatini nazorat qilishga harakat qildi. Sug‘ddagi siyosiy kuchlar G‘urak va Panjikent hokimi Devashtich o‘rtasida bo‘linib ketgandi. Xarashiy uchun esa mana shu bo‘linishning mavjud bo‘lib turishi zarur edi va bunga o‘zi ham harakat qildi. Birinchi navbatda, G‘urak va uning tarafdorlarini o‘z tomoniga nafaqat og‘dirib oldi, balki ular zimmasiga ma’lum majburiyatlarni ham yukladi. Xususan, arablar bilan kelishib, ularga itoat qilishni va to‘lanmagan xiroj solig‘ini to‘lashni, zarur paytda istilochilarga Sug‘ddagi “kofir”lariga qarshi yurishlarida ko‘mak berishni zimmalariga oldilar. G‘urak boshchiligidagi 10 ming sug‘diylarning bu shartlarga rozi bo‘lishida Sharqiy turklarning sug‘dlarni qatag‘on qilish uchun kelayotganligi xususidagi uydirma ham sabab bo‘ldi[2, 129].

Said Xarashiy Devashtich masalasida ham chuqur o‘ylangan rejani amalga oshirdi. Tarxun farzandlarining regentligi orqali taxtga o‘tirish huquqining Devashtichda mavjudligi[3, 231; 5, 28] Said Xarashiy uchun G‘urakni boshqa aksilarab harakatlardan jilovlab turishi ham mumkin edi. Tarixchi olim Mirsodiq Is’hoqov ham arablarning Tarxun farzandlarini taxtga ko‘tarib, o‘zlarining izmidagi «qo‘g‘irchoq» hukmdorlarga aylantirishga intilish borasidagi fikrlarni ilgari suradi [4, 36]. Bu davrda ham arablar uchun, ham Devashtich uchun Sug‘d taxtiga qonuniy davo qilish imkonini beruvchi asos – Tarxunning ikki farzandi Devashtich qaramog‘ida edi. G‘urakning taslimchilik siyosati ko‘plab sug‘dlar singari, o‘z ukasi Xahsar hokimi Afarunning ham undan yuz burib Devashtich bilan hamkorlikka o‘tishiga sabab bo‘ladi [2, 70]. Bu omil esa, Said Xarashiy uchun Sug‘d masalasida «bo‘lib tashla – hukmronlik qil» tamoyilini qo‘llashga tayyor asos bo‘lib xizmat qilar edi. Said Xarashiy Devashtich bilan aloqalarni juda ehtiyotkorlik bilan olib borgan, Devashtich faoliyati bilan alohida shug‘ullanish uchun Abdurahmon ibn Subhni tayin etgan [1, 181]. Qolaversa, o‘z murojaatini ko‘pincha Devashtichga xat yozmay, og‘zaki tarzda yetkazishni lozim deb bilgan [6, 62]. Bundan ko‘zlangan maqsad avvalo shu ediki, yozishmalar G‘urakning qo‘liga tushib qolib, u bilan mavjud kelishuv buzilmasligi ko‘zlangan. O‘zi shundog‘am G‘urakning o‘zgaruvchan va moslashuvchan siyosatchi ekanligi arablarga ma’lum bo‘lib, hozircha u bilan mavjud kelishuvni saqlab qolish uchun ham Devashtich bilan aloqalar ehtiyotkorlik bilan olib borilishi zarur edi.

G‘urakdan farqli o‘laroq Devashtichning harbiy salohiyati pastroq bo‘lib, Devashtich unga ergashgan ittifoqchilarni turklar, farg‘onaliklar, chochliklar va Xitoydan keladigan yordamga ishontirardi [2, 70]. Devashtich bu yordamni olish uchun ham harakat qilgan, xususan, elchi Fatufarinni sharqqa Choch, Farg‘ona va Turk xoqonligi bilan ittifoqchilikka jo‘natganligi Mug‘ arxivining A-14 hujjatlaridan ham ma’lum [14, 77-91; 7, 33]. Devashtichning Said al-Xarashiy bilan aloqalaridan maqsad unga yon bosish emas, balki Sug‘d taxtiga erishish uchun harakat sifatida baholash kerak. Agar Devashtichni arablarga yon bosishda ayblasak, bir qancha qarshi ko‘rsatmalar bo‘y ko‘rsatadi. Bular birinchidan, G‘urak arablarga 712-yil va 720-yilda turklar bilan hamkorlikda qo‘zg‘olon ko‘tardi, shunda ham Said al-Xarashiy garchi uni lavozimidan chetlatib, Devashtichni taxtga o‘tqazishda imkon bo‘lsa-da, bunday qilmadi. Negaki, Devashtich G‘urakdek harbiy salohiyatga ega bo‘lganida u bilan kelishish qiyin kechishi aniq bo‘lib qoldi. Mug‘ arxivining I.1. hujjatidan ma’lum bo‘lishicha, Devashtich shundog‘am Said al-Xarashiy buyruqarini bajarmaganligi sabab Abdurahmon ibn Subh tomonidan po‘pisali maktub bilan ogohlantiriladi [14, 108-122; 3, 221-224]. Ikkinchidan, G‘urakning taslimchilik siyosatdidan norozi bo‘lgan sug‘diylarning aksariyat ko‘pchiligi Devashtich atrofida birlashdi, Korzanch va Chilanj boshchiligidagi aslzodalar ham Devashtich bilan hamkorlik qilishga xayrixohlik bildirdilar. Uchinchidan, Devashtich Said Xarashiy bilan muzorkora olib borish bilan cheklanmadi, Mug‘ arxivining A-14 hujjati bergan ma’lumotlarga ko‘ra uning boshchiligida Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Sharqiy Turk xoqonligining arab istilochilariga qarshi tuzgan kaolitsiyasiga oid voqealar aks etgan [8, 25]. Sanab o‘tilganlarning barchasi arab ma’muriyatiga Sug‘d uchun Devashtichdan ko‘ra G‘urakni tanlashga sabab bo‘ldi. Devashtichni esa Sug‘d hukmdorligini egallash qoidasi bo‘yicha taxtni egallashga haqliligi, 712-714 yillardan buyon

uning o‘zi ham shu maqsad sari harakat qilayotgani [15, 66], Tarxunga yaqinligi hamda uning ikki o‘g‘lining vasiyligi Devashtich qo‘lida ekanligi kabi omillar bilan G‘urakni tiyib turish vositasi sifatida ushlab turgan edi.

Said Xarashiyning Devashtich faoliyatini nazorat qilish uchun Abdurahmon ibn Subhning tayinnlashining yana bir sababi shu ediki, u arablarga qarshi yirik kaolitsion kuchlarni vujudga keltirib, Movarounnahrni uzil-kesil egallash ishini mushkul ahvolga keltirib qo‘yishi tayin edi. Abdurahmon ibn Subhning Devashtichga ko‘rsatma berib: “Sen endi bunday qilgin: ulardan amirning xatini olib, amirdan keltirgan og‘zaki javobni (ham) diqqat bilan tinglab, doimo unga amal qilgin. Hech qachon, hech bir holatda boshqacha yo‘l tutma.... Agar maboda amirning buyrug‘ini hoziroq bajarmas ekansan, tez orada amirdan yana boshqa ko‘plab buyruqlar keladi”, - deb tahdid solishidan [6, 62; 14, 110] ham Said Xarashiy Devashtichni nazoratda ushlab turishga harakat qilganini bilish qiyin emas. Devashtich esa Said Xarashiy bilan yuzma-yuz uchrashib gaplashib olishga harakat qilgan [2, 129]. Chunki Sug‘d taxtiga o‘tirib, mardona qarshilikka o‘zida kuch topgan Devashtich shunchaki G‘urakni jilovlab turish quroli bo‘lishni istamasdi. Dastlab, Sug‘d taxtini egallash uchun arablar bilan hamkorlik muzkoralar foyda berishiga umid qilgan Devashtich Xuroson noibi Jarroh ibn Abdullohning mavlosi edi, ya’ni uning yordamida Islom dinini qabul qilgandi [9, 55-56]. U Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz huzuriga ham tashrif buyurgan, Tabariyga ko‘ra uni Xuzayna (قنيذخ) deb dastlab Devashtich nomlagan [3, 41]. Devashtichning xalifalik noiblari bilan aloqa o‘rnatishi zamirida arablarga yon bosish emas, balki Tarxun farzandlarining regentligi yordamida Sug‘d taxtiga davosini mustahkamlash bo‘lgan [2, 129]. Said al-Xarashiyning Devashtich faoliyatini nazoratda tutuvchi vakili Abdurahmon ibn Subh ham Devashtichga murojaatlarida «Sug‘d podshosi, Samarqand hukmdori» deya murojaat qilganida [4, 36] ham siyosiy maqsad ko‘zlangan bo‘lib, Devashtichning Sug‘d taxtiga bo‘lgan davosini qo‘llab-quvvatlayotgandek ko‘rsatadilar. Bu harakatlar bilan, avval aytib o‘tganimizdek, G‘urakni tiyib turish maqsadi ko‘zlangan edi. Livshitsga ko‘ra, Devashtich G‘urakning kuchsizlanib qolganligidan foydalanib, ma’lum muddat Sug‘d taxtini boshqarishga muvaffaq ham bo‘lgan [14, 65].

G‘urakning bu safargi taslimchilik siyosati natijasida nafaqat Panjikent hokimi Devashtichning Sug‘d uchun harakatlari faollashdi, balki sug‘dlardan norozi Ishtixon hokimi Korzanch va uning jiyani Chilanch boshchiligidagi aslzodalar guruhining ajralib chiqishi yuz berdi [1, 184; 10, 30-40]. Tabariyga ko‘ra, Bu guruh Said ibn ibn Abdulaziz davrida arablarga qarshi kurashda turklar bilan birgalikda harakat qilganligi uchun Said Xarashiyning jazo operatsiyasidan havotir olishgan. Shu bois ular Xo‘jand shahriga borib u yerdan Farg‘ona hukmdoriga murojaat qilishni va o‘sha manzildan turib Said Xarashiy bilan muzokora olib borishni maqsad qilishgan. G‘urak ularni Sug‘dda qolishga ko‘ndirish uchun bir necha bor harakat qiladi, ularni Said Xarashiy shafqatiga ishontirishga urinadi, ammo bularning barchasi besamar ketadi. Korzanch, Kashshin, Boyorqot va Sobit o‘z odamlari bilan Farg‘ona hukmdori Alutardan (arabcha. ات تار) yordam so‘raydilar [11, 170]. Ammo Alutar onasining maslahati bilan yordam berishdan bosh tortadi [1, 185; 3, 242] . Nafaqat bosh tortadi, balki, yordam so‘ragan Korzanch boshchiligidagi Sug‘d zodagonlarini Said Xarashiy tuzog‘iga tushirib berishga ham harakat qildi. Ya’ni u onasining «shaytonlarni shahringizga kiritmang, ularga Farg‘ona tashqarisidan bir qishloqni ajratib bering» mazmunidagi maslahati bilan, Korzanch boshchiligidagi guruhdan qaysi qishloqni ochib berishini so‘raydi, agar ular xohlasa, Qutayba tomonidan boshqaruvchi etib qoldirilgan Isama ibn Abdulloh Bahiliy nomini olgan dovonni ochib berishi mumkinligini aytadi. Korzanch boshchiligidagi guruh Alutar aytgan joyni olishga rozi bo‘ladilar [11, 170]. Bu guruhning Sug‘dni tashlab chiqishiga xalifalikning markaziy ma’muriyatidagilar ham befarq bo‘lishmagan. Masalan, Iroq voliysi Umar ibn Xubayr ularga maktub yozib Sug‘dni tashlab chiqmasliklarini, ular kimni xohlasa, o‘sha kishini Xuroson noibligiga tayinlashi mumkinligi haqidagi ma’lumotlar manbalar orqali yetib kelgan [1, 184-185]. Bizgacha yetib kelmagan Abdurahmon ibn Subhning 721 yil Devashtichga yozgan maktubida ham ehtimol shu masala haqida gap borgan bo‘lishi mumkin [16, 213]. Ammo bu guruhning taqdiri qiyin kechdi va falokat bilan yakunlandi. Bunga Alutarning qo‘rqoqoligi va sug‘diylarga nisbatan qilgan xoinligi sabab bo‘ldi. Alutar undan yordam so‘rab murojaat qilgan sug‘diylarga shunday shart qo‘ydiki, bu shart orqali nafaqat o‘zini jabrlanuvchilar oldidagi aybdorlik majburiyatidan, shu bilan birga Said

Xarashiy bilan munosabatlari yaxshilanishida ham foydalanishga harakat qiladi. Unga ko‘ra, Korzanch boshchiligidagi guruhga Isama g‘orini bo‘shatib berish uchun 40 kun, ayrim manbalarda esa 20 kun vaqt so‘raydi va mazkur vaqt oralig‘idagi sug‘diylarning xavfsizligi borasida hech qanday majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Bu vaqt oralig‘ida sug‘diylar uchun o‘z gardaniga olmagan o‘sha xavfni o‘zi tayyorladi. Ammakivachasi, taxt vorisi - Isfara hokimi Nilan-Balazni sug‘diylarni qo‘lga tushirib berish maqsadida Said Xarashiy huzuriga – Dabbusiyadagi Rix qasriga yubordi [3, 246; 12, 86]. Tabariyga ko‘ra, Nilan Said Xarashiyga quyidagi mazmunda, axborot bergan, «Hozir sug‘diylar Xo‘jandda, sen ulardan oldindasan, ular biz aytgan dovonga borgunga qadar, sen ulardan oldin manzilga yetib borasan, mazkur muddat oralig‘ida bizning ularni himoya qilish majburiyatimiz tugaydi» - deydi [1, 184-185]. Bu hol Said Xarshiy uchun katta muvaffaqiyat edi. Negaki, qochqin sug‘diylar keyinchalik Devashtich va Movarounnahrning sharqiy qismidagi kuchlar bilan kaolitsiyaga birlashib jiddiy xavfni yuzaga keltirishi tayin edi. Said Xarashiy Sug‘diylarni tutish maqsadida Nilanga qo‘shib Abdurahmon al-Kushariy va Ziyad ibn Abdurahmon boshchiligida qo‘shin yubordi [1, 186].

Hali Xo‘jandni tark etmay, xalifalik kuchlari kelayotganidan xabar topgan Korzanch sug‘diylarga vaziyatdan chiqishning qator yo‘llarini havola etadi. Birinchi yo‘l: Abdurahmon al-Kushariy boshliq qo‘shinlarga tunda hujum qilish va uni mahv etish orqali Said Xarashiyni ularga hujum qilish fikridan qaytarish [11, 170]. Negaki, bu voqealar 722 yilning bahorida sodir bo‘lmoqda edi. Bu paytda Xarashiy Devashtich boshchiligidagi Sug‘dga qarshi jangga hozirlik ko‘rmoqda edi. Shu bois ham, ular birinchi yo‘l sifatida Abdurahmon al-Kushariyning Xo‘janddagi mag‘lubiyatini tanlagan bo‘lsalar kerak. Tunda hujum qilib Abdurahmon al-Kuashriyni o‘ldirish taklifi[11, 170] sug‘dilar tomonidan rad etildi. Ikkinchi yo‘l: Choch (Shash) daryosini kechib o‘ting va Suyobga yo‘l oling, u yerdan turib Said Xarashiy bilan muzokora qiling deydi[11, 170]. Bu yo‘l zamirida davom etib kelayotgan turk-sug‘d ittifoqining omili yotgan bo‘lib, arablarga qarshi kurashishda yana bir bor turklarga suyanish omili mujassam edi. Ammo bu yo‘l ham rad etildi. Sug‘diylarning ko‘pchiligi Farg‘ona hukmdori Alutarning ularni himoya qilishlariga ishonishdi. Qolaversa, oltin kamarlar taqqan bu sug‘d aslzodalari ularni o‘z boyliklari ham jonini saqlab qolishiga ham umid qilganlar [17, 435]. Uchinchi yo‘l: Korzanj oxiri ularga xalifalik ma’muriyatining talablarini bajarib, o‘lpon va soliqlarni to‘lang deydi [11, 170].

Xo‘jandga yo‘l olgan sug‘diylarni Tabariy quyidagicha ta’riflaydi. Korzanj va Chalang Qiy armiyasi bilan, Abar ibn Maknun va Sobit Ishtixon armiyasi bilan, Boyorqot va Sabaskat tarafdorlari ming nafar oltin kamarlar taqib olgan Buzmajan dehqonlari bilan harakat qilishgan va Xo‘jandga yetib kelishgan. Devashtich esa o‘z qo‘shini bilan Abargar qal’asiga yo‘l olgan [11, 171]. Korzanj boshchiligidagi sug‘diylar hali Xo‘jandni tark etib ulgurmay, Abdurahmon ibn Kushariy boshchiligidagi xalifalik qo‘shinlari yetib kelishdi. Uning ortidan esa Said al-Xarashiy ham qo‘shin bilan yetib kelib ulgurgandi. Sug‘diylar Xo‘jand qal’asida himoyalanishga majbur bo‘ladi. Darvozaga kiraverishda qamishlar bilan yopilgan chuqur handaq orqali 40 nafar atrofidagi arablarni asir olishga muvaffaq ham bo‘ladilar [13, 138]. Ammo xalifalik qo‘shini kuchli edi. Shu bois sug‘diylar Farg‘ona hukmdori Alutardan yordam so‘raydilar, ammo u hali ularni himoya qilishga majburiyat yuklaydigan muddat tugamaganligi bilan bosh tortadi [13, 138] . Sug‘diylar chindan ham tuzoqqa tushgan edilar, endi ularni sulh so‘rashdan o‘zga chorasi qolmaydi. Sulh shartlariga ko‘ra sug’diylar Said Xarshiyga asirlikdagi arablarni berish, Xo‘jand shahrini jangsiz topshirish, nafaqat kelgusi yillar uchun, balki bundan avvalgi yillar uchun ham soliqlarni to‘lash majburiyatini oladilar [13, 139]. Qolaversa, Xo‘jand shahrida ular hech kimni o‘ldirmasliklari kerak edi. Bundan tashqari, Xarashiy sug‘diylar yana biror buzg‘unchilikka sabab bo‘lsalar, ularni o‘ldirishga haqli ekanligini aytadi [11, 174].

Said al-Xarashiy uchun yuqoridagi sulh sug‘diylarni qurolsizlantirish vositasi edi, xolos. Endi u juda ham nozik tarzda tuzilgan mazkur sulhni buzish uchun bahona qidirdi va uni topdi ham. Sobit Ishtixoniyning bir arab ayolini o‘ldirganligi haqidagi xabar uni buzish uchun yaxshigina asos bo‘lib xizmat qildi [13, 139]. Sobitning aybdor sifatida o‘ldirilishiga javoban sug‘diylar ham 150 nafar arab asirlarini o‘ldirdilar. Buni eshitgan Said Xarashiy qurolsiz sug‘diylarga nisbatan qirg‘in uyishtirdi. Sug‘diylar garchi tayoqlar bilan bo‘lsa-da, arablar bilan jang qildilar, 4 ming, ayrim manblarda 7 ming nafar sug‘diylar arablar tomonidan qirib tashlandi. 400 nafar sug‘diylar esa Sinddan olib kelgan qimmatbaho boyliklarini tovon evaziga berib omon

qolishdi [1, 188]. Bu vaziyatlarda sug‘diylar taktik jihatdan xatoga yo‘l qo‘ydilar, bu xato birinchidan, Devashtich kuchlari bilan Korzanch kuchlarining birlashishda vaqtdan yutqazib qo‘yganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Xo‘jandga kelgan sug‘diylar Alutarning himoyasiga keragidan ko‘p ishonib yuborishdi va himoyaning keyingi variantlarini ahamiyatsiz qoldirdilar.

Said Xarashiy dastlab arab askarlari tomonidan harakatsizlikda ayblanmoqda edi [11, 174]. Ammo uning riyokorlik bilan dushmanlarini zabt etib, keyin vaxshiyona jazolashi hali Movarounnahrda jang olib borayotgan arab qo‘shinlariga unchalik ham yaxshi tanish bo‘lmagan. Mana shunday vaxshiylik sug‘diylarning qirg‘inidan boshlandi. U sug‘dliklarga yordam qo‘lini cho‘zgan Xo‘jand ahlini ham jazodan quruq qoldirmadi. O‘zi shundog‘am ko‘pchilik xo‘jandliklar sug‘diylar qirg‘in qilingan paytda halok bo‘lishdi, shunday bo‘lsa-da, xo‘jandliklarning bo‘yniga haqorqatomuz qo‘rg‘oshin osildi [3, 256]. Said Xarashiyga yaxshigina yengillik yaratib bergan Farg‘ona hukmdori ham aybdor deb topildi. Undan 100 ming dinor, 50 ta g‘ulom va 50 ta kanizak talab qilindi. Said Xarashiy o‘lponni undirgach, Samarqandga yo‘l oldi. Ammo Farg‘ona hukmdori bu nohaqlikka chidolmay, 50 ming qarluqlardan iborat qo‘shin bilan tunda arablarga hujum qilib, bergan o‘ljalarini qaytarib oldi [2, 130].

Said Xarashiyning Devashtich borasida tutgan yo‘li ham riyokorona bo‘ldi. Dastlab Devashtich Panjikent shahriga borib arablar bilan muzkora olib boradi. Devashtichning Panjikentda ekanligidan xabar topgan arablar shaharni qamal qilishadi va unga o‘t qo‘yishadi. 722-yil Musayb ibn Bishor va Devashtich kuchlari o‘rtasida Qum jangi bo‘lib o‘tadi, bu jangda yetarli harbiy salohiyatga ega bo‘lmagan Devashtich va Afarun kuchlari yengiladi. Devashtich himoyalanishi uchun tog‘ yo‘li orqali Kshtut, Madm, Qum, Xshikat va Shahriston dovoni bilan Xo‘jandga yo‘l ochiq edi, lekin Devashtich Qumga yetib borganida Arab xalifaligi kuchlari uning orqasidan yetib kelgan bo‘lib u Abargar qal’asiga yashirinishga majbur bo‘ladi [5, 36; 9, 66]. Devashtichning maqsadi mana shu qal’ada arablar bilan muzokora qilib, fursat tug‘ildi deguncha Xo‘jandga Korzanj boshchiligidagi kuchlarga borib qo‘shilishni maqsad qilgan. Ammo u tarafdorlari bilan qal’adan chiqib ketmay turib uni Sulaymon Abu Sari qamal qiladi. Sulaymon qo‘shini tarkibida arablar bilan birga zabt etilgan Buxoro, xorazm, va boshqa o‘rta osiyoliklardan tashkil topgan ilg‘or avangard qism harakatlanar edi [5, 36-37]. Sulaymonga Said al-Xarashiy tomonidan yordamchi kuchlar ham jo‘natilgan [3, 253].

Al-Musayib bilan bo‘lgan janglardan so‘ng Devashtich chiqib borish qiyin bo‘lgan, uch tarafdan Qum daryosining baland daralari bilan, bir tarafdan Zarafshon daryosi bilan o‘ralgan Mug‘ – Abgor qal’asidan panoh topgan edi. Devashtichni bartaraf etishda Said Xarashiy banu uvafa qabilasi mavlosi Sulaymon Abu Sari, mahalliy qo‘mondonlar Shavkar ibn Xumayk (Jamuk) hamda xorazmshoh Chag‘on, Axarun va Shuman hokimi G‘uram qo‘shinlaridan foydalandi [1,189; 2, 131]. Qo‘shinlari son jihatdan arablarga nisbatan ancha kamligi, shuningdek u yashiringan qal’a uzoq vaqt qarshilik ko‘rsatish imkonini bermasligini yaxshi tushungan Devashtich, Sulaymon Abu Sariga taslim bo‘lish shartini bayon qiladi. U o‘zini shaxsan Said Xarashiy huzuriga olib borishini so‘raydi [1, 253]. U tanlagan bu yo‘l orqali qal’adgi hamrohlarining xavfsizligini o‘ylagan, qolaversa o‘zi ham Said Xarashiy shafqatidan qisman umidvor bo‘lgan.

Said Xarshiy o‘z huzuriga yuborilgan Devashtichni Keshga olib ketadi. Shundan so‘ng Arbinjonga olib boradi. U qayerga bormasin Devashtichni yonida olib yurar edi. Oxiri u Korzanj boshchiligidagi qo‘zg‘olon markazlaridan biri bo‘lgan Arbinjonda Devashtichni salb qilib o‘ldiradi [18, 330]. Hattoki, Said Xarashiyga xalifa Xishom (105-125/ 724-743) tomonidan Devashtichni qatl etmaslik xususida ko‘rsatma ham bajarilmadi. Devashtichning boshi Iroqqa Umar ibn Xubayrga, chap qo‘li esa Toxaristonda jang qilayotgan Sulaymon Abu Sariga jo‘natiladi [5, 37]. Devashtich qatl etilgach, Said Xarashiy shu paytda Keshda hukmdor bo‘lib turgan Vik bilan ham 6 yoki 10 ming nafar qul berish xususida [18, 330], boshqa manbalarda esa 10 ming qo‘y to‘lashni, uning 6 mingni 40 kun ichida to‘lash sharti bilan Keshga hujum qilmaslik xususida shartnoma imzolaydi [11, 178]. Said Xarashiyning vayshiyona siyosati ko‘plab ozodlik kurashchilarini cho‘chitib qo‘ydi. Shulardan biri Xuzorning turkiy hokimi Suburg‘o bo‘lib, u ham arablar bilan murosa qilishga majbur bo‘ladi. Ammo u Said Xarashiy tomonidan xiyla bilan qo‘lga olindi va Maydon degan joyda qatl etiladi [2, 131]. Xarashiyning raqiblarini munofiqona rejalar bilan yo‘q qilish siyosatini Sharqiy viloyatlar va Iroq noibi Umar ibn Xubayr ham qo‘llab-

quvvatlamadi. Shu sabab 104 (722\723) yilda uning o‘rniga Xuroson noibi etib Muslim ibn al-Kilabiy (104-106/723-725) tayinlandi [1, 190].

Xulosa. Said Xarashiyning Movarounnahrda yu-ritgan munofiqona va vaxshiyona siyosati, Movarounnahrdagi qarshilik harakarlatlarini nisbatan pasaytirgan bo‘lsa-da, amalda unga butunlay chek qo‘ya olmadi. Mintaqadagi qarshilik harakatlari uning faoliyatidan keyin ham yangi kuch va pozitsiya bilan davom etdi. Arablar katta qiyinchilik 751-yilga qadar Movarounnahrni bo‘ysundirlar. Bo‘ysundirilganlik uchun aynan 751-yilning tanlab olinganligining boisi Talas janggi bilan izohlanadi. Shu davrda Movarounnahr aholisi va turli kurashlarda yengilan turklar arablar bilan bir safda turib Xitoyning Movarounnahrga qilgan ekspansiyasini qaytaradilar. Lekin Movarounnahr azaldan mustaqil boshqaruvga asoslangan, mintaqa bo‘lib, joiz bo‘lsa, o‘z erkini pul bilan bo‘lsa-da sotib olishi mumkin edi. Bu safar ham u Arab xalifaligining ajralmas bo‘lagi bo‘lishga rozi bo‘lolmadi. 822-yilda Xurosonda mahalliy tohiriylar sulolasi boshqaruvni qo‘lga oldi, xuddi shu payt Movarounnahrdagi boshqaruv mahalliy somoniylar qo‘liga o‘tdi. Keyinchalik ular o‘rta asrlarning qudratli davlatiga aylandi. Arab xalifaligidan Xuroson va Movarounnahr aholisi uchun haq din – Islom meros bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar

1. История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г.Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987.
2. А. Отахўжаев. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Т.: 2010.
3. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970.
4. Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992.
5. Ғойибов. Деваштич. Тошкент 2013 й.
6. Лившиц В.А. Правители Панча (согдийцы и тюрки) // НАА. – М.: Наука, 1979. – № 4.
7. Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2008.
8. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. – Тошкент: Фан, 1990.
9. Крачковская В.А., Крачковский И.Ю. Древнейший арабский документ из Средней Азии // Согдийский сборник. Сборник статей о памятниках согдийского языка и культуры, найдены на горе Муг в Таджикстане. – Л., 1934.
10. Якубовский А.Ю. Итоги работ Согдийско–таджикской экспедиции // МИА. – М., 1950. – № 15.
11. The History of al-Tabari. The Empire in Transition translated and annotated by D.S.Powers. ISBN 0-7914-0073-5.
12. История Самарканда. Том первый. С древнейших времен до Великой Октябрьской революции / Отв. ред. И.М. Муминов. – Ташкент: Фан, 1969.
13. А. Чалилов. Суғд дар арафаи тохтутози арабҳо ва муборизаи Сўғдиёна бар зидди имтилогпрони араб дар нимаи якуми асри VIII. Сталинобод 1961 й.
14. СДГМ - Согдийские документы с горы Муг. Вып. II: Юридические документы и письма / Чтен., пер. и коммен. В.А. Лившица. – М.: ИВЛ, 1962.
15. Фрейман А.А. Согдийские документы с горы Муг. Вып. I / Чтение, пер., коммен.: Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. –М.: ИВЛ, 1962.
16. Б. Ғойибов. Суғд конфедерацияси: шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. Тошкент – 2015 й.
17. Байхаки, Абу-л-Фазл. История Мас’уда (1030-1041). Пер. с перс., введ., комм. и прил. А.К. Арендса. – М.: Наука, 1969.
18. Ал-Балозурий. Футуҳ ал-Булдон. – Тошкент 2017 й.

UDK:9.902.3

NAVBOG‘TEPA YODGORLIGINING SIRLANGAN TOVOQLARI

A.A.Nazarov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navbog‘tepa yodgorligidan topilgan rivojlangan o‘rta asrlarga oid sirlangan tovoqlar haqida so‘z boradi. IX-XIII asrlar Samarqand Sug‘dida sirlangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish sohasida o‘ziga xos taraqqiyot davri bo‘ldi. Navbog‘tepa yodgorligidan ham ko‘plab sirlangan sopol idishlar, jumladan tovoqlar ham topildi. Mazkur tovoqlar o‘zlarining nafisligi va sifatliligi bilan Samarqand Sug‘dining boshqa yodgorliklaridan topilgan tovoqlardan farq qilmaydi. Navbog‘tepa yodgorligidan aniqlangan sirlangan tovoqlarni bezashda jigarrang, sariq, qizil, yashil kabi bo‘yoqlardan foydalanilgan. Shuningdek, idishlarning sirtiga shaffof, yashil, ko‘k, jigarrang, oq va sariq rangdagi sirlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Navbog‘tepa, sirlangan idishlar, tovoq, “Afrosiyob tipi”, Sug‘d, Afrosiyob, naqsh motivlari, kulolchilik, an’analar, angob.

Глазурованные подносы памятника Навбогтепа

Аннотация. В этой статье рассказыватся о глазурованных керамических подносах развитого средневековья, обнаруженных на памятнике Навбогтепа. IX-XIII века считаются периодом развития глазурованной керамики в Самаркандском Согде. На памятнике Навбогтепа также обнаружены глазурованная посуда, в том числе подносы. Эти подносы не отличаются от других памятников Самаркандского Согда своим изяществом и качеством. Коричневыми, желтыми, красными и зелеными красками украшены глазурованные подносы, найденные в памятнике Навбогтепа. Также посуда глазирован в прозрачный, зеленый, синий, коричневый, белый и желтый цвета.

Ключевые слова: Навбагтепа, глазурованная посуда, поднос, «Афрасиабский тип», Согд, Афрасиаб, узорные мотивы, керамика, традиции, ангоб.

Glazed dishes of Navbogtepa monument

Abstract. This article tells about the glazed trays of the developed Middle Ages, found at the Navbagtepe monument. There was a period of development in the field of glazed pottery in the IX-XIII centuries in Samarkand Sugd. Many glazed pottery, including trays, were also found at the Navbogtepa monument. These trays do not differ from other monuments of Sugd of Samarkand in their elegance and quality. Brown, yellow, red, and green dyes were used to decorate the glazed trays found at the Navbogtepa monument. The surface of the dishes is also decorated with transparent, green, blue, brown, white and yellow glazes.

Keywords: Navbogtepa, glazed dishes, trays, "Afrosiab type" Sogd, Afrosiab, patterned motives, pottery, traditions, engob

Navbog‘tepa yodgorligi Samarqandning ko‘hna shahri bo‘lgan Afrosiyob yodgorligidan 12 km shimoli – g‘arbda, Samarqand tumaniga qarashli Navbog‘ qishlog‘ining shimolida, Siyob kanalining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Yodgorlikning umumiy maydoni 6 gektar bo‘lib, u ark, shahriston va rabot qismlaridan iborat **[2. 80-81].** Yodgorlik Qorasuv va Siyob kanallarining o‘rtasida joylashgan.

Ushbu yodgorlik bir biridan 20 m uzoqlikda bo‘lgan ikkita qismdan iborat. Birinchi qism uchburchak ko‘rinishida bo‘lib, shimoldan janub tomon yo‘nalgan. Ikkinchi qism esa G shaklida bo‘lib, umumiy maydoni 220x140 m. ni tashkil etadi. Uning shimoliy-sharqida

balandligi 10 m bo‘lgan tepalik joylashgan. Arxeologik va yozma manbalarning ilmiy tahliliga ko‘ra, Navbog‘tepa yodgorligi (Isbiskat) Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmog‘ida joylashgan bo‘lib, Samarqandning Naubuxor darvozasidan chiqgan karvon Navbog‘tepa (Isbiskat) orqali Qoradaryo bo‘ylab, Ishtixon, Kushoniya, Fay va Dobusiya kabi shaharlardan o‘tib Buxoro Sug‘diga borish mumkin bo‘lgan **[5. 206].**

O‘tgan asrning oxirlarida Navbog‘tepa yodgorligida olib borilgan kuzatuv xarakteridagi tekshirishlarga ko‘ra, bu yerda ilk o‘rta asrlardan so‘nggi o‘rta asrlarga qadar hayot davom etgan. Biroq keyingi yillarda olib borilgan uncha katta bo‘lmagan arxeologik kuzatishlar bu yodgorlikda hayot asosan rivojlangan o‘rta asrlarda gullab yashnaganligini ko‘rsatib berdi. Yodgorlikdan aniqlangan kulolchilik buyumlari Afrosiyob va Markaziy Sug‘dning boshqa yodgorliklaridan aniqlangan kulolchilik mahsulotlariga juda o‘xshaydi. Ayniqsa, sirlangan kulolchilik buyumlari, xususan tovoqlar, ko‘zalar, piyolalar, kosalar, chiroqlar va boshqalar alohida ajralib turadi. Navbog‘tepadan topilgan sirlangan “Afrosiyob tipidagi” idishlarning o‘rganilishi yodgorlikning aniq sanalashtirish imkonini ham beradi **[6. 143].**

Navbog‘tepadan aniqlangan tovoqlar yasalish texnikasi va bezak berilish uslubiga ko‘ra Afrosiyobning X-XIII asr boshlarida yasalgan sirlangan tovoqlariga o‘xshash. Shuningdek, Navbog‘tepa tovoqlarining analogiyasi O‘rta Osiyoning deyarli barcha hududlarida, jumladan Yettisuv, Farg‘ona, Ustrushona, Tojikistonning markaziy va janubiy qismlari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, Buxoro hamda Xorazmning shu davr madaniy qatlamlarida ham uchraydi.

Biz o‘rganayotgan Navbog‘tepa yodgorligi sirlangan sopol idishlari, aniqrog‘i tovoqlar quyidagilardan iborat.

Birinchi tovoq. Tovoqning ichiga och sariq angob berilgan bo‘lib, uning ustidan 2 ta qatma-qat qilib aylanasimon naqsh solingan. Birinchi ichki aylana jigarrang, tashqarisidagi aylana esa qizg‘ish rangda va shu rangda har joyida ushbu aylanaga tutashtirib nuqtali bo‘yoq berilgan. Bundan tashqari, sopol idish gardishining pastki qismida 3 ta yumaloq to‘q-jigarrang tusli nuqta berilgan. Tovoq gardishining aylanasi 24 sm bo‘lib, uning sirtiga ham och sariq angob surtilgan.

Bu xil uslubda yasalgan tovoqlar O‘rta Osiyoning juda ko‘plab hududlaridan topilgan bo‘lib, asosan X-XII asrlar bilan davrlashtiriladi. Jigarrang, qora, och sariq, malla va yashil ranglar bilan sirlangan idishlarni bezash an’anasi asosan X asrdan boshlangan (1-rasm). Idishning sirtiga berilgan fon va naqshlarga o‘xshash sirlangan tovoqlar Afrosiyobning XI-XII asrga mansub madaniy qatlamlaridan ham aniqlangan**[8. Расм. 21, 2].**

1-rasm.

Ikkinchi tovoq. Tovoqning ichki tomoniga oq angob ustidan ornamentlar tushirilgan bo‘lib, ular asosan jigarrang, qizg‘ish va yashil ranglarda berilgan. Tovoqning sirtiga ham oq angob surtilgan, uning ustidan ya‘ni gardishining sirtiga 1 sm kenglikda to‘lqinsimon qizg‘ish bo‘yoq surtilgan. Tovoq gardishining aylanasi 30 sm ni tashkil qiladi (2 rasm).

2-rasm.

Movarounnahrning rivojlangan o‘rta asrlardagi sirlangan sopol idishlariga angob bilan bezak berish idishning foniga bog‘liq bo‘lgan. IX-X asrlarda oq yoki fil suyagi tusli fonga ega idishlarga ikki marta angob berilgan. XII asrning yarmidan boshlab sirlangan idishlar yasashda idish yasalib quritilgan va yorqin oq fon ustidan angob bilan qoplash texnikasi qo‘llanila boshlangan **[6. 11-12].** Xuddi shu kabi tovoqlar Axsikatdan ham ko‘plab aniqlangan **[1. Рис. 25].**

Uchinchi tovoq. Tovoqning angobi och-pushti, siri esa sarg‘ish bo‘lib, nayza barg elementlarni o‘z ichiga olgan yorqin chiziqdan iborat. Idishda turli xil bezaklar, jumladan, zanjirsimon ko‘rinishdagi bezakni ikki yonidan to‘g‘ri och-sarg‘ish paralell chiziqlar, ularning o‘rtasida to‘lqinsimon yashil rangli ornament bilan bezatilgan. Sopol idishning sirtiga ham oq angob berilgan bo‘lib, uning ustidan ya‘ni gardishining sirtiga 1 sm kenglikda oq angob ustidan to‘lqinsimon qizg‘ish bo‘yoq berilgan. Tovoq gardishining aylanasi 32 santimetrga teng. Ushbu idishlarni XI asrning 2 yarmi XII asrning boshlari bilan davrlashtirish mumkin (3-rasm).

3-rasm.

Movarounnahr kulolchilik an’analari taraqqiyotida VIII-IX asrlarda innovatsion o‘zgarish, ya’ni sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarish paydo bo‘lgan. O‘rta asrlarda Movarounnahrning kulolchilik taraqqiyoti dinamikasini bir nechta davrlarga bo‘lish mumkin. Ularning birinchisi IX-XIII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Musulmon Sharqining o‘rta asr sirlangan sopollari yagona uslubni saqlab ma’lum bir an’ana talablariga javob bersada,

Movarounnahrning sirlangan sopollari mahalliy an'analar va an'anaviy naqsh motivlaridan foydalanishni o'zida aks ettirgan o'ziga xos xususiyatiga ega edi**[4. 181].**

Birinchi va ikkinchi tovoqqa o'xshash shakl va fonga ega tovoqlar Markaziy Sug'da juda keng tarqalgan (4-rasm).

4-rasm. Afrosiyobdan aniqlangan sirlangan tovoqlar. XI-XII asrlar.
(Шишкина, 1986. рис. 21, 2).

O'rta Osiyoda dastlabki sirlangan idishlar VIII asr qatlamlarida uchray boshlaydi. V.L. Vyatkining fikricha, Samarqandning ilk sirlangan idishlari IV-VII asrlarda chetdan keltirilgan. I.A.Suxarev fikriga ko'ra, Samarqandda arablar bosqini natijasida VIII asrning 20-yillaridan ilk marta sirlangan sopol buyumlar paydo bo'lgan. Afrosiyob yodgorligida arxeologik tadqiqotlar o'tkazgan A.I.Terenojkin Samarqand kulollari taxminan VIII asrning o'rtalariga kelib kulolchilik idishlariga dastlabki sir berish usullarini ilk marotaba qo'llay boshlaydilar deb ta'kidlaydi **[7. 132-133].** Movarounnahrda IX asr o'rtalariga kelib sifati ancha past xira ishqorli sirlangan sopol idishlar ko'plab ishlab chiqarila boshlanishi Afrosiyob yodgorligida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo sirlangan buyumlar ishlab chiqarishdagi o'sish IX asr oxirlarida, yorqin, tiniq, turli-tuman rangdor gammali sir berish texnologiyasining o'zlashtirilishi bilan hamohang tarzda kuzatiladi**[4. 182].**

Nafaqat, Samarqandda balki, butun O'rta Osiyoning kulolchilik markazlarida VIII asrning oxirdan boshlab sirlangan kulolchilik idishlari shiddat bilan ishlab chiqarish boshlanadi. Dastlabki, sirlangan sopollarning sifat darajasi bir muncha past bo'lib, idish sirtiga rangsiz-qoramtir sir va ko'kimtir-yashil naqshlar berilgan. Keyinchalik, jigarrang bo'yoq bilan naqsh berish paydo bo'ldi. Samarqandlik kulollarning dastlabki sirlangan idishlari kosa, piyola va laganlardan iborat bo'lgan. Shuningdek, ularning naqsh motivlari ancha sodda edi. Samarqandning IX-X asr boshlaridagi sirlangan idishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan va aynan shu davrda Afrosiyob sirlangan sopollari deb nomlanuvchi alohida yo'nalish paydo bo'ladi **[6. 9-10].**

Afrosiyob sirlangan sopollari o'zining sir berish texnologiyasi va naqsh berish uslubiga ko'ra atrofdagi boshqa kulolchilik markazlariga ta'sir ko'rsatgan. Samarqandda sirlangan kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishda IX-X asrlarda ko'plab naqsh berishlar motivlari ma'lum bir andozaga solindi.

Samarqandda dastlab, kulollar oldin ishlab chiqarilgan kulolchilik sopol buyumlariga sir berishgan. Keyinchalik boshqa tip kulolchilik buyumlarini sirtiga sir bera boshladilar. Bundan tashqari Movarounnahr sirlangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarishiga O'rta va Yaqin Sharq kulolchilik an'analari kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Movarounnahrning sirlangan sopol idishlar ishlab chiqarishida XI- XIII asr boshlarida xo'jalik, oshxona va maxsus buyumlar ko'pchilikni tashkil etgan. Ular orasida xo'jalik idishlari eng ko'p ishlab chiqarilgan bo'lib, ushbu buyumlar odatda taom suzilgan vaqti

dasturxonni tuzashga mo‘ljallangan**[3. 353].** Xo‘jalika xos sirlangan kulolchilik buyumlari piyola, kosa, tovoq, taqsimcha va hokazolardan iborat bo‘lgan. J.K. Mirzaaxmedovning fikricha, etnografik paralellarga ko‘ra, ular o‘z navbatida “hashamdor” (парадный) va “kundalik hayotda qo‘llanishga” mo‘ljallangan bo‘ladi. “Hashamdor” idishlar odatda mehmon kutish va mehmonxonani bezash uchun foydalanilgan. Oshxona sopol idishlariga asosan, sirlanmagan ko‘zalar, qozonlar, qopqoqlar, tuvaklar va boshqalar kiradi. Maxsus sopol idish va buyumlardan foydalanish uchun chiroqlar, qalamdonlar, siyohdonlar, beshik tuvaklari, o‘yinchoqlar kabilar ta’luqli **[4. 181].**

Afrosiyobda sirlangan sopol ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ya’ni, XI asrning 1 yarmida usta-kulollar asosan to‘q-ko‘k, yarim shaffof yashil-ko‘kimtir (бирюза) sirlardan foydalanishgan. Keyinroq esa sir berish uslublari yanada mukammalasha borgan. Tovoqlarning chiroyli va sifatli bo‘lishi angob berishga ham bog‘liq bo‘lgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, XII-XIII asrning boshlarida yaratilgan shakllari XIX asrning oxiri- XX asr boshlariga qadar saqlanib qolgan **[6. 125].**

Xulosa. Markaziy Sug‘d mintaqasida ilk o‘rta asrlarda sirlangan sopollar ishlab chiqarish boshlangan. Kulolchilikning ushbu sohasi rivojlangan o‘rta asrlarga kelib yanada taraqqiy topadi. Somoniylar va Qoraxoniylar davrida o‘ziga xos uslub va an’analarga ega sirlangan sopol idishlar ishlab chiqarilgan. Ularning naqsh va naqsh motivlari takrorlanmas, bejirimligi va o‘ziga xosligi bilan Movarounnahrning boshqa mintaqalaridagi sirlangan sopol idish va buyumlardan farqlanib ham turgan. Samarqand va uning atroflarida XI asrning o‘rtalaridayoq “Afrosiyob tipidagi” sirlangan sopol idish va buyumlar ishlab chiqaruvchi markazlar vujudga kelgan.

Samarqand Sug‘dida joylashgan Navbog‘tepa yodgorligida 2019-2021 yillardagi dala tadqiqotlari mavsumi davomida ko‘plab sirlangan kulolchilik mahsulotlari namunalari aniqlandi. Topilmalar yasalish texnikasi va uslubiga ko‘ra Markaziy Sug‘dning rivojlangan o‘rta asrlarga oid yodgorliklaridan aniqlangan boshqa topilmalarga o‘xshaydi. Bizning fikrimizcha, Navbog‘tepa yodgorlgida ham kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan va ular Afrosiyob sirlangan sopol idishlaridan namunalar olgan holda tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Qazishmalar davomida rangli sopol idishlar va shisha bo‘laklari qayd etilgan bo‘lib, ular X – XII asrlar bilan davrlashtirilgan. Bunday idishlarning anologiyalari Afrosiyob, Poykent va Axsikent kabi yirik hunarmandchilik markazlari bo‘lgan yodgorliklarida ham juda ko‘plab uchraydi.

Adabiyotlar

1. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. Ташкент, 2013.
2. Лебедева Т.И. Сельская округа и ее роль в формировании раннесредневекового Самарканда. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд, 1994.
3. Мирзаахмедов Д.К. К социально-экономическим факторам развития глазурованной керамики Мавераннахра IX - начала XIII в. // Согдийцы, их предшественники, современники и наследники: на основе материалов конференции “Согдийцы дома и на чужбине”. СПб.: ГЭ, 2013. С. 353–375 (Тр. ГЭ; Т. 62).
4. Мирзаахмедов Д. Узбекистан // Художественная культура Центральной Азии и Азербайджана IX-XV веков. Том I. Керамика. Самарканд-Ташкент. 2011.
5. Назаров. А. А. Исбискат-Буюк ипак йўлида // Қадимий Жиззах воҳаси – тарих, маданий тараққиёт ва замонавий ўзгаришлар чорраҳасида. (Республика илмий-амалий конференция материаллари). Жиззах, 2021.
6. Ташходжаев Ш.С. Художественная поливная керамика Самарканда IX - начало XIII вв. Ташкент, 1967.
7. Тереножкин А. Вопросы историко-археологической периодизации древнего Самарканда, ВДИ, 1947. № 4.
8. Шишкина Г.В. Ремесленная продукция средневекового Согда. Ташкент, 1986.

UDK: 9(575.141)

RUS DAVLATCHILIGIDA NOTARIAL IDORALAR FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sh.B.Kholikulov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Rus davlatida notarial tizimning shakllanishi va rivojlanishining institutsional xususiyatlari tadqiq qilinadi. Tarixiy tahlil, tizimlashtirish usullaridan foydalangan holda Rossiyada qadim davrlardan XIX asr ikkinchi yarmida Notarial idoralar faoliyati borasida Nizom qabul qilinguniga qadar notarial tizim tarixi o‘rganiladi. Rossiya imperiyasi tasarrufida bo‘lgan ayrim hududlarda amal qilgan musulmon huquqi va notarial vazifalari o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtiriladi. Tadqiqot so‘ngida Rossiyada notarial idoralar faoliyatining kengaytirilishi imperator ma’muriyatining islohotchilik faoliyati va boshqaruv tizimini tartibga solish yo‘lidagi amaliy qadamlaridan biri ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: shajara, tamg‘a, veksel shartnomasi, birja notariuslari, maklerlar, shartnomalar, uyezd notariuslari, chaqiruv qog‘ozi, bosh notariuslar, kichik notariuslar.

Этапы развития нотариата в Российском государстве

Аннотация. В статье исследуются институциональные особенности становления и развития нотариальной системы в российском государстве. Используя методы исторического анализа и систематизации исследуется исторический процесс становления нотариальной деятельности на Руси с древнейших времен до принятия «Положения о нотариальной части» во второй половине XIX века. Будут разъяснены различия между мусульманским законодательством и нотариальными обязанностями, действующими на некоторых территориях, находящихся под юрисдикцией Российской империи. В исследовании делается вывод о том, что расширение нотариальных контор в России был одним из практических шагов для регулирования деятельности по реформированию и системы управления страной имперской администрации.

Ключевые слова: генеалогия, тамга, договор векселя, нотариусы фондовой биржи, брокеры, контракты, уездные нотариусы, повестка, главные нотариусы, малые нотариусы.

Stages of development of a notary in the Russian state

Abstract. The article explores the institutional features of the formation and development of the notarial system in the Russian state. Using the methods of historical analysis and systematization, the author investigates the historical process of the formation of notarial activity in Russia from ancient times to the adoption of the "Regulations on the notarial part" in the second half of the 19th century. The differences between Muslim law and notarial duties in some territories under the jurisdiction of the Russian Empire will be clarified. The study concludes that the expansion of notary offices in Russia was one of the practical steps to regulate reform activities and the system of government of the country by the imperial administration.

Keywords: genealogy, tamga, bill agreement, stock exchange notaries, brokers, contracts, county notaries, agenda, chief notaries, minor notaries.

Mavzuning dolzarbligi. 1864-yildagi sud islohoti Rossiya imperiyasi qonunchilik tizimigagina emas, mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlar rivojiga ham ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatdi [1]. Shu sababli XIX asr ikkinchi yarmi Rossiya imperiyasi sudlov tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning nafaqat imperiya ichki hududlarida, balki, rus bosqiniga uchragan boshqa yerlarga ta’siri ko‘pchilik tadqiqotchilar diqqat-markazidagi masalalardan biri bo‘lib keldi. Ushbu qonun qabul qilinguniga qadar Rus davlati o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida qator

tarixiy davrlarni bosib o‘tdi. Bu holat notarial idoralar faoliyatiga ham taalluqli bo‘lib, uning manbaviy asosini Rus qonunchiligi rivojiga hissa qo‘shgan qator sudebnik va qonunlar, podsho farmonlari va xorij qonunchilik normalari tashkil qildi. Shu sababdan, 1864-yilgi Sud Nizomi, 1866-yildagi notarial faoliyat borasidagi Nizom Rossiya imperiyasining qonunchilik normalarini tizimlashtirish, boshqaruv tuzilmasini isloh qilish borasidagi xatti-harakatlari yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatib berdi. Biroq ta’kidlash o‘rinliki, bu yangiliklar o‘zga millat va elatlarning xohish-istaklarini har doim ham hisobga olmagan, shu boisdan, bu qonunchilik normalarini yangi tahrirda qabul qilish talab qilingan. Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi ham ana shu tarixiy davrni bosqichma-bosqich o‘rganish asosida yaqqol namoyon bo‘ladi, negaki Turkiston o‘lkasini istilo qilish va bu yerda rus boshqaruv tuzilmasini shakllantirishda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, imperiya ma’murlarining islohotchilik faoliyati Turkiston o‘lkasiga joriy qilingan yangiliklarni bekor qilishni talab qildi.

Ammo, ta’kidlash kerakki, mazkur muammo doirasida tadqiqot olib boruvchilarning aksariyati, eng avvalo, shu islohotlarni o‘tkazishga tayyorgarlik jarayoniga kengroq e’tibor qaratishni ma’qul, deb hisoblaydilar. Masalan, 1864-yilgi sud islohotini yoritib berishga xizmat qilgan Sud Nizomi aslida islohotlarni o‘tkazishga to‘siq bo‘lgan holatlarini yoritish bilan cheklangan [2]. Tarixchilar mavjud holatlarni o‘rganish asnosida islohotlarning amaliy ifodasi bu – xalq ommasining qonunlarga rioya qilishni, ularga hurmat nazari bilan qarashni o‘rgana boshlaganliklari edi, deb tushuntiradilar. Chunki, 1859-yilda nashr qilingan “Golosa iz Rossii” gazetasida K.Pobedonossev “Rossiyada Nikolay I davridan qolgan odatga ko‘ra, bu yerda hech kim aql bilan ish ko‘rishni istamaydi, bil’aks hamma qonun yoki vijdon doirasida emas, berilgan buyruqqa ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishga odatlanganlar” [3] deb yozgan, bu esa yuqoridagi fikrlarning yaqqol ifodasi sifatida rus jamiyatida islohotlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi xalq ommasi va, umuman olganda, jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish yo‘lidagi dastlabki amaliy qadamlardan bo‘ldi, deyish mumkin.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu dolzarbligi jihatdan ko‘plab tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo‘lgan. Turkiston o‘lkasini Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishining ijtimoiy, siyosiy va madaniy oqibatlarini tadqiq qilgan tarixchilar T.Sultonova, F.Isxakov, N.Abdurahimova, F.Bakirov, B.Ergashev, Sh.G‘afforovlar Turkistonda sud idoralari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlanish bosqichlari tarixiga to‘xtalib o‘tgan bo‘lsalar, Rossiya sudlov tizimi asoslarining yaratilishi va rivojlanishi tarixi bo‘yicha rus ma’murlari, sayyohlari va tarixchilaridan B.N.Kaplun, N.Fioletov, N.Likoshin, N.Mayev, N.I.Kraft, V.Nalivkin, S.N.Tregubovlarning asarlari va esdaliklari muhim hisoblanadi. Shuningdek, sud organlari va notariuslar faoliyati masalasini zamonaviy tarixshunoslikda xorij hamda MDH davlatlari tarixchilaridan D.Brouer, R.D.Kryus, A.Donelli, J.T.Metyu, P.Sartori, U.Abdurasulov, I.V.Anisimova, A.Soliyev, D.A.Glazunov, L.S.Nesterenkolar tadqiq etganlar.

Muammoning qo‘yilishi. Rus davlatchiligi tarixida notarial idoralar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, uning rivoji olimlar tomonidan bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganilgan. Jumladan, o‘rganilayotgan davrga qadar Rossiya notariat idoralari to‘rt bosqichni bosib o‘tgan. Birinchi bosqich XII-XV asrlarni o‘z ichiga olib, Rus davlati hududidagi knyazliklarda amalga oshirilgan oldi-berdi shartnomalari haqidagi xabarlar va yozma manbalar bilan bog‘liq.

XV-XVII asr o‘rtalariga qadar davom etgan davrda 1467-yilgi Pskov sud yorlig‘i, 1497-yilga oid Ivan III ning Sudebnigi, 1553-yilda Ivan IV tomonidan joriy etilgan Sudebnik, 1635-yilda podsho Fyodor Mixaylovich farmoni va boshqa hujjatlarning qabul qilinishi Rossiya hududlarida notarial faoliyat boshlanishi yo‘lidagi dastlabki qadam edi.

Turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarda notarial idoralarining va shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning xatti-harakatini belgilab beradigan o‘ziga xos tushuncha va tamoyillar shakllangan. Masalan, XVI asrda boshqirdlar yashagan hududlar notarial muaasasalari rivojlanish tarixini o‘rgangan A.R.Xaybullin quyidagi belgilarga e’tibor qaratishni lozim deb hisoblaydi:

1) Shajara – ilk notarial hujjat turlaridan biri bo‘lib, boshqird urug‘ oqsoqollari tomonidan tayinlangan mas’ul shaxs tomonidan tuzilgan, bu hujjat podsho ma’muriyati tomonidan tan olingan va yerga egalik huquqini ta’minlovchi asosiy yozma hujjat sanalgan;

2) Tamg‘a – muhrning bir ko‘rinishi bo‘lib, huquq va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki tugatish bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy kelishuvlar, shariat va odat normalarini belgilashda qo‘llaniladigan, hujjatga huquqiy maqomni taqdim qilish, qonuniy tus berish maqsadida qo‘llanilgan [4] va b.

Uchinchi bosqich XVII asr o‘rtalaridan 1860-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda, xususan 1649-yilda podsho Aleksandr Mixaylovich tomonidan Sobor nizomi, Pyotr I va uning vorislari qonun hujjatlari, 1832-yildagi Rossiya imperiyasi qonun hujjatlarining qabul qilinishi notarial faoliyatni tartibga solishda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqotchilar to‘rtinchi bosqichni 1860-1917-yillar oralig‘idagi notarial idoralar faoliyatini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog‘liq davr bo‘lganligini e’tirof etadilar. Xususan, bu bosqichda 1866-yilda notarial idoralar haqidagi Nizomni tayyorlash, qabul qilish va uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. O‘rganilgan tadqiqotlar davomida 1729-yilda imzolangan veksel shartnomasida ilk marotaba jamoat notariuslari atamasi ishlatilgan. Bu notariuslar veksel talablarini bajarmaganlarga nisbatan protest bildirishgan. 1781-yilgan boshlab savdo va vositachilik shartnomalarida makler va notariuslarga murojaat qilinganligi hujjatlarda o‘z aksini topgan. 1831-yilda Rossiyada birjada faoliyat yurituvchi notariuslar va maklerlar xizmati yo‘lga qo‘yilgan. O‘z xususiyatidan kelib chiqib, ular birjada amalga oshadigan oldi-sotdi shartnomalari hujjatlarini tayyorlash bilan shug‘ullanganlar. Moskva va Peterburgdagi birja notariuslari xorijiy fuqarolar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va o‘zga tillarda yozilgan hujjatlarni rus tiliga o‘girish huquqiga ega bo‘lganlar. Na notarius va na makler bo‘lmagan hududlarda bunday vazifani bojxona amaldorlari, shahar magistratlari, alohida hudud pristavlari va volost boshqaruv xizmatchilari amalga oshirish huquqiga ega bo‘lganlar [5]. Notarial faoliyatni markazlashtirish ishini davom ettirish ya’ni notariuslar faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ushbu sohani isloh qilishni nazarda tutgani bois XIX asrning 60-yillariga qadar mazkur sohada bir qator o‘zgarishlar va yangi qonun hujjatlari qabul qilinganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 1832-yilgi Qonun hujjatlar to‘plamida rus dehqonlarining krepostnoy huquq tartibini nazoratda ushlab turish bilan bog‘liq hujjatlarni yuritishda shu hujjatni tasdiqlab beruvchi shaxsga murojaat qilish bilan bog‘liq bandlar kiritilgan. Biroq yuqoridagi hujjatlar notarial idoralar faoliyatini yaqqol ko‘rsatib bera olmaganligi, ya’ni mazkur sohani yangicha tartiblar asosida isloh qilishning zaruriyati borligi tufayli 1860-yillarda Rossiya imperiyasi ma’muriyati bu masalaga qayta murojaat qilishni lozim deb topdi.

Turkiston o‘lkasining Chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi bu yerda asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni yangi o‘zgarishlar o‘zaniga burib yubordi. Ayni shu jihatdan olib qaraganda islom huquqini o‘zida mujassam etgan shariat va odat masalalari ham garchi bosqinchilik harakatining dastlabki davrida o‘z xususiyatini o‘zgartirmagan bo‘lsa-da, podsho Rossiyasi tomonidan qabul qilingan huquqiy masalalarga doir bir qator normativ hujjatlar islom huquqshunosligining mohiyatini ham o‘zgartirib yubordi.

XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasida xususan Aleksandr II hukmronligi davrida amalga oshirilgan islohotlar ayrim mutaxassislar fikricha asrlar davomida muomalada bo‘lib kelgan lotin tipidagi notarial idoralar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi fransuz va nemis taraqqiyot modeli tajribalariga murojaat qilingan. Jumladan, 1866-yilning 14-aprelida qabul qilingan Nizomning asosini 1813-yilda Fransiya, 1845-yilda Avstriya, 1861-yilda Bavariya davlatlarida qabul qilingan notarial qonunchilik tashkil etgan. Imperator topshirig‘iga ko‘ra 1860-yilning 12-mayida imperator devonxonasi ikkinchi bo‘limiga notarial idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi, shunga muvofiq, dastlab – 1863-1866-yillarda ikkita loyiha tayyorlandi. Ularning birinchisi davlat kengashi tomonidan qabul qilinmadi.

1862-yilning 20-sentabrida tasdiqlangan Rossiya imperiyasi sud tizimi haqidagi asosiy Nizomning 10-bob 88-moddasida quyidagi tartib belgilangan edi: “guberniya va uyezd tarkibiga kiruvchi shaharlarda mol-mulkka egalik qilish va boshqa shu kabi holatlar bo‘yicha dalolatnomalar tuzishga mas’ul va bevosita sud nazorati ostida bo‘lgan notariuslar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi”. Lekin Nizom butun mamlakat bo‘ylab amaliyotga joriy qilinmadi. Mamlakatning qaysi qismida notariuslar bo‘lmasa, bu ishni mirovoy sudyalar, uyezd sudlari va politsiyaga topshirish belgilandi [6]. Guberniya va uyezd notariuslari hukumat tomonidan maosh bilan ta’minlanishi, bundan tashqari ular tomonidan amalga oshirilgan hujjat yuritish tartibi muvofiqlashtirilganligiga qarab alohida foizda pul yig‘imlarini undirishi belgilandi (89-modda). Agar mijoz bilan bunday kelishuvga erishishning imkoni bo‘lmasa, notarial idora xodimi o‘zi bajargan ish uchun tarifga ko‘ra narx belgilashi mumkin bo‘lgan. Notarius oldiga qo‘yilgan majburiyatlarni bajarishga mas’ulligi, shuningdek, keyinchalik o‘z faoliyati davomida noto‘g‘ri harakatlarga yo‘l qo‘yilishini oldini olinishi uchun notariusdan lavozimni egallashdan avval ma’lum miqdordagi bo‘nak puli to‘lashi talab qilingan [7].

1864-yilning 20-noyabrida sud Nizomi, 1866-yilning 14-aprelida esa notarial qismlar haqidagi Nizom qabul qilindi [6]. 1866-yilda qabul qilingan Nizom to‘rt bo‘limdan tashkil topgan:

1. Notarial qism tuzilmasi,
2. Notariuslarning lavozim vazifalari,
3. Bosh notariuslarning lavozim vazifalari,
4. Notarial idoralarning moliyaviy ta’minoti.

Mazkur Nizomning bosh maqsadi notarial qismlarni sudlardan ajralib chiqishini muvofiqlashtirish bo‘lgan. Nizom loyihasini muhokama qilgan davlat kengashi shu vaqtga qadar sud tomonidan krepostnoy huquq bilan bog‘liq dalolatnomalarni tasdiqlash bo‘yicha amal qilgan tartib noqulay bo‘lganligi, sudyalarni o‘z xizmat vazifalaridan tashqari boshqa ishlar bilan shug‘ullanishga undagan, degan xulosaga keldi. Shu munosabat bilan endilikda krepostnoy huquqlari dalolatnomalarini tasdiqlash okrug sudlari qoshidagi notarial arxivlarda faoliyat olib boruvchi bosh notariuslar zimmasiga yuklatildi, dalolatnomalar tuzish esa poytaxt, guberniya, uyezd tarkibidagi shaharlar va uyezdlarda o‘z notarial idorasiga ega kichik notariuslar zimmasida qoldi. Shu tariqa endilikda notariuslar alohida huquqshunoslar toifasini tashkil qilgan holda o‘z faoliyatlarini olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1862-yilgi Nizom notariuslar statusini ham belgilab berdi. Unga ko‘ra:

1. Notariuslar okrug sudi raisining taklifiga binoan sud palatasi bosh raisi tomonidan o‘z mansabiga tayinlangan;
2. Garchi notariuslar davlat xizmatida bo‘lsalar-da, ularga davlat tomonidan maosh va nafaqa to‘lanmagan;

3. Notariuslar faoliyatiga xususiy huquqiy amaliyot statusi berilgan. Ya'ni, ushbu qoidaga muvofiq notariuslar erkin kasb egalari bo'lib, amaldor hisoblangan. Aynan notariuslarning amaldor ekanligi ularning o'z xizmat vazifalarini suiiste'mol qilgan hollarda ma'muriy javobgarlikka tortishga asos bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, mazkur Nizom notarial faoliyatning ikki turini ajratib beradi:

1. O'z notarial idorasiga ega kichik notariuslar turli dalolatnomalar va guvohnomalar yozish huquqiga ega bo'lganlar (bunday dalolatnomalar "notarial" yoki "chaqiruv qog'ozi" deb nomlangan).
2. Vazifasi krepostnoylik huquqi dalolatnomalarini yozish va rasmiylashtirish bilan bog'liq ishlarni bajarishdan iborat bo'lgan bosh notariuslar.

Notarial faoliyatning birinchi ko'rinishida tomonlar notariusni uyga chaqirishlari yoki o'zlari idoraga borish xohishini bildirishlari mumkin bo'lgan. Ko'chmas mulkka egalik huquqini olish yoki uni cheklash bilan bog'liq dalolatnomalarni tuzish qonun doirasida ko'rib chiqilgani bois faqat shu soha bilimdoni bo'lgan notariuslar tomonidan rasmiylashtirilgan.

Dalolatnomalarni tuzish vaqtida kichik notariuslar zimmasiga quyidagi tartiblarga rioya qilish talab etilgan:

1. Murojaat qiluvchi yoki uning ishonchli vakili shaxsini aniqlash;
2. Ularning huquq va majburiyatlarini tekshirish;
3. Jamiyat odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan yoki alohida shaxslarning shaxsiyatiga tegishi mumkin bo'lgan qonun doirasidan tashqarida biror-bir jumlaning dalolatnomalarda bor yoki yo'qligini tekshirish;
4. Dalolatnomani tuzish vaqtida uning voyaga yetgan, xat-savodga ega hamda notarius tanigan ikki kishi, ko'chmas mulk oldi-sotdisi bilan bog'liq holatlarda uchta guvoh ishtirokini ta'minlash;
5. Kasb siriga sadoqatli bo'lish [8]. Ushbu holat bo'yicha qonunbuzarlik sodir etilgan holatlarda notarius o'zining huquqiy maqomidan ayrilishi,

Notarius bundan tashqari dalolatnoma loyihasini tayyorlash, uni tomonlarga o'qib eshittirish, tomonlar imzosini tasdiqlash, dalolatnoma tuzilganligi uchun to'lanadigan to'lovlarni yig'ish va dalolatnomani notarial kitobga kiritish kabi ishlarni bajarishga ham mas'ul bo'lgan [8]. Notariuslar ayrim hududlardagi ularning o'rniga tayinlangan mirovoy sudyalar tuzilgan dalolatnomani pochta orqali notarial arxivlarga yuborishga mas'ul bo'lganlar [9]. Amaldagi Nizomning 142-moddasiga muvofiq 1864-yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual Nizomining 106, 109, 125, 410, 457, 543 va 595-moddalarida notarial hujjatlarning guvohlik ahamiyati asoslab berildi.

Va nihoyat 1866-yilda qabul qilingan notarial idoralar faoliyati haqidagi Nizom Rossiya imperiyasida 1917-yilga qadar amalda bo'lib turdi. Bu vaqt oralig'ida imperator hukumati notarial faoliyatni optimallashtirish va qayta isloh qilishga uringan bo'lsa-da, ular biror bir ijobiy natija bilan tugamadi. Masalan, 1899-yilning 19-mayida Rossiya imperatorining farmoniga muvofiq notarial idoralar haqidagi Nizomni qayta ko'rib chiqish belgilangan va shunga ko'ra Nizomning yangi tahriri loyihasi ishlab chiqilgan edi [10]. Bu loyiha 1902-yilining 11-mayidan 1904-yilning 14-mayiga qadar ayni shu maqsad yo'lida tashkil etilgan maxsus kengash tomonidan muntazam ko'rib borildi. Notarial qismlar haqidagi Nizom loyihasida iqtisodiy munosabatlarga alohida urg'u berilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, notarial idoralar tuzilmasi bilan bog'liq holatni o'zgartirish, notarial harakatlarni amalga oshirish tartibiga, shuningdek, krepostnoylik dalolatnomali, notarial tariflar Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Varshava okrugi, Boltiqbo'yi guberniyasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari singari alohida hududlarda amal qiladigan notarial qoidalarni qo'llash

bo‘yicha ba’zi bir holatlarga o‘zgartirish kiritish taklif qilindi. Senator, imperator maxfiy maslahatchisi A.G.Gasman tomonidan ishlab chiqilgan tushuntirish xatida o‘tkazilgan kengashlar faoliyati quyidagicha yoritib berildi: “1866-yilning 14-aprelida imperator Aleksandr II hukmronligi davrida qabul qilingan mazkur Nizom zamon talablariga mos tuzilganligi sababli unga o‘zgartirish kiritishni joiz deb bilmaymiz, bil’aks endilikda kiritiladigan har qanday yangicha talablar va rasmiyatchilik shu soha bilan shug‘ullanuvchilar faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi, murakkablashtirishi mumkin” deb hisoblaymiz. Yangi Nizom loyihasi keng muhokama uchun nashr qilingan bo‘lsada, lekin qabul qilinmadi [11].

Xulosa. Garchi notariuslar fuqarolik holatini ifodalash bilan bog‘liq xatti-harakatlarni amalga oshirish yuzasidan yetarli vakolatlarga ega bo‘lsada, XIX asr oxirida Rossiyada notarial harakatlarni amalga oshiruvchi uch guruh mansabdor shaxslar saqlanib qolgan. Bular birjadagi maklerlar va notariuslar, tor doiradagi maklerlar, magistratlar, bojxona amaldorlari, tijorat sudlari va shu kabi mansabdorlar edi.

Shu tariqa, qadimgi Rim davlatchiligi tarixiga borib taqaluvchi notarial idoralar faoliyati o‘z tarixiy rivojlanishi davomida bir qator islohotlarni o‘tkazdi. Bugungi kunda ham mohiyatan Rim qonunchiligi an’analari saqlanib qolingan notarial faoliyatning Turkiston o‘lkasida shakllanishi va mustahkamlanishida podsho Rossiyasining qonunchilik tizimida olib borgan islohotlari va ularning natijalari asosiy rol o‘ynadi.

Adabiyotlar

1. Виленский Б.В. Судебная реформа и контрреформы в России. –Саратов, 1969.
2. Попова А.Л.Судебная реформа 1864 года и развитие гражданского общества во второй половине XIX века // Общественные науки и современность, 2002, № 3.
3. Победоносцев К.П. Граф В.Н. Панин // “Голоса из России”. Сборники А.И. Герцена и Н.П. Огарева. –Москва, 1976. Вып. 3. Кн. 7.
4. Хайбуллин А.Р. Эволюция нотариата в Башкирии (вторая половина XVI – начало XX вв.): Автореф. дис. … канд. юрид. наук. –Краснодар, 2012.
5. Abduraximova N., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. –Toshkent: Akademiya. 2002.
6. Основные положения преобразования судебной части в России. (проект) 1862. Президентская библиотека имени Б.Н.Ельцина. доступ на сайте https://www.prlib.ru/item/355356.
7. O‘zRMA 310- fond, 1-ro‘yxat, 31- yig‘ma jild, 21-orqa bet.
8. Великая реформа: к 150-летию Судебных Уставов: В 2 т. Т.1. Устав гражданского судопроизводства / Под ред. Е.А. Борисовой. –Москва, 2014.
9. Степанов А.В. Обязанности нотариуса при осуществлении профессиональной деятельности по Положению о нотариальной части 1866 года и действующему законодательству (сравнительно-правовой анализ) // Вестник Нижегородской академии МВД России, 2012, № 18.
10. Правовые основы нотариальной деятельности в Российской Федерации. Под ред. Е.А.Борисовой. –Москва. ЮСТИЦИНФОРМ, 2016.
11. Судебная часть в Туркестанском крае и Степных областях. Составил И.И. Крафт. –Оренбург, 1898.

УДК:392.1(575.1)

СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН СРЕДНЕЙ АЗИИ

В.Мухамеджанова
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы им. А. Навои

Аннотация: В конце 20-х - начале 30-х гг. прошлого века в Средней Азии развернулось движение за социальное и духовное освобождение женщин, за снятие паранджи как символа женского рабства. Особенно страшными и кровавыми были 1927-1928 годы. Именно этот период насчитывает наибольшее количество жертв. В данной статье, жизнь женщин на Востоке, которая происходит в обществе и отражающая все процессы и явления на протяжении существования человечества - бедность, безработица, домашнее насилие и непонимание со стороны семьи и общества, что и является основными причинами суицидов в Центральной Азии. Они немногим отличаются от обстоятельств, которые приводят к суицидам в остальном мире, но есть у самоубийц в нашем регионе и специфические проблемы. Причины, из-за которых женщины сжигают себя, – самые разные, и это явление исторически сложившееся психологическими факторами.

Ключевые слова: женщина, раскрепощение, социализация, права, суицид, самосожжение, равенство, справедливость, активность, жизнь.

Markaziy Osiyo ayollarining ijtimoiy madaniy vaziyati

Annotatsiya. O'tgan asrning 20 -yillarning oxiri - 30 -yillarning boshlarida O'rta Osiyoda ayollarni ijtimoiy va ma'naviy ozod qilish, ayollar qulligining ramzi bo`lgan burkani olib tashlash uchun harakat rivojlandi. 1927-1928 yillardagi harakatlar ayniqsa dahshatli va qonli edi.

Aynan shu davrda eng ko'p qurbonlar bo`lgan. Ushbu maqolada, jamiyatda sodir bo'ladigan va insoniyatning butun hayoti davomida sodir bo'lgan barcha jarayonlar va hodisalar, Sharqdagi ayollarning hayoti - qashshoqlik, ishsizlik, oiladagi zo'ravonlik va oila va jamiyat o`rtasidagi tushunmovchiliklar, Markaziy Osiyoda o'z joniga qasd qilish sabablari aks ettirilgan.

Ular dunyoning boshqa mamlakatlaridagi o'z joniga qasd qilishga olib keladigan sharoitlardan unchalik farq qilmaydi, lekin bizning mintaqamizda o'z joniga qasd qilishning ham o'ziga xos muammolari bor. Ayollarning o'zlarini yondirish sabablari juda boshqacha va bu hodisa tarixan psixologik omillar bilan shakllangan.

Kalit so'zlar: ayol, emansipatsiya, sotsializatsiya, huquqlar, o'z joniga qasd qilish, o'z-o'zini yoqish, tenglik, adolat, faoliyat, hayot.

Sociocultural implementation situation of the central asian women

Abstract In the late 20s and early 30s of the last century, a movement was started in Central Asia for the social and spiritual liberation of women, for the removal of the paranzha (the burqa, women’s cloth widespread in Muslim countries) as a symbol of female slavery. The two years 1927-1928 were particularly terrible and bloody. It’s because of this period that counts the greatest number of victims. In this article, the life of women in the East, which takes place in society and reflects all the processes and phenomena throughout the existence of humanity-poverty, unemployment, domestic violence and misunderstandings by family and society, which are the main causes of suicide in Central Asia. They are not much different from the circumstances that lead to suicides in the rest of the world, but suicides in our region also have specific cases. The reasons why women burn themselves are very different, and this phenomenon is historically formed by psychological factors.

Keywords: woman, emancipation, socialization, rights, suicide, self-burning (killing), equality, justice, activeness, life

Женщины Центральной Азии, которые с незапамятных времен подвергались унижениям, как в семье, так и на публике, женщины, которые верили в светлое будущее, сбрасывали паранджи, возлагали надежды на независимость - искали свою свободу. Невозможно понять современных женщин, не зная современной истории, в том числе политики колониального правительства, по раскрепощению узбекских женщин проводимой в 1920-30-х годах. Это был очень важный период в формировании общества. Тоталитарно-командная политика стремилось изменить исламскую религию, обычаи и, следовательно, общественную жизнь с помощью политики «Наступления». Для кого-то начало работы, активизация женщин были позитивным явлением, революционным изменением, кто-то с тревогой смотрел на это. Женщины изначально всегда были носительницами духовных и моральных качеств, хранительницами не только домашнего очага, но и многовековой мудрости и традиционных нравственных ценностей. Поэтому доверие и ответственный статус является далеко не случайным, а, напротив, обоснованным. Вместе с тем следует отметить, что в мусульманском обществе религия являлась, а в некоторых странах мусульманского мира поныне остается основой регулирования этих правоотношений. По исламу, женщина является источником нежности и милосердия, и создана в основном для рождения и воспитания детей, и мужчина должен охранять женщину в исполнении ей основной обязанности. Превосходство мужчины над женщиной объясняется тем, что мужчина имеет больше ответственности и больше обязанностей. Женщина в исламе - такая же независимая личность, как и мужчина, со всеми человеческими качествами и душевными стремлениями. Права женщины равны правам мужчины, но вовсе неодинаковы.

Одной из ярко выраженных проблем современности в республиках Центральной Азии часто является самосожжение женщин, и этот феномен часто происходит вновь и вновь. Девушки и женщины могли бы реализовать себя, но имелось много препятствующих этому факторов, и если их не учитывать, то представительницы женского пола могли бы находиться на границе различных социальных групп, систем и культур и испытывать влияние противоречащих друг другу норм, ценностей, то есть, исключаться из общества и семьи. Однако элементарная неграмотность, невежество, помноженное на соблюдение законов шариата (по мусульманскому обычаю, сколько бы детей ни послал аллах, всех нужно рожать), все это и становится причиной самосожжений, средством демонстрации личной проблемы на социальном уровне. Причины, из-за которых женщины совершают суицид – психологические, иногда сознательные, а порой и бессознательные (спонтанные), когда женщина доходит до такого состояния, что пытается покончить с собой. Это дает основание рассматривать самосожжение женщин, прежде всего как форму социального и личностного протеста, к которому приводит ограничение их прав во всех областях жизни. Смерть всегда составляла, несомненно, одну из самых сильно и глубоко волнующих человечество проблем. Человек так устроен, что он умирает: это неизбежность, но в этом заключается эволюционное совершенство человеческого рода. Отличия, которые существуют в праве, культуре, а также в личном отношении к смерти, не в силах отменить самого факта смерти.

Для всех древних цивилизаций не было религиозного страха либо ожидания посмертной кары за добровольное завершение жизни. Для того времени доминировало воззрение, что жизнь человека принадлежит обществу и вопрос о месте в обществе немощных лиц (престарелых, инвалидов, больных) был актуальным. И во многих социальных обществах убийство (либо принуждение к самоубийству) неспособных к

полноценной жизни либо допускалось, либо даже поощрялось. Например, в Индии женщина была лишена права читать священные тексты, считалась собственностью мужа, имуществом. На женщину смотрели как на низшее существо. Если ее оставляли в живых, то она жила в лишениях и унижении[1].

Самосожжение стало одним из тех деяний, которые с позиций религии, нравственности и права расценивались неоднозначно. Если женщина наглотается лекарств, или повесится у себя дома – значит, она выражает протест против своей семьи. Проблема также остаётся в доме. А самосожжение видят все. Это протест обществу, государству. К тому же, самосожжение – страшный, демонстративный способ самоубийства, действующий на чувства очевидцев, вызывающий социальную реакцию. В 1920-1930-х годах в советских республиках Центральной Азии проводилась кампания «Наступление на старый быт», в рамках которой, местные женщины должны были снять паранджу и начать учиться, работать. Для большинства мужчин в их глазах «политика снятия паранджи» была грехом, их настораживало, что таким образом женщины станут независимыми и свободными. В ответ члены семьи начали убивать женщин, которые бросали паранджи в огонь, а не справивших с этой сложной ситуацией женщины кидали и себя в огонь. Жизнь многих женщин была омрачена.

Особенно страшными и кровавыми были 1927-1928 годы. Много женщин приняло тогда мученическую смерть. Невозможно сказать, что это женское движение. Советское правительство, которое считало убийство женщин контрреволюционным актом и величайшим преступлением, передало исполнение этого закона в руки местной юстиции. А в местной системе правосудия было много людей, которые не хотели, чтобы женщины были равны, свободны.

По какой причине женщины совершали и совершают суицид? Почему это происходит именно путём самосожжения? Как можно это прекратить? Как помочь женщинам, чтобы такие случаи не происходили?

«Пламя» - таково было кодовое название самосожжения в те годы, которые сейчас стыдливо именуются «застойным периодом». Распространенные мнения о том, что права женщин ущемлены в самой религии, не выдерживают никакой критики. Да, возможно, имеются отдельные семьи, где женщины терпят унижения, их оскорбляют, не дают им возможности развиваться, получить образование. Специалисты знали, что скрывается за этими словами. Многие, достаточно компетентные и ответственные лица, склонны объяснять это явление сугубо местными, исторически сложившимися психологическими факторами. Ищите, мол, корни глубже, например, в зороастризме - древней религии, когда самосожжение было, чуть ли не обычаем. До сих пор к трагическим случаям относились очень легковесно, давали им поверхностную оценку. Когда разговор заходил о самосожжениях, вину сваливали на байско-феодальные отношения, бытующие на Востоке. В 1927 году женщины сбросили и сожгли паранджу, как символ несвободы и тотальной зависимости от мужчин, то есть большинство считали, что таким образом женщина станет свободной.



"Перед каждым человеком встал вопрос – как жить? Процесс снятия паранджи показал женщинам того времени, как жить. Это был толчок, через который они нашли свой путь". Оказалось, что эта трагедия не одной женщины, а в целом, проблемы женщин, «когда женщины находятся в невыгодном положении, поскольку у них меньше имущества, которое можно выставить в качестве залога, и им не хватает деловой уверенности»[2]. Что тяготит женщину, что вынуждает её покончить жизнь самоубийством. Самосожжение или умышленное самосожжение все чаще становится причиной смерти и инвалидности среди молодых мусульманских женщин на Ближнем Востоке и в Центральной Азии. «В 80-х годах прошлого века в Узбекистане снова участились случаи самосожжения женщин. Согласно данным прессы, 270 женщин в 1988 году, 250 – в 1989 году – превратились в живой костёр. Конечно, невозможно оправдать такое злополучное решение женщин, бунтующих против угнетения, тяжёлой жизни, несправедливости и унижений. Женщины пытались покончить жизнь самоубийством, когда поджигали себя, и что использование огня не имело символического значения, а было методом удобства. Полученные данные также предполагают, что религия и культура ислама не могут рассматриваться как факторы, способствующие самосожжению женщин. Домашнее насилие и суровый образ жизни в сельской местности (кишлаки) были главными мотивационными факторами самосожжения среди опрошенных женщин. «Женщины, страдают от бытового, физического насилия со стороны мужей, родственников. К примеру, часто встречаются случаи, когда золовки и другие члены семьи собираются и избивают невестку. Постоянные издевательства нарастают, как снежный ком, и однажды происходит «взрыв». Женщина может терпеть нужду, нищету. Но её психика не выдерживает унижений. Возвращать избитых женщин домой опасно, женщина пытается уйти из жизни, когда она чувствует себя униженной, ненужной.

Униженная женщина - это не мелкая проблема, решить которую проще простого, и можно оставить без внимания. У такой категории женщин, зачастую, нет базового образования, профессии, они сидят дома. Если горькие обиды, страдания затягивают женщину в свои силки, а мы остаемся равнодушными, то последствия могут быть необратимыми. Значит, нужно обучать их профессии, побуждать их заниматься чем-то полезным. Социальные и политические изменения, тяжёлый образ жизни женщин повлекли за собой такие трагические события. Во второй половине 1980-х годов такие деяния снова повторились. В 1987 году только в Узбекистане от самосожжения погибло 270 женщин. Интересно, что некоторые авторы указывают причиной подобных поступков «страдания узбекских женщин от гнёта шариата», тогда как, проблемы, мучившие женщин в уже секуляризированном узбекском обществе, были совершенно иными. Надо отметить, что подавляющее большинство «самосожженок» — женщины и девушки сугубо молодого возраста-до 28 лет, хотя есть среди них и пенсионерки, и юные школьницы. В период социально-экономических трансформаций общества заявить о возможном совершении акта самосожжения, порой прибегнуть к такому суицидальному акту как к одной из форм протеста против нарушения прав, несправедливого отношения становится явлением нередким. Более того, самосожжение приобретает и политическую окраску и что это просто какая-то неизученная психическая аномалия, род болезни, эпидемия которой, вспыхнув, может пройти.

В феврале 2018 года в Республике Узбекистан был подписан указ «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере поддержки женщин и укрепления института семьи». Однако Узбекистан остается одной из немногих стран мира, где в законодательстве не прописана защита от домашнего насилия[3].

Применительно к государствам среднеазиатского региона, в частности к Узбекистану, изучение образа жизни коренного населения вообще, и женщин в частности, в контексте современных процессов особенно актуально. Перемены в

обществе, которые были вызваны этими процессами и событиями, затронули все социальные слои населения, в том числе женщин. Однако вопрос о том, насколько далеко зашла модернизация и каково на самом деле положение женщин в среднеазиатском регионе в настоящее время, до сих пор остается открытым.

В Узбекистане 17 августа 2019 года был принят закон о защите женщин от притеснения и насилия. Исследования в этой области позволяют судить о влиянии экономического, политического, религиозного и других факторов не только на отдельно взятую группу (хотя сама по себе эта группа составляет половину всего населения), но и на состояние общества в целом. Жизнь женщин на Востоке отражает все процессы и явления, которые происходят в обществе. Всемирный день предотвращения самоубийств. Бедность, безработица, домашнее насилие и непонимание со стороны общества – основные причины суицидов в Центральной Азии. Они немногим отличаются от обстоятельств, которые приводят к суицидам в остальном мире, но есть у самоубийц в нашем регионе и специфические проблемы.

Положение современной женщины в обществе и семье стало предметом специальных исследований, проводимых как в рамках отдельных дисциплин, так и на стыке разных наук. Тем не менее, формально высокий правовой статус женщин не отражает их правовой статус на местах. Законные права женщин часто нарушаются. Существует грубое занижение информации о дискриминации и насилии в отношении женщин, особенно когда это происходит в семье. В Докладе о положении женщин в Узбекистане (1999 год) отмечается, что женщины первыми теряют работу, особенно многодетные. Принудительные ранние браки и отказ разрешить женщинам работать вне дома также нарушают права женщин. Семьи предпочитают замять бытовое и сексуальное насилие в отношении женщин и детей. Это затрудняет преследование властей и подчеркивает ту роль, которую культура и отсутствие правовой грамотности играют в продолжающемся нарушении прав женщин и детей в Узбекистане. Кроме того, немногие женщины имеют четкое представление о своих законных правах. Именно поэтому многие женщины из самых бедных и бесправных слоев узбекского общества становятся пассивными или, в крайних случаях, прибегают к самоубийству путем самосожжения, что до сих пор не получило должного решения. По данным проведенного опроса по данным Центра социологических исследований “Иджтимойй Фикр” (или Общественное мнение), только 26,4% женщин заявили, что хорошо разбираются в местных законах; 60,1% сказали, что "что-то знают" о местных законах; и 13,5% ответили, что ничего не знают. Что касается их общих знаний о законах Узбекистана, то только 18,5 процента женщин заявили, что они знают их достаточно хорошо, а 61,7 процента сообщили, что они что-то знают об этих законах [4].

В нынешних условиях большинство женщин вынуждено проявлять активность для того, чтобы экономически поддержать семью. Государство осуществляет ряд программ социальной помощи, включая пособия, выплачиваемые многодетным и малообеспеченным семьям; социальное страхование, выплачиваемое трудящимся, испытывающим трудности или выходящим на пенсию; и социальное пособие, выплачиваемое пожилым людям и инвалидам. Число лиц, получающих ту или иную форму социального обеспечения, остается неизменным и составляет около 12 процентов населения [5]. Для социальной стабильности и национальной безопасности любой страны в условиях глобализации очень важно обеспечить благоприятную демографическую ситуацию, в рамках которой сбалансированы интересы семьи, общества и государства. Демографическая безопасность является важнейшей составляющей социальной безопасности. Само это понятие, которое отражает степень защищенности государства от демографических угроз, то есть явлений и тенденций, способных негативно повлиять на социальную стабильность и устойчивость развития, появилось относительно недавно. Сегодня женщины Узбекистана, как и в других обществах, сталкиваются с такими проблемами, как традиции и современность,

профессия и семья, независимая жизнь и социальные требования. Несмотря на законы, женщины в Центральной Азии по-прежнему страдают от насилия и дискриминации. С одной стороны, заметно проявляется тенденция к усилению процесса демократизации, который распространяется не только на общественно-политические институты, но и на сферу личных, внутрисемейных отношений. С другой стороны, наблюдается обратный процесс - тяготение и обращение к «традиционным», «национальным» ценностям. Эти тенденции нередко приводят к возникновению противоречий между отдельными группами (в частности половозрастными) как в целом в обществе, так и внутри различных социальных институтов, в том числе в семье.

«В то же время пишет Генеральный секретарь ШОС Владимир Норов - в ряде стран и регионов мира по-прежнему отмечается дисбаланс в уровне развития женщин. Из 800 млн. людей в мире, живущих в бедности, более половины составляют женщины. В мире по-прежнему существуют разные формы дискриминации женщин, все это свидетельствует о том, что для осуществления гендерного равноправия необходимы еще огромные совместные усилия. В целом на глобальном и региональном уровнях сделано немало для улучшения положения женщин, но требуется сделать еще больше и создать условия для развития женщин и девочек в соответствии с новыми реалиями текущего времени – века глобализации, взаимосвязанности и информационных технологий»[.5]. Равное и полноценное участие женщин в общественно-политической жизни необходимо для эффективного функционирования демократического общества[6].«...Полное и подлинное равенство между мужчинами и женщинами является существенно важным элементом справедливого и демократического общества» (Московский документ ОБСЕ 1991 г.).

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подписал постановление, предусматривающее разработку законов, направленных на обеспечение гендерного равенства и защиту женщин от насилия. Домашний труд не может быть основанием для прямой или косвенной дискриминации по признаку пола, он осуществляется в равной степени женщинами и мужчинами", - говорится в постановлении. Оно устанавливает равенство обоих полов во всех сферах жизни: от приема на работу до домашнего хозяйства, а также дает определение дискриминации по признаку пола. Теперь при принятии на государственную службу в республике обеспечивается равный доступ женщин и мужчин согласно квалификации и профессиональной подготовке, также проект закона предусматривает меры, направленные на предупреждение притеснений и насилия, а также ответственность за совершение таких поступков.

Литература

1. Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» 17 августа 2019 года
2. Указ Президента Республики Узбекистана «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере поддержки женщин и укрепления института семьи», от 2 февраля 2018 за № УП-5325.
3. Иванов Ю.М., Иванова Н.М. Жизнь по интуиции. М., 1994. Кн. 1. С. 43.
4. Bureau of Gender and Development and the State Department of Statistics. 1999. Women of Uzbekistan: Statistical Collection. Tashkent.
5. Understanding Socio-Cultural Factors Affecting Demographic Behaviour and Implications for Formulation and Execution of Population Policies and Programs, International Seminar, Tashkent, October 1999.
6. Munavvarov, Zahid I. 1994, Uzbekistan. Central Asia and the Caucasus after the Soviet Union: Domestic and International Dynamics, edited by Mohiaddin Mesbahi. Gainesville: University Press of Florida.

UDK 94 (575.1):9(43)

SAVDO-INVESTITSION JABHADA O'ZBEKISTON-GERMANIYA HAMKORLIGI

S.Ya.Umarov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi va Germaniya o'rtasidagi savdo-sarmoyaviy sohadagi hamkorligi shartnomaviy asoslarining yaratilishi, hamkorlikning tarixi, O'zbekistonga Germaniya kiritgan investitsiya va kreditlar, savdo-sarmoyaviy sohada erishilgan natijalar va sohadagi mavjud bo'lgan muammolar tahli qilingan.

Kalit so'zlar: idoralararo komissiya, imtiyozli kredit, import, eksport, tovar aylanishi, qimmatli qog'ozlar, bank tizimi.

Узбекско-германское сотрудничество в торгово-инвестиционной сфере

Аннотация. В статье анализируется формирование основ сотрудничества между Республикой Узбекистан и Германией в области торговли и инвестиций, история сотрудничества, динамика привлеченных инвестиций и кредитов Германии Узбекистану, а также результаты инвестиционного сотрудничества и существующие проблемы в данной сфере.

Ключевые слова: межведомственная комиссия, льготный кредит, импорт, экспорт, товарооборот, ценные бумаги, банковская система.

Uzbekistan-Germany cooperation in trade-investment area

Abstract. The article analyzes the history of cooperation between the Republic of Uzbekistan and Germany in the field of trade and investment, the history of cooperation, the investment and loans of Germany in Uzbekistan, the results of trade and investment, and the existing problems in the field.

Keywords: Interdepartmental Commission, concessional loan, import, export, trade turnover, securities, banking system.

Savdo-sarmoyaviy sohadagi samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik O'zbekiston–Germaniya munosabatlarining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ta'kidlash joizki, GFR ulkan savdo-iqtisodiy resurslar, keng investision salohiyat va ilg'or texnologik ishlanmalarga ega davlat hisoblanadi. O'z navbatida, O'zbekistonning boy tabiiy resurslari, yuqori darajadagi inson kapitali, uning tarmoqlangan infratuzilmasi, qulay investitsiya muhiti Germaniya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytiri imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyodagi eng qulay geosiyosiy joylashuviga ko'ra, balki mintaqadagi boshqa qo'shnilardan o'zining ijtimoiy-siyosiy va makroiqtisodiy barqarorligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, germaniyalik hamkorlar O'zbekistonning iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan modernizasiyalash va diversifikasiyalashga yo'naltirilgan puxta o'ylangan siyosiy intilishini yuqori baholaydi.

Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik mustahkam huquqiy asosga ega. Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalarda davlatlar o'rtasida ikki tomonlama soliqdan qochish, kapital kiritishga ko'maklashish va o'zaro himoya qilish hamda savdo-iqtisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolangan.

Savdo-iqtisodiy sohada hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtirish va tezroq amalga oshirish maqsadida 1993 yil 20 avgustda idoralararo komissiya [1] tuzildi. Mazkur komissiya va guruh muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazib, investitsiyalarni kafolatlash va sug'urtalash, loyihalarni moliyalash, xususiylashtirishga ko'maklashish, qimmatli qog'ozlar bozorini vujudga keltirish kabi muhim masalalarni hal qilib keldi.

1993 yilgi muzokaralar natijasida yakuniy Bayonnoma ham imzolangan bo'lib, unga ko'ra Germaniya tomonidan moliyaviy va texnik sohada yordam ko'rsatish belgilab olindi. Xususan, 15 mln. nemis markasi miqdorida moliyaviy hamkorlik qilish, 1,5 mln. nemis markasi doirasida tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlik qilish, qishloq xo'jaligi sohasida 5 mln. nemis markasi miqdoridagi dasturni amalga oshirish va GFR iqtisodiy hamkorlik federal vazirligi, Germaniya kredit rivojlanish vazirligi va KFW banki ishtirokida 8 mln. nemis markasi hajmidagi sut mahsuloti ishlab chiqarishga yo'naltirilgan dasturni amalga oshirish kelishib olindi [2]. Bu maslahatlashuvlar samarasi ularoq 1993 yilda Germaniya tomonidan O'zbekistonga 110,5 mln. nemis markasidagi kredit va subsidiya berildi [3].

1995 yil iyulda navbatdagi hukumatlararo maslahatlashuv bo'lib, unda 1995-1996 yillarda moliyaviy va texnik sheriklik masalalari ko'rib chiqildi. Uchrashuvda shuningdek, investitsiya, imtiyozli kreditlar va grantlar masalasi ham muhokama qilindi [4]. O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatida kelgusidagi tashqi qarzni oldini olish maqsadida bu amaliyotdan samarali foydalandi. 1995 yil 12 oktyabrda Germaniya va O'zbekiston hukumatlari o'rtasida imzolangan moliyaviy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvga ko'ra Germaniyaning KFW banki Toshkent 2 aeroporti terminalini ta'mirlash uchun 54,3 mln. AQSh dollari miqdorida moliyaviy yordam berishni ma'lum qildi [5]. Natijada 48 mln. AQSh dollari miqdorida kredit va 13 mln. AQSh dollarilik investitsiya kiritildi. 48 mln. AQSh dollarilik kreditning 35 mln. AQSh dollari aeroport terminalini ta'mirlash uchun, 13 mln. AQSh dollari esa uchish yo'li va perronni ta'mirlash uchun ajratildi [6]. Natijada ta'mirga muhtoj bo'lgan aeroport hududi ta'mirlanib, zamon talabiga moslashtirildi. Bu esa O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan keyingi aloqalarining rivojiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Germaniya Federativ Respublikasi bilan savdo va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2001 yil 24 apreldagi qarori [7] hamda 2004 yil 22 martdagi "O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar bilan hamkorligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [8] XXI asr boshida ham mamlakatlar orasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining davom etishini ta'minlab berdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida 2004 yil 28 yanvarda "O'zbekiston Respublikasi hukumati va Germaniya Federativ Respublikasi hukumati o'rtasida moliyaviy hamkorlik to'g'risida kelishuv" imzolandi [9]. Bu kelishuv O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida keng qo'llanilgan xorijiy grant, qaytarib olinmaydigan yoki imtiyozli kreditlarni jalb etish tamoyillari asosida imzolandi. Kelishuvga ko'ra Germaniya hukumati O'zbekistonga 19 million yevro ssuda va bir million yevro qaytarib olinmaydigan moliyaviy yordam ko'rsatilishi kelishib olindi. 19 million yevroning 9 million yevrosi Toshkent-Angren temir yo'lini elektrlashtirishga (keyinchalik ushbu loyihani amalga oshirilishi yuzasidan O'zbekiston REspublikasi Prezidentining "GErmaniya taraqqiyot banki hamda Quvayt Arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Toshkent (To'qimachi) – Angren" temir yo'l uchastkasini elektrlashtirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2007 yil 19 fevralda chiqdi [10].), 6 million yevro kichik va o'rta ishlab chiqarishni rivojlantirishga, 4 million yevro Toshkent aeroportiga hamda 1 million yevro "Ilmiy tadqiqot va mutaxassislar fondini yaratish" uchun ajratildi [9]. Moliyaviy hamkorlik mazmunidagi kelishuv 2005 yil 18 yanvarda ham imzolandi. Unga ko'ra 2,5 million yevro tuberkulezga qarshi kurash dasturini amalga oshirish uchun ajratildi [11]. mazkur davrga kelib, 2005 yilda "Andijon voqyealari"ning sodir bo'lishi, uni YeI tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi natijasida Germaniya tomonidan loyihani amalga oshirish kechikdi.

Davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy yo'nalishdagi hamkorlikda asosiy o'rinlardan birini investision soha egallaydi. Ta'kidlash kerakki, Germaniya O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan sarmoyalar hajmi bo'yicha Yevropada yetakchilik qilgan. Qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda 2014 yilga kelganda Germaniya banklari, davlat muassasalari va biznes

vakillari ishtirokida umumiy qiymati 1 mlrd. yevrodan ortiq 100 dan ziyod investitsion loyiha amalga oshirilgan [12].

Mustaqillikning ilk davridanoq Germaniya Federativ Respublikasi hukumati va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida moliyaviy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvga ko'ra Germaniya hukumati O'zbekiston Respublikasiga qo'yidagi sarmoyaviy yordamni ko'rsatishni o'z zimmasiga oldi: 35 mln. nemis markasida subsidiya kiritish, Toshkent aeroporti terminalini ta'mirlash uchun 22 mln. nemis markasida kredit berish, 3 mln. nemis marka miqdorida transport logistika markazi loyihasi uchun kredit berish, kichik biznes va o'rta ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun 10 mln. nemis markasi ajratish, 2,3 mln. nemis markani tashkil qiladigan mutaxassislar va tadqiqotchilar Fondini tuzish kelishib olindi [13]. Bu esa jahon iqtisodiy munosabatlar tizimiga endigina kirib kelgan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida o'z samarasini berdi.

1994 yil may va iyun oylarida imzolangan hukumatlararo moliyaviy hamkorlik to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqqan holda GFR Federal hukumati O'zbekistonga yillik 0,75-2% gacha, o'n yillik imtiyozli davr bilan 30-40 yilga mo'ljallangan 66 mln. nemis markasi miqdorida imtiyozli kredit berdi. Bu kreditning 25 mln. nemis markasi respublika telekommunikasiya tizimini rivojlantirishga, 20 mln. markasi Toshkent aeroporti rekonstruksiyasiga, 11 mln. nemis markasi sut ishlab chiqarishni rivojlantirishga, 4,5 mln. nemis markasi go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishga, 5,5 mln. nemis markasi qishloq xo'jaligi uchun zarur texnikalarni sotib olishga sarflandi [14].

1996 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi elchixonasi va Germaniyaning Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish federal vazirligi o'rtasidagi iqtisodiy va texnik hamkorlik bo'yicha muzokaralar natijasida yakuniy Bayonnoma imzolandi. Unga ko'ra O'zbekistonga 32 mln. nemis markasidagi imtiyozli kredit ajratildi [15].

O'zbekistonda investitsiya sohasida oqilona siyosat olib borilganligi hamda ularni to'g'ri yo'naltirilganligi natijasida 1997 yilda O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi. YaIM ishlab chiqarish hajmi o'z dinamikasi bo'yicha aholi sonining o'sishidan ilgarilab ketdi: yalpi ichki mahsulot 5,2 % o'sgani holda, uning hajmi aholi jon boshiga hisoblaganda 3,2 % ga ko'paydi [16].

2002 yilda O'zbekiston Respublikasiga horijiy davlatlardan 294,9 mlrd. so'm investitsiya kiritildi. Kiritilgan sarmoyaning 20,14% (60 mlrd. so'm – muallif hisobi) Germaniya ulushiga to'g'ri keldi [17]. 2004 yilda 80867,1 mln. so'm, 2005 yilda 67211,5 mln. so'm, 2006 yilda 22617,0 mln. so'm, 2007 yilda 87883,5 mln. so'm sarmoya O'zbekistonga kiritilganligi aniqlandi [18]. Bu davr mobaynida 2005-2006 yillarda investitsiya summasi miqdori kamaygan. Bunga esa 2005 yil "Andijon voqealari"ni noto'g'ri talqin qilgan Yevropa Ittifoqining O'zbekistonga nisbatan e'lon qilgan sanksiyasi sabab bo'ldi [19]. Yevropa Ittifoqining Asosiy ishlar va tashqi aloqalar bo'yicha kengashining 2007 yil 14 mayda bo'lib o'tgan 2800-sessiyasi O'zbekiston Respublikasiga nisbatan ba'zi cheklovchi choralarni olti oy va bir yil muddatga o'z kuchida qoldirdi [20]. 2007 yil 13 noyabrdagi bo'lgan yig'ilishda Yevropa Ittifoqining tranzit bo'yicha cheklovlari [21] 2008 yil 13 mayga qadar saqlab qolinishi belgilandi. 2008 yilda jahonda sodir bo'lgan jahon moliyaviy inqirozi Yevropa Ittifoqining savdo-iqtisodiy sohadagi cheklovlarini to'xtatilishiga sabab bo'ldi. Shundan keyingi o'tgan yillar davomida Germaniya o'zining sarmoyasini O'zbekiston iqtisodiga kiritib keldi. 2017 yilda 22203,8 mln. so'm kiritilgan bo'lsa, 2019 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 4 mln. yevro miqdorida investitsiya kiritish kelishib olindi [22].

O'zbekiston Republikasi o'zining taraqqiyoti bosqichlari davrida chet el bilan jadal iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirib, yildan-yilga chet davlatlar bilan tovar aylanishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Germaniya bilan hamkorlik aloqalarining dastlabki yili hisoblangan 1992 yilda 94,022 ming AQSh dollarlik eksport va 21,630 ming AQSh dollarlik

import amalga oshirildi [23]. 1992 yilda O'zbekistondagi 10 dan ziyod korxonalar paxta tolasi, tekstil va trikotaj mahsuloti, shakar, asal va asal mahsulotlarini Germaniyaga eksport qilgan. Bu O'zbekistonning Germaniya Federativ Respublikasiga qilgan dastlabki eksport mahsulotlari edi. Keyingi yillarda eksport va import mahsulotlari turi kengayib, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1994 yildagi tovar aylanmasida Germaniya ulushi 10 % ni tashkil etdi. Solishtiradigan bo'lsak bu ko'rsatgich 1992 yilda 6,4 %, 1993 yilda 4,5 % ni tashkil etgan [24]. Bu esa savdo-iqtisodiy aloqalarning o'sib borganligini ko'rsatardi. O'zbekistondan Germaniyaga import hajmi 1994 yilda 164, 34 mln. AQSh dollarini, Germaniyadan eksport esa 32,38 mln. AQSh dollarini tashkil qildi [25]. 1994 yilda O'zbekiston savdo-iqtisodiy hamkorlik o'rnatgan G'arb mamlakatlari ichida Germaniya tovar aylanmasi hisobida uchinchi o'rinni egalladi. 1995 yilning oxiriga kelganda esa Germaniyadan O'zbekistonga amalga oshirilgan import 364, 95 mln. AQSh dollarini, O'zbekistondan germaniyaga amalga oshirilgan eksport esa 35,84 mln. AQSh dollarini tashkil qildi [26].

1996 yilda O'zbekistonning chet el bilan tovar aylanishi 674,300 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan [27]. Germaniya bilan ham bu davrda savdo aloqalari samarali amalga oshirildi. 1996 yilda Germaniyaga 94,260 mln. AQSh dollarlik mahsulot eksport qilingan bo'lsa, O'zbekistonga undan 578,381 mln. AQSh dollarlik tovar import qilindi. Bu davrda Buyuk Britaniya bilan 367,750 mln. AQSh dollarlik eksport, 105,912 mln. AQSh dollarlik import amalga oshirilgan [28]. Bu jihatdan Germaniya O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida import sohasida birinchi o'rinni, eksport sohasida beshinchi o'rinni egalladi.

Keyingi yillarda ham ikki davlat o'tasidagi aloqalar o'zaro tenglik va manfaatdorlik asosida jadallik bilan rivojlanib, 1997 yilga kelib Germaniyaga O'zbekiston eksporti 50,155 mln. AQSh dollarni, O'zbekistonga import 441,739 mln. AQSh dollarni tashkil qildi [29]. 1998 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida Germaniyaning ulushi qo'yidagicha bo'ldi: importda 11,5%, eksportda 1,5% miqdorida bo'ldi [30].

1998-2000 yillarda Germaniyadan eksport hajmining miqdoriy kamayishi kuzatiladi. Bu davlatlar o'rtasida munosabatlarning sekinlashganligi bilan emas balkim, 1998-1999 yillarda dunyo bozorida mahsulotlar tan narhining tushushi bilan bog'liq edi. 2000 yilda import hajmining kamayishi esa O'zbekiston Respublikasi hukumatining chet el valyutasiga nisbatan ehtiyotkorona olib borgan siyosati natijasi edi. Bu davrda asosiy e'tibor MDH davlatlariga qaratildi. Lekin, shunday bo'lsada O'zbekistonning YeI tarkibidagi yetakchi hamkorlari safida Germaniya 2000 yilda ham saqlanib qolgan [31].

2001 yilda O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardan asosiy hamkor mamlakatlari Janubiy Koreya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya bo'lib, Germaniyaning ulushi eksportda 38,7 mln. AQSh dollari, importda 244,7 mln. AQSh dollarni tashkil qildi [32].

2008 yilda kelib chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida bevosita moliya tizimining izdan chiqishi, ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi, korxonalarning yopilishi, ishsizlar sonining ko'payishi, mamlakatlar xarid qobiliyatining pasayishi kabi salbiy oqibatlarga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning Germaniyaga eksporti hajmini qisqartirib yubordi. 2007 yilgi 41 292 ming AQSh dollaridan 2008 yilda 31 028 ming AQSh dollariga tushdi [33]. Buning asosiy sababi Germaniya iste'molchilarining sotib olish qobiliyatlari pasayganligi, iqtisodiy faoliyatning susayganligida edi. Germaniyadan import hajmi esa oldingi yillardagi tendensiyaga mos ravishda o'sib, 2007 yildagi 273 090 ming AQSh dollaridan 2008 yilda 413 834 ming AQSh dollariga yetdi [33]. Germaniya inqiroz sababli asosiy investitsiyalarini rivojlanayotgan davlatlar qatorida O'zbekistonga ham keng ko'lamda kiritdi. Import tarkibida respublikamizdagi korxonalarni qayta jihozlashga mo'ljallangan investision tovarlar va uskunalar asosiy o'rinni egalladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2016 yili 528 mln. AQSh dollardan oshgan [33]. Ikki tomonlama moliyaviy va texnikaviy hamkorlikning umumiy hajmi qariyb 330 million yevroni tashkil qildi [34]. 2017 yilda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi 32,5 foizga o'sib, 600 mln dollarga yetdi [35]. 2018 yilga kelganda esa 772 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu davlatlar o'rtasida tovar ayirboshlash aloqalarini manfaatli tarzda olib borilganligini isboti bo'ldi. 2019 yilda O'zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyevning Germaniyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifida bu ko'rsatgichni 1 mlrd. AQSh dollariga yetkazish [36] istiqbollari muhokama qilinishi ikki mamlakatning ham o'zaro tovar aylanishidan manfaatdor ekanligidan dalolat berdi.

2019 yilga kelganda O'zbekistondan Germaniyaga meva-sabzavot mahsulotlari, paxta tolasi va matolar, noorganik kimyo mahsulotlari, mis buyumlar eksport qilinib, transport va sayyohlik xizmatlari ko'rsatildi.

Horijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar va investitsiyalarni O'zbekistonga kiritishda bir qancha muammolar mavjud edi. Bu hol germaniya bilan hamkorlik aloqalarida ham ko'zatildi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalardagi muammolarni ikki qismga bo'lish mumkin. 1. Investisiya kiritayotgan tomon bilan bog'liq muammolar. 2. Investision jarayonlarni boshqarish mexanizmini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kuyidagi muammolarni aytish o'rinli hisoblanadi. Dastlabki og'riqli muammolardan biri investitsiya kirituvchi ishlab chiqaruvchilar uchun konvertasiya muammosi mavjud edi. Konvertasiya borasidagi O'zbekiston olib borgan siyosat nemis investorlarining noroziligiga sabab bo'lgan. Konvertasiya borasida oldindan e'lon qilinmagan holda davlat tomonidan aktivlarning o'zgartirilishi kompaniyalarning o'z faoliyatini istiqbollarini belgilab olish imkonini bermas edi. Yana bir muammolardan biri chet el investorlariga yetarli bo'lmagan bank tizimi – joriy operasiyalarni amalga oshirishda cheklovlar borligi edi. Investorlar mavjud muammoni naqd va naqd bo'lmagan bank amallarini amalga oshirish tizimini yaratish va yuqori sifatli bank xizmatini yaratish orqali xal etish mumkinligi haqida fikr bildirgan. Bu muammo O'zbekistonda keyingi o'n yillikda o'z yechimini topgan.

Aloqalar tarixida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muammolar ham bor edi. Emissiya qilgan kompaniyalarning yetarli axborot manbaiga ega emasligi, fond birjasida reklama yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, sanoat sohasidagi moliyaviy hisobot tizimi xalqaro standartlarga javob bermasligi, fond birjasida qimmatli qog'ozlarni sotib olishda naqd va pul ko'chirish bilan sotib olishdagi narhlarning farqlanishi kabi muammolar qimmatli qog'ozlar operasiyasi bilan bog'liq muammolar edi.

Germaniya investisyasi bilan birga chet elning boshqa davlatlari tomonidan kiritilgan investitsiyani sug'urtalash muammosi ham bor edi. Sug'urta tizimida islohotlar amalga oshirilgan bo'lsada, 1997 yilga kelganda ham kiritilgan investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlab beruvchi tizim shakllanmagan edi. shu boisdan investitsiyaning qaytarib berilmasligi ko'p miqdorda saqlanib qolgan edi.

Respublikadagi chet el investitsiyalari to'g'risidagi statistika tizimi ham effiktiv emas edi. Shu boisdan to'g'ri va tezkor ma'lumotlar olib bo'lmas edi.

2016 yil sentyabrda O'zbekistonda davlatni boshqarishga kirishgan Sh.Mirziyoyev tomonidan yuqoridagi o'z yechimini kutib kelayotgan dolzarb muammolardan biri, konvertasiya muammosi ijobiy hal qilindi. Mamlakatda erkin konvertasiya joriy qilindi. Bank tizimidagi muammolar ham bartaraf etildi. Naqd va naqd bo'lmagan qimmatli qozog' bilan bog'liq bo'lgan narhlardagi farqlar ham bartaraf etildi. Buning uchun bank tizimida bonkomatlar joriy etilishi yaxshi samara berdi. Investisiyalarning mustahkam kafolati ham shakllantirildi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot jarayonida o'rganib chiqilgan hujjatlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki:

Birinchidan, davlat rivojlanishining bosh tamoyillaridan biri sifatida iqtisodni rivojlantirish, o'zaro teng va manfaatli iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga e'tibor qaratildi;

Ikkinchidan, tashqi iqtisodiy siyosatning huquqiy asoslari yaratildi. Germaniya bilan bu sohadagi o'zaro manfaatli aloqalarni belgilab bergan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Buning natijasida O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari ulkan ekanligi jahon hamjamiyatiga ko'rsatib berildi;

Uchinchidan, iqtisodiy, texnik va yangi texnologik imkoniyatlarga ega bo'lgan Germaniya Federativ Respublikasi bilan hamkorlik qilish O'zbekiston uchun mustaqillikdan keyin keng imkoniyatlar berib, O'zbekistonni barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashdi;

To'rtinchidan, Germaniya O'zbekiston mustaqilligini Yevropa mamlakatlari ichida nafaqat birinchilardan bo'lib tan oldi, balkim amaliy jihatdan ham sarmoyaviy yordamni amalga oshirdi. Germaniya tomonidan yillar davomida subsidiya, ssuda, kredit va investitsiyalarning kiritilishi mamlakat iqtisodini rivojlanishiga hissa qo'shdi;

Beshinchidan, O'zbekistonda yaratilgan huquqiy asos va qulay sharoitlar nemis hamkorlarni yildan-yilga ko'proq jalb qildi. 1992-2018 yillar davomida nemis kapitali ishtirokida tuzilgan korxonalar soni 130 dan ortib, ularning 40 dan ziyodi to'laligicha Germaniya kapitali asosida bunyod etildi;

Oltinchidan, iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalari dinamikasi bir xil bo'lmadi. Iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga sohada mavjud bo'lgan muammolar bilan birga 2005 yildagi "Andijon voqyealari" munosabatlarning bir oz vaqtda pasayishiga, 2008 yilda jahon moliyaviy inqirozi tufayli esa O'zbekistonning Germaniyaga eksporti hajmi qisqardi. Buning asosiy sababi Germaniya iste'molchilarining sotib olish qobiliyatlari pasayganligi, iqtisodiy faoliyatning susayganligida bo'ldi. Germaniyadan import hajmi esa oldingi yillardagi tendensiyaga mos ravishda o'sdi. Inqiroz sababli Germaniya investitsiyalarini rivojlanayotgan davlatlar qatorida O'zbekistonga ham keng ko'lamda kiritdi;

Yettinchidan, O'zbekiston-Germaniya munosabatlari tomonlar uchun manfaatli kechib, kelgusi istiqbolda bu holatni saqlab qolish har ikki davlat uchun manfaatli bo'lishi muqarrar.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Германия Федератив Республикаси билан ҳамкорлик қилиш масалалари бўйича идороларарo комиссия тузиш тўғрисидаги қарори // 1993 йил 20 август, 424-сон // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
2. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 441-йиғма жилд, 192-193-варақ.
3. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1761-йиғма жилд, 113-варақ.
4. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1279-йиғма жилд, 13-варақ.
5. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1761-йиғма жилд, 96-варақ.
6. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1761-йиғма жилд, 104-варақ.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Германия Федератив Республикаси билан савдо ва иқтисодий ҳамкорликни чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори // 2001 йил 24 апрель, 181-сон // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
8. Ўзбекистон Республикасининг Европа Иттифоқи ва унга аъзо давлатлар билан ҳамкорлигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори // 2004 йил 22 март, 134-сон // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
9. Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ва Германия Федератив Республикаси ҳукумати ўртасида молиявий ҳамкорлик тўғрисида келишув // Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномалари тўплами. – Тошкент, 2004. – №1. – Б. 42-46.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Германия тараққиёт банки ҳамда Қувайт Араб иқтисодий тараққиёт жамғармаси иштирокида «Тошкент (Тўқимачи)-Ангрен» темир йўл участкасини электрлаштириш» лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2007. №7-8-сон, 60-модда; 2008 й., 14-15-сон, 98-мод.
11. Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ва Германия Федератив Республикаси ҳукумати ўртасида молиявий ҳамкорлик тўғрисида келишув // Ўзбекистон Республикаси Халқаро шартномалари тўплами. – Тошкент, 2005. – № 1.
12. Ўзбекистон–Германия: Ишончли шериклик ва истиқболли ҳамкорлик муносабатлари // http://old.mv-vatanparvar.uz/this/143 (21.01.2019).
13. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 2711-йиғма жилд, 112-113-варақ.
14. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1279-йиғма жилд, 18-19-варақ.
15. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1761-йиғма жилд, 111-варақ.
16. Юлдашев Ш. Ўзбекистонда инвестиция жалб этишнинг айрим жиҳатлари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 1999. – № 12.
17. ЎзР МДА М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 156-варақ.
18. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг жорий архиви (ЎзР ДСҚ ЖА). 1998 – 2017 йиллар давомида Ўзбекистонга киритилган инвестиция ва кредитлар ва унда Германия улуши ҳақида маълумот. 1 – варақ.
19. Council Regulation (EC) No 1859/2005 (OJ L 299, 16.11.2005, p. 23) of 14 November 2005 imposing certain restrictive measures in respect of Uzbekistan. Матн учун қаранг: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32005R1859&from=EN (12.07.2019).
20. Council common position 2007/338/CFSP (OJ L 128, 16.5.2007, p.50-52) of 14 May 2007 renewing certain restrictive measures against Uzbekistan. Матн учун қаранг: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32007E0338&from=EN (12.07.2019).
21. Council common position 2007/734/CFSP (OJ L 295, 14.11.2007, p.34) of 13 November 2007 concerning restrictive measures against Uzbekistan. Матн учун қаранг: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32007E0734&from=EN (12.07.2019).
22. Узбекистан и Германия заключили инвестсоглашения на 4 млрд евро // http://allpravda.info/uzbekistan-igermaniya-zaklyuchili-investsoglasheniya-na4mlrdevro-76438.html (22.07.2019).
23. ЎзР МДА М-62-фонд, 1-рўйхат, 72-йиғма жилд, 8-варақ.
24. ЎзР МДА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1279-йиғма жилд, 12-варақ.
25. ЎзР МДА М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 149-варақ.
26. ЎзР МДА М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 149-варақ.
27. ЎзР МДА М-115-фонд, 1-рўйхат, 8-йиғма жилд, 49-варақ.
28. ЎзР МДА М-115-фонд, 1-рўйхат, 8-йиғма жилд, 52-варақ.
29. ЎзР МДА М-115-фонд, 1-рўйхат, 8-йиғма жилд, 52-варақ.
30. ЎзР МДА М-110-фонд, 1-рўйхат, 2986-йиғма жилд, 13-варақ.
31. ЎзР МДА М- 20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 174-варақ.
32. ЎзР МДА М-110-фонд, 1-рўйхат, 5632-йиғма жилд, 11-варақ.
33. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси материаллари.
34. Ўзбекистон-Германия бизнес форуми // http://uza.uz/oz/business/zbekiston-germaniya-biznes-forumi-31-05-2017?sphrase_id=3028252. (8.12.2017).
35. O‘zbekistonda nemis iqtisodiy zonasi // https://nihol.org/2018/05/16/ozbekistonda-nemis-iqtisodiy-zonasi-2/ (4.12.2018).
36. Халқ сўзи. – 2019 йил 23 январь.

UDK:338.43(575.151)

MUSTAQILLIK YILLARIDA TERMIZ SHAHRI SANOATI

Sh.T.Saidaxmatov
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida ham kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilib, ularda sanoat mahsulotlari, xalq ehtiyoji mollari, aholiga turli xil xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Mulkchilik yangi shakllarining vujudga kelishi, kishilarda haqiqiy mulkdorlik tuyg‘usining qaror topishi, ishlab chiqarish jarayonining tamomila yangi tartibda tashkil etilishi viloyat sanoatida ham ulkan o‘zgarishlar yasalishiga olib keldi.

Kalit so`zlar: biznes korxonalar, sanoat mahsulotlari, xalq ehtiyoji mollari, mulkchilik shakllari.

Промышленность города Термеза в годы независимости

Аннотация: За годы независимости в южных регионах Узбекистана были созданы предприятия малого и среднего бизнеса, где предоставлялись промышленные товары, товары народного потребления и различные услуги. Появление новых форм собственности, формирование у людей реального чувства собственности, организация производственного процесса в совершенно новом порядке привели к большим изменениям в промышленности региона.

Ключевие слова: коммерческие предприятия, промышленная продукция, товары народного потребления, формы собственности.

Industry of termiz city in the independence years

Abstract. During the years of independence, small and medium-sized businesses have been established in the southern regions of Uzbekistan, where industrial products, consumer goods and various services have been provided. The emergence of new forms of ownership, the establishment of a real sense of ownership in people, the organization of the production process in a completely new order has led to great changes in the industry of the region.

Keywords: business enterprises, industrial products, consumer goods, forms of ownership.

Milliy istiqlolning qo‘lga kiritilishi bilan butun mamlakatda bo‘lganidek, Surxon vohasida ham har tomonlama rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi.Mustabid sovet tuzumi davrida viloyat sanoati o‘ta biqiq tarzda ma’lum bir yo‘nalishlar asosida rivojlangan bo‘lib, asosan yarim tayyor mahsulotlar, ya’ni xom ashyoga birinchi ishlov berishga ixtisoslashgan edi. Sanoat korxonalarining kam miqdorda bunyod etilishi oqibatida viloyat asosan agrar ishlab chiqarishga moslashib qolgan edi.Shu sababli ham viloyatda paxtachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati va qurilish sanoatiga ixtisoslashgan ba’zi bir korxonalar bunyod etila boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikka xos ko‘p ukladli tizimning shakllanishi, qolaversa Respublika hukumatining va viloyat hokimiyatining tashabbusi bilan viloyatda sanoat korxonalarini keng miqyosda barpo qilish, viloyat sanoatiga chet el investitsiyalarini kiritish va bu orqali qo‘shma korxonalar, o‘rta va kichik korxonalarni shakllantirish borasida samarali siljishlar amalga oshirildi. Mulkchilik yangi shakllarining vujudga kelishi, kishilarda haqiqiy mulqdorlik tuyg‘usining qaror topishi, ishlab chiqarish jarayonining tamomila yangi tartibda tashkil etilishi viloyat sanoatida ham ulkan o‘zgarishlar yasalishiga olib keldi. Natijada o‘tgan davr oralig‘ida viloyat sanoati ham miqdor jihatidan, ham sifat jihatidan yangi pallaga qadam qo‘ydi. Bu kabi o‘zgarishlar viloyat markazi hisoblanmish Termiz shahrida o‘z aksini ko‘rsata boshladi. Natijada ilgari faqat agrar sohaga ixtisoslashgan viloyat xo‘jaligi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat

korxonalariga ega boy hududga aylandi. Shaharda Shuni alohida ta'kidlash joizki, sovetlar davrida O'zbekistonning sanoat taraqqiyoti jihatidan eng kam rivojlangan viloyati bu Surxondaryodir. Surxondaryo viloyati o'z sanoatining rivojlanishi jihatidan 1990 yilda respublikada o'ninchi o'rinda turardi.Sanoat qoloqligini bartaraf etish uchun butun respublikada bo'lgani singari Surxondaryoda ham aniq chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi.Yengil sanoat korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, paxta tozalash sanoati sohasida ma'lum bir ijobiy o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Mustaqillikning ilk bosqichlarida ma'lum bir qiyinchiliklar bo'ldi, xususan, sobiq Ittifoq davridagi aloqalar uzilgach, ta'minot izdan chiqdi. Ko'pgina paxta tozalash zavodlarida ehtiyot qismlar, asbob-uskunalar, jihozlar yetishmasligvdan ancha qiyinchiliklar yuz berdi. Yuqoridagi muammolarni ijobiy hal etish uchun korxonalarning mavjud ichki imkoniyatlaridan foydalanishga to'g'ri keldi, bu esa albatta, o'zining ijobiy natijalarini berdi. Agarda 1990 yili viloyatda mavjud 11 ta paxta tozalash zavodi 143,5 ming tonna tola ishlab chiqargan bo'lsa, 1991 yilda bu raqam 145,4 ming tonnani tashkil etdi. Viloyat yengil sanoat korxonalari 1992 yili 1 247 000 pogon metr shoyigazlama, 99,5 mln. so'mliqdan ko'proq tikuvchilik buyumlari, 20,1 ming juft poyafzal, 19,2 ming dona trikotaj buyumlari, 5,2 ming dona paypoq, 2,3 tonna yigirilgan ip tayèrladi. Surxondaryo yengil sanoatining yetakchi tarmoklaridan biri bo'lgan paxta tozalash zavodlarida yangi texnologiya bilan qurollantirish ishlari olib borildi. Agarda 80-yillarda mavjud paxta tozalash zavodlarida «Mehnat» agregatlari faoliyat yuritgan bo'lsa, endi ularning o'rnini UXK mashinalari egalladi. Buning natijasida avvalo ish unumdorligi oshdi, sexlardagi chang miqdori yarmiga kamaydi. «VS12» va «UVS12» rusumli ventilyatorlar o'rnatildi va «OVM» o'rnini «VTM» mexanizmlari egalladi. Tukli chigitni ushlab qolish maqsadida «RX» mexanizmi, arrali sehda esa yangi «5LGT» shiterlari ishlay boshladi. Albatta, bajarilgan ishlar o'z natijalarini bera boshladi, xususan, paxta tozalash sanoati birlashmasi 1994 yilni muvaffaqiyatli yakunladi. Paxta tozalash zavodlari 131,6 ming tonnadan ko'proq tola ishlab chiqardi, reja 102,2 foizga bajarildi. Tola ishlab chiqarish hajmi 1993 yilga nisbatan 3,7 foizga qo'paydi, momiq tayyorlash hajmi salkam 108 foizga uddalandi, 237 ming tonna chigit tayyorlandi.Mustaqillikka erishgach, paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tola sifatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Chunki Ittifoq davrida tola qayerga, qanchadan sotilishini faqat Moskva hal qilardi, endi bu masalani har bir korxonaning o'zi hal qila boshladi. Mahsulotning jahon bozorida xaridorgir va sifatli bo'lishi uchun harakat boshlandi. Masalan, 1993 yilda ishlab chiqarilgan tolaning 82,5 foizi sifat belgisi talabiga javob bergan bo'lsa, 1994 yilda bu ko'rsatkich 94,2 foizni tashkil etdi. Momiqning 98,6 foizi Davlat standarti talablariga javob berdi va yil mobaynida 10,9 mln. so'm foyda olindi. Bu ko'rsatkich natijasida 1993 yilga nisbatan qariyb 11 barobar o'sishga erishildi. «Paxtasanoatsotish» hissadorlik birlashmasi korxonalari jamoalari iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga yondashgan holda jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishga alohida e'tibor bermoqdalar. Ular 1994 yilda 131,6 ming tonna tola va 6723 ming tonna momiq ishlab chiqardilar, natijada salkam 11 mln. so'm foyda olinib, bu sohada 1993 yilga nisbatan 11 barobar o'sishga erishildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning janubiy hududlarida ham kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etilib, ularda sanoat mahsulotlari, xalq ehtiyoji mollari, aholiga turli xil xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Kichik va o'rta biznes korxonalarining bir qismi bozor iqtisodiyoti qiyinchiliklariga bardosh bera olmasdan inqirozga uchrab faoliyatini to'xtatgan bo'lsa, ularning ko'pchilik qismi o'zining faoliyatini takomillashtirib, ishlab chiqarayotgan mahsuloti sifatini oshirib, tannarxini kamaytirib, jamiyatda o'z o'rnini topa boshladi. Tadbirkorlar mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga chiqarishga erishib, korxonasi iqtisodiyotini mustahkamlab bordilar. Kichik va o'rta biznes korxonalarida ishlab chiqarilgan sanoat va xalq iste'moli mollarining hajmi mamlakatda ishlab chiqarilgan turdosh mahsulotlar orasidagi hissasi yildan-yilga ortib bordi.

2017-yilda xududda mingga yakin istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi. O`tgan davrda umumiy qiymati qariyb 17 million AQSH dollarini tashkil kiladigan 500 ga yakin ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshirilib, 638 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foizga ko‘pdir. Ishlab chikarilgan iste’mol mahsulotlarining hamji 244,0 milliard so‘mni, o‘sish sur’ati esa 11,4 foizni tashkil qilgan.

- Axoli bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish doimiy e’tiborimizda, - deydi Surxondaryo viloyat Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i Abdusalom Jo‘rakulov. - Joriy yilda viloyatimizda 66 ming 96 ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. Ishga qabul qilinganlarning asosiy qismini kollej bitiruvchilari va xotin-kizlar tashkil etadi. Yil yakuniga kadar Termiz shaxridagi «Barlos» mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan quvvati 15 ming donaga teng maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari foydalanishga topshiriladi.

- O‘zbekiston - jannatmonand va betakror o‘lka, - degan edi yaponiyalik taniqli arxeolog olim, «Do‘stlik» ordeni sohibi Kyudzo Kato. - Hayotimning katta qismi Surxondaryo viloyatida o‘tganidan faxrlanaman. Bu diyorning mehmondo‘st xalqiga havasim keladi. Bilasizmi, har yili O‘zbekistonga - Surxondaryoga kelishga harakat kilaman. Yaponiyada bo‘lganimda ham shu yurtni, ko‘ngli ochik o‘zbek xalqini sog‘inaman, qo‘msayman.[2]

Bunday samimiy so‘zlar va e’tiroflarni bugun tez-tez eshitish mumkin. Darhaqiqat, bugun Surxon voxasi, xususan, Termiz shaxridagi xalqimiz farovonligi yo‘lida qilingan, qilinayotgan ishlarni bir-bir sanash uchun ancha-muncha vaqt talab qilinadi. Mustaqillik tufayli bu diyor mamlakatimizning betakror maskaniga aylanib bormoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, shahar sanoatida paxta tozalash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va oziq-ovqat sanoati alohida o‘rin tutadi. 2000 yilda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni ko‘paytirish bo‘yicha "SurxoAgroXizmat" mas’uliyati cheklangan jamiyati birinchi bo‘lib, Italiya texnologiyasi bo‘yicha pivo ishlab chiqarish zavodini ishga tushirdi.

"Termiz non" hissadorlik jamiyati tomonidan Italiyaning "Texnoriy" projekt kompaniyasi bilan o‘zaro shartnoma asosida pechen’e va makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish liniyasi olib kelingan. Liniya 2000 yil fevral oyidan tuliq quvvat bilan ishga tushirilgan edi.

2000 yilgacha bo‘lgan tarmoqdagi o‘zgarishlar shahar iqtisodiyotida quyidagicha ko‘rinish oldi.

Sanoat korxonalari soni.

O‘lchov birligi	1999 yil	2000 yil
birlik	200	219
birlik	3	3
birlik	10	10
birlik	22	25

Termiz shahrida 2000 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va islohotlar borishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda quyidagi jadval ko‘rinishini oldi[3].

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	amalda	
			1999 yil	2000 yil
1	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish harakatdagi narxlarda	mln. so‘m	2421,9	3982,6

2	Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotida nodavlat tarmoq ulushi	%	100	100
3	Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish harakatdagi narxlarda	mln. so'm	1598,8	2586,8
4	Xalq iste'mol mollari jami hajmida nodavlat tarmoq ulushi	%	100	100
5	Qoldiq tayyor mahsulotlar hajmi harakatdagi narxlarda	mln. so'm	228,4	433,8
6	Asosiy sanoat korxonalari soni	Birlik	12	12
Moliyaviy ko'rsatkichlar				
7	Mahalliy byudjet daromadlari	mln. so'm	1130,5	1240,7
8	Mahalliy byudjet daromadlari va harajatlar sal'dosi	(+. -)	+177.6	25,7
9	Naqd pul emissiyasi	%	37,8	42,5
10	Soliq va tushumlar jami	mln. so'm	2726,3	3449,9
11	Debitor va kreditor qarzlar (01.12.2000 yil holatiga)	mln. so'm	415,9	484,7
12	Debitor qarzlar	mln. so'm	0,8	3,8
13	kreditor qarzlar	mln. so'm	888,6	682,5

Viloyat va uning markazi Termiz shahri barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Buning tasdig'ini birgina 2016 yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 9172,5 milliard so'mni tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 108,0 foizga o'sgani misolida ham ko'rish mumkin.[4]

Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish sohalar kesimida tahlil qilinganda, sanoat mahsulotlarining ulushi 9,4 foizni, qurilish 7,9 foizni, taransport va aloqa 11,6 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish 10,1 foizni soliqlar 2,9 foizni va boshqalar 28,6 foizni tashkil qildi.[4]

Shahar yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 75,3 foizni tashkil etgani, mehnat bilan band aholining 80 foizdan ziyodi ayni shu yo'nalishda ish yuritayotgani ham sohaga qaratilayotgan ustuvor e'tibor natijasidir.

Adabiyotlar

1. O'roqova N.S. O'zbekistonda mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni (janubiy viloyatlar misolida). Tarix.fan.nom. diss. – Toshkent: O'zMU, 2004.
2. Surxon tonggi.O'zbekiston - jannatmonand va betakror o'lka, 97-son.
3. Mazkur jadval viloyat statistika qo'mitasi bergan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.
4. Mualliflar jamoasi. Surxondaryo: buyuk o'tmishdan yorqin kelajak sari. Kitob-albom. -Toshkent: "Ma`naviyat", 2017.

UDK:9(58)4:33:008:378:796.5(584.4)

O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON RESPUBLIKALARI HAMKORLIGINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MASALALARI

G‘.R.Mirzayev
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Harbiy-texnik instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Qirg‘iziston davlatlarining mustaqillik yillaridagi hamkorligi masalalari berilgan. Mintaqa davlatlarining mustaqil davlat sifatida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, huquqiy jihatlari asoslab berilgan. Mazkur mamlakatlar hamkorligida iqtisodiy va madaniy sohalarning tutgan o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Davlatlararo hamkorlikning tarixiy rivojlanib borish genezisi va mintaqaviy integrasiyani mustahkamlashdagi roli tahlil etilgan. Mintaqada iqtisodiy integrasiyani yo‘lga qo‘yishda O‘zbekiston va Qirg‘iziston roli izohlangan. O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligining Markaziy Osiyo davlatlari integrasiyalashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlari izohlab berilgan. Shuningdek, ikki mamlakat hamkorligining o‘tgan davr mobaynida bir xil kechmaganligi sabablari aniqlangan va murakkab vaziyatda O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Xususan, transchegaraviy daryolar, kommunikasiya va energetika resurslari masalasidagi hamkorligi yoritilgan. Ikki mamlakat hamkorligidagi muammolar aniqlanib, ular yechimiga doir takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, tinchlik, barqarorlik, iqtisodiy, madaniy, hamkorlik, transchegaraviy, umumiy tarix, mushtarak manfaatlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, davlatlararo, delimitasiya, integrasiya.

Вопросы формирования и развития двустороннего сотрудничества Республики Узбекистан и Кыргызстанской республики

Аннотация. В статье анализируется историческое развитие, генезис двустороннего сотрудничества и роль в обеспечении региональной интеграции. Объяснена роль Узбекистана и Киргизстана в установлении экономической интеграции в регионе, влияние аспектов сотрудничества Узбекистана и Германии на интеграцию стран Центральной Азии. Также были выявлены причины неоднородности сотрудничества между двумя странами в прошлом и продемонстрирована практическая значимость мирной внешней политики Узбекистана в сложной ситуации. В частности, было охвачено сотрудничество трансграничных рек, коммуникаций и энергетических ресурсов. Выявлены проблемы сотрудничества двух стран и даны рекомендации по их решению.

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекистан, Кыргызстан, годы независимости, мир, стабильность, экономическое, культурное, сотрудничество, трансграничное, общая история, общие интересы, торгово-экономическое сотрудничество, межгосударственный, делимитация, единое экономическое пространство, интеграция.

Issues of formation and development bilateral cooperation republic of Uzbekistan and Kyrgystan republics

Abstract. There has been devoted issues cooperation of Uzbekistan and Kirgizstan during independent period. Author was open legally ground establish cooperation two countries of region. Studied place of economic and cultural fields on the cooperation in the states. Historical development genesis of bilateral cooperation and role for stabled of regional integration analyzed on the article. The role of Uzbekistan and Kirgizstan to establish economic integration on the region, influence aspects of Uzbekistan and Germany cooperation to integration of Central Asian’s countries explained. In addition, the reasons for the non-uniformity of cooperation between the two countries in the past have been identified

and the practical significance of the peaceful foreign policy of Uzbekistan in the difficult situation is demonstrated. In particular, the cooperation of Transboundary Rivers, communications and energy resources was covered. Problems of cooperation between the two countries are identified and recommendations for their solution are given.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan, Kyrgyzstan, years of independence, peace, stability, economic, cultural, cooperation, cross-border, general history, common interests, trade and economic cooperation, interstate, delimitation, one economic space, integration.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olish chiqish zaruriyati” mintaqa davlatlari hamkorligining izchil mustahkamlab borishni talab etayotganligidan dalolat beradi [1].

Shu bois, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari qatori Qirg‘iziston Respublikasi bilan hamkorlikka ham alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Tarix shohid! Mustaqillikning o‘tgan yillari davomida ikki xalq, ikki davlat hamkorligiga rahna soluvchi va jips munosabatlarini buzishga oshiqqan kuchlar ham ko‘p bo‘ldi. Lekin, tili bir, dini va maqsadlari bir bu ikki xalq do‘stligi O‘zbekiston tomonidan oqilona amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatdagi bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli olib borayotgan siyosati tufayli mustahkamlanib borilishiga erishilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligini tarixiy nuqtai nazardan qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rganish, o‘zaro hamkorlikning o‘tgan yillar davomidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, manfaatli aloqalarni mustahkamlashga oid taklif mulohazalarni berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Asosiy qism. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari hamkorligi huquqiy asosining dastlabki hujjatlaridan biri 1991 yil 31 oktyabrda ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi Shartnomaga borib taqaladi [4., 9].

O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi ikki mamlakat prezidentlari tomonidan 1992 yil 29 sentyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma” asosida yangicha ruhda yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda [4., 59]. 1993 yil 8 sentyabr kuni Namangan shahrida O‘zbekistonning Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlari bilan Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod va O‘sh viloyatlari o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Shartnomaning imzolanishi qo‘shni davlatlarning chegarabo‘yi hududlari o‘rtasida mustahkam aloqaning shakllanishiga xizmat qila boshladi [4., 111].

1993 yil 14 avgustda “1994-2000 yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi iqtisodiyotini integrasiyalashni rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risida” Deklarasiyani imzolashdi [4., 107]. Ushbu hujjat ikki mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy sohalarda mustahkam aloqani yo‘lga qo‘yish va mintaqaviy iqtisodiy integrasiyani shakllantirishga doir yo‘l-yo‘riqlarni belgilab berdi.

1994 yil 16 yanvarda O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlari tomonidan davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit-hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi Yagona iqtisodiy makon to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 1994 yil 30 aprelda Cho‘lponota shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida Yagona iqtisodiy makon tuzish to‘g‘risida uch tomonlama shartnoma imzolandi. Ushbu hujjatlar asosida qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik yangi pog‘onaga ko‘tarilib, rivojlanib borishiga zamin hozirlandi.

Ta’kidash joizki, O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligi Markaziy Osiyoda iqtisodiy integrasiya masalalariga ham alohida e’tibor qaratgan. Masalan, 1994 yil 8 iyulda Almati shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlat va hukumat rahbarlari

uchrashuvining bo‘lib o‘tishi qardosh mamlakatlar xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo‘ldi. Uchrashuvda Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlantirish bankini ta’sis etish to‘g‘risida Bitim, shuningdek, aholi ko‘chishi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolanganligi mintaqaviy integrasiya masalalari yechimini topishda muhim qadam bo‘ldi [3., 163]. Tomonlar davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta’sis etdilar. Bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarining paydo bo‘lishi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi integrasiya uchun huquqiy asos vazifasini o‘taydi. Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil etildi. 1998 yil Tojikiston a’zo bo‘lib kirishi tashkilotning kelajakda mintaqadagi rolining oshishiga xizmat qildi. Uning bazasida 2001 yil 28 dekabrda Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOH), 2005 yil 6-7 oktyabr kunlari MOH va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangi Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH) shakllantirildi. Afsuski, mintaqaivy integrasiyalashuv jarayoni va mintaqa davlatlari mustaqil tuzilmasining saqlanib qolinmaganligini guvohi bo‘lamiz [4., 270-274].

1996 yildan buyon Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston-Qirg‘iziston hukumatlararo komissiyasi faoliyat olib bormoqda. 2000 yilda O‘zbekistonda 22 ta o‘zbek-qirg‘iz qo‘shma korxonasi, Qirg‘izistonda 62 ta qirg‘iz-o‘zbek qo‘shma korxonalari faoliyat yurita boshlagan bo‘lsa-da, ushbu holat davlatlar imkoniyat darajasidan ancha past ko‘rsatkichda ekanligidan dalolat beradi [4., 277]. O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016 yil yakunlari bo‘yicha qariyb 169,3 million AQSh dollarini tashkil etdi [12].

2010 yil iyunida Qirg‘izistonda obro‘-e’tiborini yo‘qotgan Prezident hokimiyatining ag‘darilishi, ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O‘zbekiston Respublikasi hukumati oqilona yo‘l tutdi va 100 mingdan ortiq qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni qabul qildi, joylashtirdi va barcha zarur narsalar bilan ta’minladi. Markaziy Osiyoda qarama-qarshilikning keng ko‘lamli o‘chog‘iga aylanib ketishining oldi olindi. Bu esa, jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning ushbu qaltis vaziyatda amalga oshirgan madaniy-gumanitar tadbirlarini to‘liq ma’qullaganligi bilan xarakterlidir [4., 277].

Darhaqiqat, Qirg‘iziston Respublikasi bilan konstruktiv, serqirra va o‘zaro manfaatli hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining tarixi, madaniyati va ma’naviyati, aytish mumkinki, taqdiri mushtarak ekanini ko‘p misollarda, xususan, rivojlanib borayotgan madaniy-gumanitar aloqalar misolida yaqqol ko‘rish mumkin” [2., 410].

1996 yil 24 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida imzolangan abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma asosida hamkorlik izchil rivojlanmoqda [7].

Davlatlararo hamkorlikda millatlararo do‘stlik va hamjihatlik muhim rol o‘ynaganligi bois ham, “mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, ... O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi [1., 295]. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi aloqalarning yangi tarixida 2016 yil dekabr oyida Samarqand shahrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlarining bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvi o‘zaro aloqalarning tayanch nuqtasi vazifasini o‘tadi.

Ma'lumki, Qirg'izistonda qirg'izlardan tashqari eng yirik milliy guruhlar asosan janubda yashaydigan o'zbeklar (15 %) va mamlakat shimolida yashaydigan ruslar (9%)dir [5, 35]. Shu bois, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik rivojida o'zbek va qirg'iz xalqlarining hissalari beqiyosdir.

Hozirgi paytda O'zbekistonda 300 mingga yaqin qirg'iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qiladi. Ularning o'z madaniyati, tili, an'ana va urf-odatlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. 56 maktabda ta'lim qirg'iz tilida olib boriladi [12]. Ular qirg'iz tilidagi darsliklar bilan to'la ta'minlanmoqda. Ushbu darsliklarni yaratish uchun "O'zbekiston" nashriyotida "Qirg'iz tili" bo'limi tashkil etilgan. Andijon davlat universitetida qirg'iz maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlanmoqda. Respublikamizda 6 ta qirg'iz madaniy markazi mavjud bo'lib, ular o'z xalqining madaniyati, tili, urf-odat va an'analarini saqlash va rivojlantirish ular faoliyatining bosh maqsadini tashkil etadi [2.,413-414]. Respublika qirg'iz madaniyati markazi tarkibida Andijon, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida faoliyat yuritib kelayotgan ushbu qirg'iz milliy madaniyat markazlari folklor va ijodiy guruhlar bilan birga ikki xalq o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda [12].

O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari madaniy hamkorligi ham ushbu sohaga doir tegishli hujjatlar asosida mustaqillikning ilk yillaridan boshlanib, madaniyat kunlari, do'stlik festivallari kabi madaniy tadbirlar sifatida o'tkazib kelinganligining guvohi bo'lamiz. 1994 yil 16 yanvardagi "O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida madaniyat, sog'liqni saqlash, ilm-fan, ta'lim, turizm va sport sohasida hamkorlik" to'g'risida Bitim imzolangan [13., 26]. Ushbu hujjat asosida O'zbekistonda Qirg'iziston madaniyati kunlari o'tkazilganligi ikki mamlakat madaniy sohalarining yaxshi yo'lga qo'yilgnligidan dalolat beradi [13. 38-41].

Ikki mamlakat hamkorligiga oid materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000-2015 yillarda iqtisodiy va madaniy hamkorlik sust rivojlangan va buning sababini mazkur davlatlarning o'z taraqqiyot yo'llaridagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bilan cheklanib qolganligi hamda Qirg'izistonda tez-tez hukumat almashinuvi bilan izohlash mumkin.

Madaniy-gumanitar aloqalar tarkibiga kiruvchi madaniyat, ta'lim, fan, san'at va turizm sohasida ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirish davlat rahbarlarining oliy darajadagi maqsadlari qilib belgilab olindi va ushbu vazifadan kelib chiqib, bugungi kundagi ushbu sohadagi aloqalar izchil rivojlantirib borilmoqda va tegishli huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Masalan, 2016 yil may oyida Botkent viloyati delegasiyasining Farg'ona viloyatiga, 10 avgust kuni esa O'sh shahar hokimligining Andijon viloyatiga amalga oshirgan tashriflari hamda ishbilarmon doiralarning biznes forumi o'tkazilishi xalqlarimiz o'zaro ishonchining oshishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan sanalmish chegaraoldi mintaqalarda muntazam aloqalarni yo'lga qo'yishga jiddiy yondashayotganining yana bir tasdig'i bo'ldi [6].

2016 yil oktyabr oyida Qirg'izistonning O'sh, Botken, Jalolobod viloyat rahbarlari, jamoatchilik vakillaridan iborat 130 nafar mehmon O'zbekistonga, Andijon viloyatiga tashrif buyurgan paytda O'zbekiston Respublikasi hamda Qirg'iziston Respublikasining chegaraoldi viloyatlari o'rtasida iqtisodiy, ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish to'g'risida o'zaro ikki mamlakat aloqalarni mustahkamlash to'g'risida anglashuv memorandumi imzolandi [6].

2016 yil 26 oktyabr kuni O'zbekiston – Qirg'iziston "Do'stlik" chegara-bojxona postida Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarining rahbarlari, jamoatchilik vakillaridan iborat 140 kishilik delegasiya tantanalai ravishda Qirg'izistonlik qardoshlar tomonidan qizg'in kutib olindi. Ushbu do'stlik uchrashuvi o'zaro bordi-keldi munosabatlarida o'ziga xos mazmun kasb etdi. O'sh shahrining markazida o'nlab yurta (chodir)lar tikilgan bo'lib, Qirg'iziston

xalqlar Assambleyasi vakillari – o‘zbek, rus, uyg‘ur, turk, nemis madaniy markazlari o‘z urf-odatlariga ko‘ra, dasturxon yozib mehmonlarni qarshi oldilar [11].

O‘zbek-qirg‘iz xalqlari madaniy aloqalarining kulminasiyali nuqtasi sifatida Qirg‘iz xalqi eposi – “Manas”ning el sevgan satrlarini baxshilar tomonidan kuylangani va turli millat vakillari, ya’ni, bolajonlarning tinchlik, do‘stlikni madh etuvchi qo‘shiqni zavq bilan ijrosi ishtirokchilar tomonidan yuqori baholandi [11].

Ushbu safar chog‘ida madaniy-gumanitar aloqalarga doir yana bir muhim hujjat - “Andijon davlat universiteti va O‘sh davlat universiteti hamkorligi to‘g‘risida” Shartnomasini imzolanishi bo‘lib, ushbu hujjat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida ilmiy tadqiqot, malaka oshirish, kelgusida talabalar almashish borasida hamkorlik qilish imkonini beradi [11].

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O‘sh davlat akademik o‘zbek musiqiy-drama teatri jamoasi mehmonlarga “Manas o‘g‘li Semetey” asaridan parcha namoyish etishi muxlislar tomonidan qizg‘in kutib olindi. O‘zbekistonliklarga O‘sh shahridagi Sulaymon tog‘i tarixiy etnografik majmuasi tarkibidagi muzey, yodgorliklar va Bobur nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar tanishtirildi.

Shu o‘rinda, O‘sh viloyati faxriylar kengashi hamraisi Orozbek Akimboyevning quyidagi fikrini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “bizning millatlar yer yuzida paydo bo‘lganidan buyon do‘st. Shunday bo‘lib qoladi. Andijonda imzolangan “Do‘stlik memorandumi”dan umidimiz katta. Biz bugun kechagidan, ertaga bugundan yaxshiroq yashashimiz kerak. O‘zbek – qirg‘iz do‘stligi uni ta’minlovchi omillardan biri, deb hisoblayman” [11].

Ta’kidlash joizki, ushbu tashrif ikki mamlakat tarixan qaror topgan hamkorligini yangi bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qilgan tashriflardan biri sifatida baholanadi.

2017 yil 16 avgust kuni O‘zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi delegasiyasi Bishkek shahrida bo‘ldi. Mazkur tashrif chog‘ida turli yo‘nalishlarda, xususan, xo‘jalik subyektlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish va birgalikdagi faoliyatni kuchaytirish sohalarida aloqalarni rivojlantirishning samarali choralari hamda mexanizmlarini ishlab chiqishga rag‘bat uyg‘otgan Ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyaning 8-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, hukumatlar delegasiyalarining O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasidagi Davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish masalalari bo‘yicha yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi [6].

Ma’lumki, 2017 yilning fevral oyida qabul qilingan 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida respublikamiz tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari ham belgilangan. Ular orasida eng asosiysi mintaqadagi qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash hisoblanadi. Shuningdek, Qirg‘iziston bilan do‘stlik rishtalari va yaqin qo‘shnichilik aloqalarini yaxshilashga ham muhim ahamiyat qaratilgan. Undan ko‘zlangan maqsad “O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini, ya’ni “farovonlik kamari”ni shakllantirishdir.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik 2017 yilda ham bir qator huquqiy-normativ hujjatlar va amaliy harakatlarga boyiganli bilan xarakterlidir. Ayniqsa, chegaraoldi mintaqalari o‘rtasidagi hamkorlikning izchil rivojlanib borilishiga ahamiyat qaratilmoqda.

2017 yil fevral oyida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O‘sh davlat akademik o‘zbek musiqiy-drama teatri jamoasi Farg‘ona vodiysida bo‘ldi va Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqiy teatri jamoasi Qirg‘izistonning Janubiy mintaqalari- O‘sh, O‘zgan, Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlarida ijodiy safarda bo‘lib, o‘z dasturlari bilan ijodiy safarni amalga oshirdi [9].

2017 yil 5-6 sentyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iziston Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifidagi muloqotlarga Samarqandga uchrashuvi debocha vazifasini o‘tab, olib borilgan muzokaralar esa “Samarqand uchrashuvi ruhi” asosida davom ettirildi.

Davlatlarimiz xalqaro doirada bir-birini quvvatlamoqda. BMT, ShHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha tomonlarning pozisiyalari bir-biriga mos, yoki yaqindir. Mamlakatlarimiz butun mintaqada tinchlik va xavfsizlik mustahkamlanishidan manfaatdor.

2017 yil 5 sentyabrda Bishkek shahrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati o‘rtasida imzolangan “Mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimning 2017 yil 21 noyabrda kuchga kirgani mazkur yo‘nalishdagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda [8].

Darvoqe, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga doir yana bir qator madaniy tadbirlarning tashkil etilganligining guvohi bo‘lamiz. Ya’ni, ikki mamlakat aholisi tomonidan azaldan bir-birining madaniyati, san’ati va tarixiga nisbatan katta qiziqish mavjud bo‘lib kelgan va bir-birining madaniyatini madaniy tadbirlar asosida boyitib kelgan. Misol uchun, 2017 yil avgustda Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivalida Qirg‘izistonning “Meros” guruhi ikkinchi o‘rinni egalladi [6]. 2017 yil 6-7 oktyabr kunlari Bishkek va O‘shda O‘zbekistonning ijodiy jamoalari, Esan’at ustalari ishtirokida Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi [8].

Madaniy-gumanitar aloqalar deganda, albatta, adabiyotni ham tushunish joizdir. Ikki mamlakat madaniy-gumanitar hamkorligining tarkibiy qismlaridan biri, - bu ularning buyuk farzandlariga yuksak ehtirom ko‘rsatib kelish an’anasidir. O‘zbekistonda ham, Qirg‘izistonda ham doimo xalqlarimizning buyuk farzandlari xotirasiga katta hurmat bajo keltiriladi. Jumladan, 2017 yil 18 oktyabrida O‘zbekiston Milliy universitetida qirg‘iz xalqining atoqli adibi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazma tashkil etildi [8] va 2018 yil ushbu ijodkorning tanlangan asarlari nashr etildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Chingiz Aytmatov asarlari eng ko‘p tarjima etilgan va nashr qilingan mamlakatlar orasida O‘zbekiston yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilayotgan bir hozirgi paytda Chingiz Aytmatovning o‘lmas merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ma’no va ahamiyat kasb etadi [2.413].

Shuningdek, 2017 yil 17 noyabr kuni esa, Bishkekda O‘zbekistonning atoqli davlat arbobi va yozuvchisi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Ulug‘ siymo va zamon” ko‘rgazmasi tashkil qilindi [8].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Qirg‘izistonda qirg‘iz va o‘zbek xalqlariga o‘z ona tili, milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash uchun qulay sharoitlarni yaratilishi, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlanishi davlatlararo madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlanishda muhim omil hisoblanadi. Shubhasiz, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “xalqlarimiz o‘rtasida tarixan shakllangan qardoshlik va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini yuksak qadrlaymiz. Aynan mana shu munosabatlar ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda” [12].

Xulosa. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari hamkorligining ayrim masalalari haqida tuxtalib o‘tib bir qator xulosalarga kelishga muvaffaq bo‘ldik. Mustaqillikning ilk yillaridanoq ikki qardosh va qo‘shni davlat o‘zlarining hamkorligini o‘zaro manfaatlari asosida shakllantirganligini guvohi bo‘ldik. O‘zbekiston

Respublikasi tashqi siyosati Konsepsiyasi va Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, avvalo, qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratayotganligini Qirg‘iziston Respublikasi misolida ko‘rish mumkin. Davlatlararo hamkorlik Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosati yangi mazmun bilan boyib, parlamentlar, turli vazirliklar va idoralar, hududlar o‘rtasidagi aloqalar bilan rivojlantirib bormoqda. Ushbu jarayon bugungi kunga kelib yangi bosqichga olib chiqildi. Qirg‘iziston davlati rahbariyati ham O‘zbekistonning ushbu ahil qo‘shnichilik tashabbusi va hamkorliklik aloqalarini rivojlantirish siyosatini qizg‘in qo‘llab-quvvatlamoqda.

Taklif. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligini rivojlantirishga doir quyidagi takliflarni berish mumkin:

–O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligida Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transport, ekologik, transchegaraviy daryolardan foydalanishda milliy-etnik, transchegaraviy muammolar to‘planib qolishini olishda xalqaro huquq me’yoriy hujjatdaridan kelib chiqib ish tutish;

–ikki mamlakat misolida butun mintaqaning barqaror rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun majoroli vaziyatlarnining yuzaga kelmasligini ta’minlash maqsadida mintaqa davlatlarining ichki va tashqi siyosatini bir maromda olib borish;

–ikki mamlakat chegaralarini aniq belgilab olish jarayonini yakunlash, transport kommunikasiyalari hamda savdo-sotiqni yanada rivojantirish mexanizmini ishlab chiqish;

–O‘zbekiston va Qirg‘iziston davlatlari misolida Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari hamkorligining ikki va ko‘p tomonlama ham izchil o‘rganilib, kompleks mintaqaviy rivojlanishga doir Konsepsiya va loyihalar ishlab chiqish.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorligi Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy integrasiyani mustahkamlash hamda mintaqa tinchligi va barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolar yechimini topishda asosiy omil sanaladi. Davlatlarning hamkorligi ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlardagi o‘zaro munosabatlar asosida rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ .
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ.
3. Тюриков В., Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон Республикаси: Унутилмас воқеалар ва саналар (1991-1996). – Т. “Ўзбекистон”, 1998.
4. Усмонов Қ. Ўзбекистон тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 2015.
5. Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Т.:2005.
6. Халқ сўзи. – 2017 йил 5 сентябрь.
7. Халқ сўзи. – 2017 йил 7 октябрь.
8. Халқ сўзи. – 2017 йил 12 декабрь.
9. Халқ сўзи. – 2017 йил 14 декабрь.
10. Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.
11. Ўзбекистон овози. – 2016 йил 29 октябрь.
12. http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/11054-d-stlik-va-zaro-ishonchga-asoslangan-amkorlik (8.09.2017).
13. ЎзР МДА, М-7 – фонд, 1 – рўйхат, 331 – иш, 152 варақ

UDK: 323(575.1)316:1

MILLIY G‘OYANI RIVOJLANTIRISH VA MA’NAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIDA MA’RIFIYLIK VA DUNYOVIYLIK TAMOYILLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

A.Z.Sharipov
Buxoro davlat universiteti
E-mail: abduhakim-83@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy va mafkuraviy sohalarida ro‘y berayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati ijtimoiy-falsafiy tahlil etilgan. Jamiyatimiz yangi ma’naviy qiyofasini shakllantirish va uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida ma’rifiylik va dunyoviylik tamoyillarining nazariy-metodologik xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur maqola yangi O‘zbekistonning ma’rifiy xususiyatlari va uchinchi Renessans poydevorining ma’naviy asoslari to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifiylik, dunyoviy ilm-fan, yangi O‘zbekiston, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, bag‘rikenglik, islom

Особенности принципов просветления и современности в развитии национальной идеи и трансформации духовных ценностей

Аннотация. В данной статье проведен социально-философский анализ сущность радикальных реформ, происходящих в духовной и идеологической сферах в обновляемом обществе Узбекистана. Изучаются теоретико-методологические особенности принципов просвещения и современности в формировании нового духовного образа общества и построении основ третьего Возрождения.

Ключевые слова: духовность, просвещение, светская наука, новый Узбекистан, духовные ценности, национальная идея, толерантность, ислам.

Characteristics of enlightenment and modern principles in the development of the national idea and the transformation of spiritual values

Abstract. The article makes a socio-philosophical analysis of the essence of radical reforms taking place in the spiritual and ideological spheres of the renewed society of Uzbekistan, Uzbek society. The theoretical and methodological features of the principles of enlightenment and modernity in the formation of a new spiritual image of society and the construction of the foundations of the third Renaissance are studied. This article provides an opportunity for a holistic view of the educational features of the new Uzbekistan and the spiritual foundations of the Third Renaissance.

Keywords: spirituality, enlightenment, secular science, new Uzbekistan, spiritual values, national idea, tolerance, Islam

> *Bugungi notinch zamonda yoshlarni ilm-ma’rifat asosida tarbiyalash, ularni begona va zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilishda islom sivilizatsiyasining noyob ma’naviy merosi va qadriyatlari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.*
>
> *Shavkat Mirziyoev*

Insonning jamiyatga uyushib yashash zaruriyati uning ma’rifiy-ma’naviy dunyosining yuksalishi natijasi o‘laroq shakllanadi. Inson dunyoqarashi manaviy va ma’rifiy qadriyatlar bilan boyigan davrdan boshlab u o‘zining atrofidagi muhitga, inson va insoniy munosabatlarga zaruriyat seza boshlaydi. SHu bilan birga, ma’naviyat faqat merosiy, tarixiy va an’anaviy qadriyat emas, balki doimo rivojlanib, takomillashib, yangi hayot tarzi bilan uyg‘unlashib boruvchi voqeliqdir. Aksariyat olimlar ma’naviyatga doir o‘z izlanishlarini faqat

o‘tmish bilan cheklaydilar, hozirgi kunning dolzarb maqsad va vazifalari bilan bog‘lamaydilar.

Hozirgi davrga kelib rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qadriyatlari - xalq hokimiyati, hokimiyatning fuqarolar manfaatlari asosida faoliyat yuritishini, siyosiy qarorlar qabul qilishni ko‘pchilik ovozi bilan hal etish, ozchilik huquqlarining hurmat qilinishi, asosiy inson huquqlarini amal qilinishiga kafolatlar yaratilganligi, erkin va adolatli saylovlar tizimini an’anaga aylanganligi, qonunning barcha uchun tengligi, odil sud hokimiyatining o‘rnatilishi, dunyoqarashlar plyuralizmi, turli xil qarashlar va fikrlarning o‘zaro bir-biriga bag‘rikeng bo‘lishi kabi qadriyatlar har bir jamiyat a’zosining ma’naviyati va madaniyatining uzviy va ajralmas bo‘laklariga aylandi. Albatta, bu qadriyatlar XX asrda o‘z takomiliga etgan, o‘z rivojlanishini qadimgi davrdan boshlagan ma’naviy yuksalishning so‘nggi bosqichi mahsulidir [3].

Falsafiy ta’limotlarda nafaqat er sayyorasi, balki butun koinot doimiy o‘zgarish va rivojlanishda ekanligi bot-bot takrorlanadi. Insoniyat jamiyati ham ana shu dialektik aloqadorlik qonuniga muvofiq asosda yashaydi va hayot kechirmoqda. Ayni paytda, mamlakatlar va halqlar tarixida shunday yangilanish vaqtlari borki, bunday davrda millatning ezgulikka intilishi, ixtiro va kashfiyotlari yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Bugun mamlakatimizda ham rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga erishish, yangi O‘zbekiston jamiyati qurishdek ezgu maqsadlar sari ildamlash davom etmoqda[5].

Ammo, amaliyotga joriy etilgan va mustaqillikning chorak asrlik davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarini rivojlantirishga oid konsepsiyalar, ustuvor vazifalar va yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan turli harakat dasturlarida ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy sohadagi islohotlarga kuchli e’tibor berilmagani, bunda plyuralistik tamoyil amal qilmaganini hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi.

O‘zbekiston taraqiyotining hozirgi bosqichida bu boradagi yondashuvlarni o‘zgartirish va sohani modernizatsiyalash talab qilinmoqda. Bu jarayonda tinchlik va osoyishtalikni asrash, jahon hamjamiyatida o‘ziga xos va munosib o‘rni bor davlat sifatida, avlod-ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish bilan birga, ushbu an’analarni yanada yuksakroqqa ko‘tarish zarurati mavjud.

Dunyo hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgan boy ilmiy-ma’naviy merosimiz jahon madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganligi ma’lum. Aynan ana shu omil mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratishning ma’naviy-mafkuraviy, ma’rifiy-diniy asosi vazifasini bajarmoqda.

Ma’rifat insonning o‘z erkinligini his etishi, mutelik ruhiyatidan poklanishi, millat, jamiyat va o‘z Vataniga nisbatan muhabbat va ezgulikka erishish kafolati hamdir. Faqat ma’rifatli inson o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan past qo‘ya oladi. Inson jamoa, millat va davlat manfaatlarini ifoda etish va qondirish uchun faollik ko‘rsata olsa, o‘zining ham manfaatlarini anglashda ma’rifatlilik darajasi yuksalib boraveradi. Xaqiqiy barkamol va ma’rifatli insonda jamiyatdagi barcha manfaatlar va ehtiyojlari muvofiqlashtirishga intilish, bu faoliyatni u xuddi o‘zinipg umri mazmunidek his qilish xarakteri shakllanadi.

Inson faqat ma’rifatli bo‘lish natijasidagina o‘zi qurmoqchi bo‘lgan ulkan bino – yangi jamiyatni tasavvur qila oladi. Ana shunday tasavvurgina insonga intilish, yaratuvchanlik ruhini baxsh etadi. Qolaversa, faqat ma’rifatli insongina jamiyag va davlat rivojlanishining demokratik va siyosiy jarayonlarida ixtiyoriy ravishda ishtirok eta oladi [4].

Milliy g‘oyani rivojlantirishning eng asosiy maqsadlaridan biri – biz o‘tmoqchi bo‘lgan fuqarolik jamiyatini tasavvur qilish, xalqimizga ruhiy jihatdan ma’naviy oziq berish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o‘rnatishga doir islohotlar jarayonlariga fuqarolarning daxldorlik va safarbarligiga erishish, fuqarolik jamiyatining xalq roziligi va adolat ustuvorligiga erishish kafolati ekanligi g‘oyasini singdirishdir [11].

Umuman, mamlakatda yangi jamiyat qurish va uni rivojlantirish maqsadlarida, avvalambor, inson omiliga muhim e’tibor berish, ma’naviy yuksak insonlarni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham jamiyatda yashaydigan fuqarolarning milliy va ma’naviy qadriyatlar kabi asosiy maqsadlar atrofida birlashishi va jipslashishi ular faoliyatini yanada takomillashtiradi.

Yer yuzida insoniyat yaratilganidan boshlab hayotiy va insoniy qulayliklarga ega bo‘lgan adolatli jamiyat qurishga intilishlar hamon davom etmoqda. Tarixning ilk davridanoq adolatli jamiyat qurishda jamiyat barqarorligini saqlashning bebaho omili sifatida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratgan. Aynan ana shu asos tufayli ideal jamiyat orzusidagi tasavvurlarga oid ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va diniy qarashlar shakllandi [2].

Milliy ma’naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning Vatan va xalq oldidagi xizmatlari, bebaho ilmiy va ijodiy merosi bilan nafakat xalqimizni, ayni vaqtda dunyo jamoatchiligini ham keng tanishtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma’lumki, Markaziy Osiyo zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish «Jaholatga qarshi – ma’rifat» tamoyili asosida ma’naviy qadriyatlarimizni asrash bu sohadagi islohotlar negizidir [14].

Xalqaro maydonda mafkuraviy manzarani o‘zgarib borayotganligi, jahon siyosati va iqtisodida muammolar avj olayotganligi dunyoning umumiy manzarasini o‘zgartirish tarafdorlari ko‘payib borayotganligi global dunyo taraqqiyotiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunonchi, “shunday bir vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni, tahliliy va targ‘ibot materiallarini tayyorlash usulini tubdan qayta ko‘rib chiqishimiz zarur. Umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarash holatlariga qarshi kurashishning metodologik asoslarini shakllantirish lozim” [9].

Ijtimoiy hiyotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g‘oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste’dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida islom dinining ma’rifiy jihatlaridan foydalanish ayni muddao.

Zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylandi. Yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, yosh olimlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor berilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: “… yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o‘ylashimiz lozim” [8].

Shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va millatlar xavfsizligiga rahna soladigan turli taxdid va xatarlar kuchayayotgan kunda ma’naviyat va ma’rifatga, g‘oya va mafkura jarayonlariga alohida diqqat qaratish muhimdir.

Aynan zamonaviy ta’lim va tarbiya, yuksak ma’rifat taraqqiyotning, farovonlikning bosh omilidir. Bu esa, ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy bilim olishga muvofiqlashtirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda muqaddas islom dinining aqidalari bilan bog‘liqdir.

Bu borada taxdidlarning sababini emas, ularning oqibatlari bilan qarshi kurashish amaliyoti kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Yoshlarni ilm-ma’rifatga o‘rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini etkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Insoniyat hayotiga taxdid solayotgan xavf-xatarlarga qarshi jaholatga qarshi ma’rifat asosida kurashish, dinimiz pokligini saqlash bo‘yicha mamlakatimiz tomonidan nufuzli xalqaro minbarlardan qator amaliy tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» degan nom bilan maxsus rezolyusiya qabul qilish haqida bildirgan takliflari jahon miqyosida keng qo‘llab-quvvatlanib, BMT Bosh Assambleyasining «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasi qabul qilindi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazining «Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasiga tayangan holda ma’rifiy targ‘ibot yo‘nalishidagi faoliyati muvofiqlashtirilib, zamonaviy talablar asosida tashkil etildi [6].

Xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo‘lga qo‘yish, inson qalbi va ongini egallash uchun turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida davlat muassasasi shaklidagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi [12].

Shu bilan bir qatorda amalga oshirilish zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar ham kam emas. Xususan,

- «Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini amaliyotga qo‘llash zarur.
- Mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, islom madaniyati markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim.

Jaholatga qarshi ma’rifat va ta’limni kuchaytirish orqali kurashish, shu asosda bashariyat farovonligini targ‘ib qilib, insonlarni ezgulikka da’vat etish yo‘lida bu vazifalar muhim ahamiyat kasb etishi muqarrar.

O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zarur.

Ayni paytda, hozirgi globallashuv tufayli inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda namoyon bo‘layotgan turli g‘oyaviy tahdidlar va xurujlar jamiyatimizning tadrijiy taraqqqiy etayotgan ma’naviy hayot dinamikasiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning kuchli va ta’sirchan quroliga aylandi [15].

Bunday vaziyatda jamiyatimizning ma'naviy taraqqiyot strategiyasini yaratish, uning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy va metodologik asoslarni mustahkamlash, targ'ibot va tashviqot tizimi va mexanizmini yanada takomillashtirish vazifalari zaruriy talablarga aylanib bormoqda.

Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish. Millatlararo va fuqarolararo xamjixatlik va totuvlikni mustaxkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muxabbat va sadoqat ruxida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yunalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda keng ko'lamli islohot va tub o'zgarishlar natijasida yangilanib borayotgan yurtimizda vijdon erkinligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada ulkan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biz faqat shu yul bilan bugungi kunning barcha taxdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi qat'iy immunitet yaratishimiz, o'zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin.

Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur", - degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega [1].

Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma'naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa qo'shganini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko'rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish asosiy maqsaddir.

Adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asaplar. – Toshkent: Manaviyat, 1999. – 280 b.
2. Jo'raev N. Tamaddunga da'vat taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyat: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. -T.: O'zbekiston, 2010.
4. Quronov M. Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim, O'zbekistonim. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
5. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati (Mas'ul muharrir: Nazarov Q., Qarshiboev M. va b.). – Toshkent: G'afup G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
7. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –Toshkent: O'zbekiston, 2020.
8. Mirziyoev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir // https://yuz.uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir
9. Musaev F. Demokratik davlat qupishning falsafiy–huquqiy asoslapi. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
10. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari). – T.: O'zbekiston, 2018.
11. Haydapov A. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020.
12. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 480 b.
13. Eshqobil Shukup. Dunyoni ma'naviyat qutqaradi //Ma'naviy hayot. –Toshkent: 2017. – №3.
14. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi – T.: Ma'naviyat, 2019.
15. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.

UDK: 32.019.51

JAMOATCHILIK ONGINI MANIPULYATSIYALASh TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS ASPEKTLARI

B.T.Kuyliyev
O'zbekiston milliy universiteti
broockleen@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashning kommunikativ, axboriy, simvolik, psixotexnologiyalar, OAV texnologiyalari, reklama texnologiyalari, jamoatchilik fikrini o'rganish (ijtimoiy so'rovlar), siyosiy mif va imij yaratish texnologiyalari hamda elektoral texnologiyalar kabi turlari tahliliga diqqat qaratiladi. Bunda ularning o'ziga hos va umumiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, jamoatchilik ongini manipulyatsiyalash sohasidagi xorijiy tadqiqotchilar qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: manipulyatsiya, axborot texnologiyalari, yevfimizmlar, til korrupsiyasi, axboriy blokada, sharhlash texnologiyasi, miyani yuvish texnologiyasi.

Аспекты технологий манипулирования социального сознания

Аннотация. В данной статье анализируются манипулирование социального мнения посредством коммуникативных, информационно-символических психотехнологий, технологиями СМИ, рекламных технологиями, изучением мнения общества (социальное анкетирование), технологиями формирования политического мифа и имиджа. Здесь раскрывается их общие характерные особенности. А также, ведётся сравнительный анализ иностранных исследований в области манипуляции общественного мнения.

Ключевые слова: Манипуляция, информационная технология, евфимизмы, коррупция языка, информационная блокада, технология комментирования, технология промывания сознания.

Aspects of social consciousness manipulation technologies

Abstract. This article analyzes the manipulation of social opinion by means of communicative, information-symbolic psycho technologies, media technologies, advertising technologies, the study of public opinion (social questionnaire), technologies for the formation of political myth and image. Their common characteristics are revealed here. And also, a comparative analysis of foreign studies in the field of public opinion manipulation is being conducted.

Keywords: Manipulation, information technology, euphemisms, language corruption, information blockade, commenting technology, consciousness washing technology.

Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashning kommunikativ, axboriy, simvolik, psixotexnologiyalar, OAV texnologiyalari, reklama texnologiyalari, jamoatchilik fikrini o'rganish (ijtimoiy so'rovlar), siyosiy mif va imij yaratish texnologiyalari hamda elektoral texnologiyalar kabi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Sotsial kommunikatsiya ma'lumotlar, g'oyalar va emotsiyalarni belgilar, jarayonlar, ramzlari orqali uzatish mexanizmi hisoblanadi. Mazkur mexanizm esa o'z navbatida boshqalarning hulq-atvorini belgilash ma'nosidagi hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Auditoriyaning harakteriga ko'ra sotsial kommunikatsiya turlarining quyidagicha tasnifini keltirish mumkin: shaxslararo (individuallashgan), ixtisoslashtirilgan (jamoaviy), ommaviy; xabarning manbaiga ko'ra: rasmiy (formal), norasmiy (noformal); uzatish kanaliga ko'ra esa: verbal va noverbal [1: 34].

Bu borada siyosatchilar saylovchilar bilan muloqot jarayonida qo'llaydigan nutq tilining ham o'rni beqiyos. U jamiyat siyosiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi [2: 102]. Siyosatchilar tomonidan saylovchilar bilan o'zaro aloqa jarayonida qo'llaniladigan muloqot tilini siyosiy madaniyatning tabiiy kodi sifatida tavsiflash mumkin. Tabiiy kod ma'nosida muloqot tili siyosiy madaniyatning barcha sohalari va qatlamlariga kirib borish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keltiradi. Bundan tashqari til siyosiy yetakchi va saylanuvchilar o'rtasidagi muloqot vositasi ham sanaladi. U siyosiy hamjamiyatni o'zaro jipslashtiruvchi vosita bo'lib, jamiyatning axborotlashuv darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda til, qolaversa kommunikatsiyaning har qanday vositasi saylovchilar ongini manipulyatsiyalashning qudratli jihati hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, so'z siyosatchilar jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashda qo'llaydigan muhim qurol sanaladi. So'z siyosatchiga saylanuvchilar ongida ular orzu qilgan yetakchi obrazni yaratish, shu asosda esa ularni jonlantirish hamda harakatga undashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Yuqoridagi mulohazalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonining elementi sifatida til fuqarolarning ayni paytda jipslashishiga ham o'zaro nizolar orqali ajralib ketishini ham ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajaradi. Tilning mazkur hal qiluvchi xususiyati siyosiy manipulyatsiya jarayonida keng va unumli qo'llaniladi. Kommunikativ texnologiyalar muloqot orqali ta'sir ko'rsatishning turli xil aspektlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshiriladi. Muloqot yordamida ta'sir ko'rsatishning ana shunday jihatlaridan biri sifatida so'zlar va tushunchalarning ma'nosini o'zgartirgan holda qo'llashni nazarda tutuvchi manipulyativ semantika hisoblanadi [3: 49]. So'zlangan nutqning parchalari yoki muayyan jarayon audio yozuvlari va videotasvirlarining lavhalaridan sun'iy tarzda xabar hosil qilish matbuotda yolg'on axborot tarqatishning o'ziga hos mexanizmlaridan hisoblanadi. Natijada esa nutq so'zlovchisi nazarda tutgan mulohazalar mazmuni tubdan o'zgarib sun'iy tarzda kesib olib birlashtirilgan parchalar mutlaqo yangi ma'no hosil qiladi. Albatta xabarning alohida kesib olingan parchalari tabiiy ravishda yolg'on hisoblanmaydi. Ammo ularning birlashishidan hosil qilingan xabarning umumiy ma'nosi real voqelikdan butkul farq qilishi mumkin.

Bundan esa manipulyatsiyaning samarador amalga oshishi, unda atamalarni o'rinli qo'llay olish qobiliyatiga bog'liq ekanligi to'g'risidagi xulosa kelib chiqadi.

Manipulyatsiya jarayonida ba'zan u yoki bu hodisa yoki hatti-harakat uchun mo'ljallangan, o'quvchida muayyan ta'assurot uyg'otadigan maxsus til va lug'atlar yaratiladi. Ayni ko'rinishdagi sun'iy tillarni yaratish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Bu jarayonda denotatsiya bo'yicha qo'llash mumkin bo'lgan so'zlar izlab topiladi. Aniqrog'i, nazarda tutilgan hodisani ifodalashga qodir so'zlar denotatsiya bo'yicha tanlab olinadi. Odatda biror-bir tushuncha yoki so'zning turli xil ma'nolari bo'lishi mumkin. Ular birlamchi, ikkalamchi, uchlamchi va hakozo ahamiyat kasb etadi. Ammo mazkur denotatsiyaga asosan tanlab olish jarayonida so'z ma'nolarining qay darajada ahamiyat kasb etishi emas, balki o'sha ma'noning manipulyatsiyada ko'zlangan maqsadni to'liq aks ettira olishi muhim hisoblanadi. Garchi so'zning manipulyatsiyada qo'llangan ma'nosi uning dastlabki ma'nosini to'la-to'kis anglatmasada, uni to'g'ridan-to'g'ri yolg'on deb atab bo'lmaydi. Ba'zan tinchlashtirish atamasi urush tushunchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Konnotatsiya so'zining ikkinchi ta'siri so'zni o'qilgan yoki talaffuz qilingan assosotsiyani uyg'otadi. Shu tariqa targ'ibot jarayonida "tiyilish" so'zi muhim o'rin tutadi. Qolaversa, uning konnotatsiyasi mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyin esa murakkab siyosiy evfemizmlarni hosil qilish uslublari ishlab chiqiladi. Yevfemizmlarni esa oddiy so'z yoki tushunchalar emas balki ongga ta'sir etish samaradorligi aniq hisobga olingan murakkab til konstruksiyalari sanaladi. Masalan, tildan salbiy assotsiyatsiyalarni uyg'otuvchi "urush", "tajavuzkorlik", "jonli kuchlarni yo'q qilishga qaratilgan qurollar" singari so'z va iboralar istisno qilanadi. Ayni salbiy harakterdagi so'z va iboralar o'rniga "ziddiyat", "operatsiya" va "qurilma" singari muayyan kayfiyat uyg'otish ehtimoli past bo'lgan tushunchalar qo'llaniladi.

Siyosiy yevfemizmlar muayyan atamalar yordamida hosil qilinadigan hodisaning asl mohiyatini yashirishga xizmat qiluvchi til ifodalari sanaladi. Aniq ma'noga ega bo'lgan mazkur atamalarning qo'llanilishi auditoriyani ularning tub mohiyatini biluvchi hamda bilmaydigan kishilardan iborat ikki guruxga ajralishiga olib keladi. Ammo ma'lum darajada ilmiy harakter kasb etganligi tufayli ushbu atamalar auditoriyani ongiga ta'sir ko'rsatishda yuksak samaradorlikni namoyon qiladi. Soddaroq qilib aytganda, ilmiy shaklda ifodalangan chiroyli atamalar kishilarda ular salbiy hodisalarni ifodalishi mumkin emas degan ta'asurot uyg'otadi.

So'zlar va atamalarning haqiqiy ma'nosini niqoblash maqsadida siyosiy yevfemizmlarning qo'llanilishi yaxlit texnologiya o'laroq jamoatchilik ongida turli inqirozlarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur texnologiyani Fukidid ta'biri bilan "til korrupsiyasi" deb atash mumkin. Afina tanuzzulining guvohi bo'lgan Fukidid korrupsiyani mazkur halokatning muhim belgisi sifatida ko'rsatgan. Fukidid korrupsiyaning mavjud turlari ichida eng xatarlisi sifatida "til korrupsiyasi"ga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra targ'ibotda qo'llanilayotgan so'zlar o'zlari doim anglatgan ma'nolariga zid keladigan xech qanday boshqa mazmun anglatmaydi. Turli pozitsiyadagi partiyalar targ'ibot-tashviqot jarayonida bir so'zni turli ma'nolarda qo'llaydilar. "Til korrupsiyasining" asosiy yo'nalishlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Ayni o'rinda soddalashtirish va stereotiplashtirish qo'llaniladi. Umumiy qoidaga ko'ra, xabar u yo'naltirilgan ijtimoiy qatlamning o'rtacha intellektuallik darajasi koeffitsiyentidan taxminan 10 barobar past bo'lgan koeffitsiyentga muofiq ravishda tushunarli bo'lishi lozim. Mazkur empirik qoida zamirida psixologik oqlash yotadi, unga ko'ra inson anglanmagan ravishda murakkab muammolarning oddiy talqiniga tushunib boradi. Soddalashtirish konsepsiyasi ilk bor XX-asrning 20-yillariga kelib U.Lippman tomonidan ilgari surila boshlandi. U idrok jarayonini noma'lum bo'lgan hodisalarni ma'lum va barqaror formulalarga (stereotiplarga) moslashtirish deb talqin qiladi. Shuning uchun matbuot xabar ob'yekti bo'lgan hodisalarni standartlashtirishi lozim. [4: 361]. Shu tariqa zamonaviy OAVlarda qo'llaniladigan reduksionizm metodi shakllandi, unga ko'ra real ijtimoiy muammolar va hodisalar imkon qadar tushunishga qulay hukmlar darajasida soddalashtirilishi lozim.

Soddalashtirish amalidan so'ng semantizatsiya operatsiyasi bajariladi. Unga ko'ra nisbatan soddaroq model qiyofasini kasb ettirishda talab qilinadigan so'zlar izlab topiladi. Bu esa o'z navbatida OAV sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan "har qanday xalqaro yangilik yoki murakkab siyosiy hodisani sodda shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi klishelar, epetitlar, lozunglar ko'rinishidagi qisqa ammo noaniq ifodalarni ishlab chiqilishiga olib keldi. Shu ma'noda tayyor xabarlarni ishlab chiqarishni ham injenerlik ishiga o'xshatish mumkin. Negaki mazkur jarayon ham muayyan texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ana shu tayyor texnolgiyalar vositasida standartlashgan xabarlar konveyerini yo'lga qo'yishni anglatadi.

Soddalashtirish texnologiyasi hodisaning auditoriya ongiga singdirish talab qilingan asosiy mohiyatini "qisqa, ammo chuqur ta'assurot qoldiradigan bayonotlar" ko'rinishida tasvirlash imkonini yuzaga keltiradi. "Har qanday nutqdagi bayonot muhokamalar doirasiga tushib qolish xavfidan saqlangan holda amalga oshiriladi, zero ko'p muhokama qilingan hukmron g'oya yoki inson haqidagi mulohazalarning chinligiga bo'lgan shabha ortib uning ta'sir kuchi pasayishiga sabab bo'ladi" deb ta'kidlaydi S.Moskovich [5: 203]. Bu esa auditoriyadan, olomondan xabarni muhokama qilmasdan "qarshilar" va "qo'llab quvvatlovchilarga" bo'linmasdan "o'ylab ko'rmasdan" u qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilinishi kerakligi talab qilinganligini anglatadi. [5: 241].

Plyuralistik madaniyatda shakllangan ommaviy odamning tafakkurlash tipiga tayanuvchi OAVning o'zi ham ayni tafakkurlash tipini mustahkamlovchi omil vazifasini bajardi. Shu tariqa OAVlar xabarlarning intellektuallik darajasini paysatirib kishilar ongini stereotiplar asosida fikrlashga o'rgatgan holda aholi dunyoqarashining saviyasini pasaytirish

vositasiga aylandilar. Bunda takrorlash kishilar ongiga zaruriy stereotiplarni singdirishning samarador usuli vazifasini bajardi. Ma'lumki takrorlash aqlni o'tmaslashtiruvchi hamda ongsizlik mexanizmlariga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi "psixologik uslub"lardan biri hisoblanadi. Mazkur usulning suv iste'mol qilinishi stereotiplarning qat'iy dogmalarga aylanib kishilar tafakkurining sayozlashuviga olib keladi. Ushbu usulga alohida diqqat qaratgan S.Moskovich: "Shu ma'noda takrorlash targ'ibotning ikkinchi sharti hisoblanadi...U bayonotlarga ko'shimcha ishonch ma'nosini yuklab ularni majburlab singdirilgan g'oyalarga aylantiradi. Biror-bir g'oyani turli vaziyat va xilma-xil ko'rinishlarda qayta-qayta tinglash oxir oqibatda ularga ergashishga olib keladi. Takrorlash har qanday yangicha qarashning shakllanishi uchun to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bunda muyayn g'oyalar, obrazlar va pozitsiyalarga muhokama qilib o'tirmasdan qayta-qayta murojaat qilish yangicha qarashning vujudga kelishi uchun to'siqni shakllantiradi. birorbir pozitsiyaning ko'p bora takrorlanishi unga guyoki aniqlik va konkrektlik xususiyatini baxsh etib, uning boshidan oxirgacha to'laligicha qabul qilinishiga olib keladi. Targ'ib qilinayotgan pozitsiyaga tarkibiga kiruvchi fikrlar, obrazlar tasavvurlar g'oyalarning mantiqiy izchilligi haqida gap ketganda unda qo'llanilgan terminlar ko'p bor takrorlash tufayli mantiqan isbotlanilgandek ta'asurot uyg'otadi..." [6: 242].

Bu jarayonda ilmiy bilim va sog'lom fikr hamda yangi tajriba va eski odatlarni o'zida uyg'unlashtira olgan nomlar ayni mantiqiylikni oshiruvchi samarador mexanizm vazifasini bajaradi. Zero, har qanday fanning kategoriyal asosini narsalar nomi, g'oyalar nomi va nomlar nomining murakkab tarmog'i tashkil etadi. Shu ma'noda u o'z-o'zidan tadrijiy taraqqiy etib o'z navbatida uning reallikdagi in'ikosi o'zgarib boradi. Nom bu simvol bo'lib, ongning asosida simvollar makonining murakkab iyerarxik tuzilmasi yotadi.

Garchi mantiq sohasiga dahldor bo'lsada, simvolik tafakkurlash kishilar ongini boshqarishning yangicha usul va texnologiyalarini ishlab chiqish uchun keng yo'l ochdi. Kassirerning ta'biri aytganda, "inson ongi soyalar teatri bo'lib, manipulyator uning eng mohir rejissyori hisoblanadi". [7: 4]. Shuning uchun ham, manipulyatsiya jarayoni mavjud simvollar makonidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda eski barqaror simvollarga yangi mazmun yuklab, ayni yangi mazmun orqali ularning kishilar ongiga kirib borishi ta'minlanadi. Bunday barqaror simvollarni ifoda etuvchi tushunchalar qatoriga "demokratiya", "o'nglar va so'llar", "monopoliya" kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, simvollar makoni ham qayta shakllantirilib ularning yangicha iyerarxik strukturasi hosil qilinadi.

Nutqiy harakatlarning o'ziga hos jihatlari boshqa turdagi harakatlar bilan qiyosan quyidagicha shakllantiriladi:

1) Nutqiy harakatlar hamisha kommunikativ xususiyat kasb etganligi tufayli har qanday holatda ham tushunarli va talqin etishga qulay bo'ladi;

2) Nutqiy harakatlar belgilar tizimi elementlari orqali amalga oshiriladi;

3) Nutqiy harakatlar boshqa harakatlar tipi bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi;

4) Nutqiy harakatlar kongnitiv funksiyani bajarib, uni rejalashtirish va amalga oshirish mobaynida muyayn tafakkurlash va baholash jarayoni vujudga keladi [8: 28].

Nutqiy harakatlar quyidagi komponentlardan tashkil topadi: ta'kidlash hodisaning o'zi muayyan maqsadni ifodalash akti, hamda fikrni ifodalash aktini amalga oshirish shartlari bu aktni amalga oshirishning natijasi hisoblanadi. Bularning barchasini bir so'z bilan sotsial ritorika deb atash mumkin. Mumtoz ritorikaning ob'yekti monologik nutq hisoblanadi. Unda yuksak vazifalarni hal qilish, aniqrog'i, boshqa odamning maslaklar tizimiga ta'sir o'tkazish bir maqsad atrofida soddalashtirilgan holda birlashtirilib hamda kommunikatsiyaning bir yo'nalishli xususiyati asosida amalga oshiriladi. Dialogda shuningdek, har qanday interaksiyada, kommunikativ imkoniyatlar simmetrik xususiyatga ega bo'lganligi tufayli ta'sir nisbatan murakkab, ko'p yo'nalishli qiyofa kasb etadi. Ayrim tadqiqotlarda monoloik nutq notiqlik nutqi deb ham ataladi. Arastu nutqni "notiqlik janrlari" sifatida tavsiflab uning uchta turini ajratib ko'rsatadi. Maqtashga va qoralashga asoslangan epidiktik va demonstrativ nutq;

u real voqelikka asoslanadi. Bu esa tabiiy ravishda uning faktlarga tayangan bo'lishligini talab qiladi; odatda u muassasalardagi tantanavor yig'ilishlarda amalga oshiriladi. Notiqning individ yoki jamoaga beradigan maslahati ko'rinishida namoyon bo'luvchi deliberativ nutq; shu ma'noda u kelajakka yo'natirilgan bo'ladi; zamonaviy notiqlik amaliyotida odatda mazkur nutq shakli ko'proq OAVlarda ko'zga tashlanadi. Himoya yoki ayblovga qaratilgan yuridik nutq; ayni nutq shakli esa o'tmishga qarab yo'nalgan bo'ladi; bunday nutqlar odatda sudlarda so'zlanadi.

Nutqiy ta'sir mexanizmlari qadimgi davrdan to bugungacha bo'lgan ko'plab tadqiqotlarda muhokama qilingan. Ularning har birida muyayn shaxs aks etib turadi.

Yuqorida ilgari surilgan mulohazalar tahlillarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki psixologik ta'sirning samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi: 1) biror-bir pozitsiyani singdirishga intiluvchi kishining xususiyatlari (sotsial statusi, jozibasi, irodaviy, intellektual va harakterga oid ustunliklari); 2) psixologik bosimni boshdan kechirayotgan kishining xususiyatlari (singdirilganlik darajasi); 3) pozitsiyani singdiruvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabat (avtoritarlik, qaramlik va ishonch); 4) xabarni hosil qilish yo'llari (dalillanish darajasi, emotsional va mantiqiy komponentlarning uyg'unlik tavsifi, boshqa ta'sirlar bilan mustahkamlanganlik).

Ommaviy siyosiy ongni manipulyatsiyalash jarayonida axboriy texnolgiyalar muxim o'rin tutadi. OAVlar zamonaviy axborotlashgan jamiyatda psixologik urush usullari va metodlarini samarador amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda inson axborot maydonida kun kechirmoqda. Shu nuqtai-nazardan inson dunyoning istalgan chekkasi haqidagi ma'lumotni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega. Ammo OAV taqdim etgan shakldagi informatsiyani iste'mol qilmoqda. Har qanday sohada faoliyat yurituvchi kishi o'zini OAV vositalarida yetarlicha namoyon qilolsagina omma e'tiboridagi kishiga aylana oladi. Reallikdan ajralgan simvollar olamida bo'lish, kishilarning o'z manfaatlariga qarshi chiqishlarini anglatadi. Reallik ikkinchi daraja kasb etib, bo'ysunuvchi rol bajarishi mumkin. Bu ma'noda insonni erkin deb bo'lmaydi. Ayniqsa, axboriy ta'sirning ko'plab usullari ishlab chiqilgan sharoitda inson erkinligi yanada cheklanadi. Bunday usullarni umumlashtirgan holda ifodalash uchun "miyani yuvish" (Brain washing) atamasi qo'llaniladi. Brain washing uslubi orqali kishilarni zombilashtirish, passiv, itoatkor shaxsiyatlarni shakllantirish, xalqni oson boshqariluvchi ommaga aylantirish mumkin. Bunday sharoitda inson huquq va manfaatlari, demokratiya, saylov erkinligi haqida gapirish absurd hisoblanadi. Shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy ahloqiy qadriyatlar butkul teskari talqin qilinib, qorani oq, yomonni yaxshi qilib ko'rsatiladi.

Shunday qilib ommaviy kommunikatsiya vositalari "omma" kishisini yuzaga keltiradi. Ayni paytda kishilarni bir-birlaridan ajratgan holda kishilar o'rtasidagi bevosita an'anaviy aloqalarni uzib qo'yib, mazkur aloqalarni televideniya va internet singari vositalar bilan almashtiradilar. "Omma" kishisi impulsiv, tez o'zgaruvchan xususiyat kasb etib, faqatgina qisqa muddatli harakat dasturlariga moslashgan bo'ladi. Ko'pincha bu turdagi odam real voqelikdan ko'ra uning illyuziyatsini afzal biladi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy axborotlashgan jamiyat o'zida ijtimoiy tuzilma va hokimiyatning alohida tipini namoyon qiladi.

Omma kishisi o'rta saviyadagi, sodda, manipulyatsiyaga ta'sirchan ob'yektga aylantiriladi. Garchi omma kishisining ongi birmuncha tuzilmaga ega bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan ongga OAVlar tomonidan ko'p marta taqdim etilgan tayyor mulohazalar kiritilib, ular ommaning hulq-atvori, baholari hamda reaksiyalarini tartibga soluvchi, belgilab beruvchi, cheklanishlar bilan boyitilgan, kishini boshqarishga mo'ljallangan ko'rinmas tuzilmani shakllantiradi.

Axboriy blokada samarador informatsion texnologiyalardan biri hisoblanadi. Informatsion blokada o'z navbatida axboriy ustunlik bilan doimiy aloqadorlik kasb etadi. Ulardan jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashda xarbiy mojarolar paytida ham, barqaror davrlarda ham birdek unumli foydalaniladi. Muayyan masala bo'yicha keyinchalik go'yoki

muhim, zaruriy axborotni tarqatish uchun axboriy vakuum hosil qilinadi. Masalan, hukumat tuzilmalari biror-bir axborotni keyinchalik muqobil variantlarsiz yagona haqiqat sifatida tarqatish uchun bloklaydilar. Natijada, aholi orasida mazkur axborotga nisbatan qiziqish kuchayadi. Bu esa ularni kengroq makonda tezroq tarqatish imkonini shakllantiradi. Yuzaga kelgan vaziyat esa sodir bo'layotgan hodisalarni manipulyator maqsadiga muvofiq bir hil talqin qilish hamda kishilarni zombiga aylantirish imkonini ta'minlaydi. Bu holatda masala yuzasidan OAVlar shakllantirgan pozitsiyani o'zgartirish imkonsiz bo'lganligi tufayli, o'zgacha nuqtai-nazarlar ommagacha yetib bormaydi.

G.Pochepsov axborot makonini bloklangan tarzda nazorat qilishni quyidagicha tasniflaydi:

1) Verbal beglilarni nazorat qilish. Tarkibi salbiy harakterdagi so'zlardan tozalangan ifodalar buning yaqqol misoli bo'lib xizmat qiladi.

2) Ekranda salbiy kayfiyatni uyg'otishga xizmat qiluvchi vizual suratlardan foydalanishni nazorat qilish.

3) Bir talqinlilikning nazorati. Voqeani bayon qilishda va uni talqin qilish uchun yagona asosning shakllantirilganligida o'z ifodasini topadi [9: 91].

Shuningdek, sharhlash ham jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashda qo'llaniladigan axboriy texnologiyalarning kuchli ta'sirga ega usullaridan biri hisoblanadi. Bunda jamoatchilik ongini manipulyator maqsadlariga muvofiq tarzda yo'naltirish nazarda tutiladi. Voqea haqidagi faktlar sharhlovchining talqinlari bilan birgalikda taqdim etiladi. Bunda mazkur hodisani tushunishning bir necha ratsional va sodda variantlari taklif qilinadi. Mazkur variantlarning haqiqatga yaqin ko'rinish kasb etishi sharhlovchining mahoratiga bog'liq.

Jamoatchilik ongini manipulyatsiyalash jarayonila keng qo'llaniladigan axboriy texnologiyalar usullarining yana biri sifatida faktlar konstatatsiyasini ko'rsatish mumkin. Bunday xabarlarni nufuzini oshirishda mashhur jurnalistlar, jamoat, siyosat va fan arboblari kabi jamiyatda muyayn mavqega ega "etakchi shaxs"larning qarashlaridan keng foydalaniladi. Nufuzli kishilar fikrlariga qarshi chiqish, murakkab psixologik holat hisoblanadi. Bu o'z navbatida jasorat va iroda erkinligini talab qiladi. Bunda turli resurslarga ega bo'lgan manipulyatorlar jamiyatning turli qatlamlari uchun nufuzga ega bo'lgan shou-biznes vakillari, hurmatli akademiklar, o'z fikrida sobit turadigan huquq himoyachilari, blogerlar, jurnalistlar, ishbilarmonlar singarilardan keng foydalanadilar.

Ba'zan esa aksincha avval keng jamoatchilik diqqatini tortgan siyosiy aksiyalardan chalg'itish maqsadida ham qa'tiy dasturlar qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1. Американская социологическая мысль. М., 1994.
2. Гринберг Т.Э. Политическая реклама: портрет лидера. М., 1995.
3. Дридзе Т.Н. Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации. М., 1980.
4. Кассирер Э. Техника современных политических мифов // Вестник МГУ. Философия. 1990, № 2.
5. Кочергин А.Н. Коган В.З. Проблемы информационного воздействия в обществе. М., 1980.
6. Московичи С. Век толп - М., 1996.
7. Назаретян А.П. Психология массового стихийного поведения//Мир психологии. 1998, №1.
8. Назаров М.М. Массовая коммуникация в современном мире: методология анализа и практика исследований. М., УРСС, 1999.
9. Почепцов Г.Г. Коммуникативные технологии двадцатого века. М. 2000**.**

UDK:111.1

DEMOKRATLASHTIRISH VA MA‘NAVIYATNI TADQIQ QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

N.Sh.Yunusova, O‘.K.Erniyozov
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya. Maqolada ma‘naviyat, ma‘naviy madaniyat tushunchasi va mohiyati, genezisi, manaviy madaniyat shakllari, tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro aloqadorligi tahlil etildi. Shuningdek, tarixiy xotira, milliy-ma‘naviyatning qayta tiklanishi milliy o‘zlikni anglash jarayoni dialektik uyg‘unlikda kechishi o‘rganilgan. Respublikamizda ma‘naviyatga, ma‘naviy madaniyatning shaxs va jamiyat hayotiga ta’siri, u haqdagi qarashlar va munosabatlar tubdan o‘zgarganligi, shu sababli bu o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini keng va chuqurroq ilmiy tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlik, ma‘naviyat, milliy taraqqiyot, ma‘naviy madaniyat, ijtimoiy voqelik, madaniy jamiyat.

Теоретические основы исследования демократизации и духовности

Аннотация. В статье анализируется духовность, понятие и сущность духовной культуры, ее генезис, формы, компоненты духовной культуры и их взаимосвязь. Также изучается, что процесс возрождения национальной памяти, национальной духовности и понимания национальной идентичности происходит в диалектической гармонии. В нашей стране влияние духовности, духовной культуры на жизнь личности и общества, взгляды и отношение к ней кардинально изменились, поэтому сущность этих изменений была широко и глубоко изучена.

Ключевые слова: национальная идентичность, духовность, национальное развитие, духовная культура, общественное событие, культурное общество.

Theoretical fundamentals of democracy and spirituality

Abstract. Spirituality, the concept and essence of spiritual culture, its genesis, forms, components of spiritual culture and their interrelation were analyzed in that article. The process of historical memory, the revival of national-spirituality, the process of understanding national identity takes place in a dialectical harmony was also studied. In our country, the impact of spirituality, spiritual culture on the life of the individual and society, the views and attitudes about it have changed radically, so the essence of these changes has been extensively and deeply studied.

Keywords: national identity, spirituality, national development, spiritual culture, social event, cultural society.

Kirish. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash yo‘lida kuchli turtki bo‘ldi, milliy-madaniy uyg‘onishga cheksiz imkoniyatlar ochildi, tadqiqotchilar tomonidan tarixiy-madaniy merosga obyektiv va xolisona baho berish imkoniyati yaratildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi[1].

Darhaqiqat mustaqillikka erishgach istiqlol yillarida tarixiy xotira, milliy-ma‘naviyatning qayta tiklanishi milliy o‘zlikni anglash jarayoni dialektik uyg‘unlikda kechdi. Bu jarayon mamlakatimizda etno-milliy o‘ziga xoslikni asrab-avaylash muammosini kun tartibiga qo‘ydi. Undan tashqari:

Bugungi davrda etnoslarning ijtimoiy-barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi ma‘naviy omillarni chuqur tatbiq etish masalasi dolzarbdir.

Birinchidan, mustaqillik yillarida ma‘naviyatga, ma‘naviy madaniyatning shaxs va jamiyat hayotiga ta’siri, u haqdagi qarashlar va munosabatlar tubdan o‘zgardi. Shuning uchun ham bu tub o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini, keng va chuqurroq ilmiy tadqiq qilish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, hozirgi davr ma‘naviyati o‘zining funksiyalari orqali milliy taraqqiyotga keng qamrovli ta’sir qilmoqda. Bu esa, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlarni konkret makon va tarixiy zamon xususiyatlari bilan chambarchas bog‘lab o‘rganish zarurligini tug‘dirmoqda.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida barpo etilayotgan jamiyatni ma‘naviyatini va ma‘rifatini rivojlantirishga alohida e‘tibor berish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Shu ma’noda demokratik islohotlar jarayonida ma‘naviy madaniyatni tubdan isloh qilish va rivojlantirish konsepsion maqsad qilib qo‘yildi. Bu esa, yuksak ma‘naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlod tarbiyasi bilan bevosita ham bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri moddiy va ma‘naviy hayot uyg‘unligi hisoblanadi. Madaniyat esa ayni shu uyg‘unlikni ta‘minlovchi omildir. Shuning uchun madaniyatning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va rolini tadqiq qilish alohida ahamiyatga molikdir.

Beshinchidan, jamiyatimiz taraqqiyoti milliy va umuminsoniy ma‘naviy madaniyatlar uyg‘unligi tamoyiliga asoslangan. Shuning uchun bu masala ham mavzuni tadqiq etish dolzarbligini yaqqol namoyon qiladi, deb hisoblash mumkin.

Tadqiqotning maqsadi

Demokratlashtirish va ma‘naviyatni tadqiq qilishning nazariy asoslarini ko‘rsatish va uning funksiyalarini tadqiq va tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usuli va obyekti

Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o‘rganish, kuzatuv, hujjatlarni o‘rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida demokratlashtirish va ma‘naviyatni o‘rganish masalalarini tadqiq etishga e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

O‘zbekistonda kechayotgan jarayonlarni hisobga olgan holda, maqolada ma‘naviyat, ma‘naviy madaniyat tushunchasi va mohiyati, genezisi, manaviy madaniyat shakllari, tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro aloqadorligi o‘rganishga harakat qilindi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti iborasi bilan aytganda, “Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda[1].

Mustaqillik ma‘naviyat, ma‘naviy madaniyat tizimiga yangi paradigma (namuna, o‘rnak) va unga ijtimoiy voqelik sifatida qarash, ma‘naviy madaniyat “arxitektonikasi”ning madaniyat bilan aloqalari, ichki tarkibiy qismlari, ijtimoiy funksiyalari, milliy va umuminsoniy jihatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma‘naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo‘yildi. Kengashning hududiy bo‘limlariga mas’ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o‘zgarish ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o‘ringa ko‘tardi.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 19 yanvar kuni ma‘naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish

masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyatidir.

“Ma‘naviyat” atamasi arabcha “ma‘ni” so‘zidan olingan. Ma‘naviy so‘zi ma’niga aloqadorlikni bildirsa, “ma‘naviyat” atamasining negizida “ma’no” so‘zi yotar ekan, uning mazmuni, ko‘lami, tarkibini aniqlab olish “ma‘naviyat” atamasini to‘laroq anglashga yordam beradi. “Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni”[2] inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlariga tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma‘naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o‘zbek madaniyati) shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (masalan, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma‘noda madaniyat atamasi kishilarning faqat ma‘naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. “Madaniyat” arabcha madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiy turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik – ko‘chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik – shaharda o‘troq holda yashab, o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan[3].

Ma‘naviy madaniyat ikki ijtimoiy tizim–ma‘naviyat va madaniyatning birikuvidan hosil bo‘luvchi hodisadir. U jamiyat ijtimoiy tizimining bir qismi bo‘lib, ma‘naviy madaniyatning o‘zagini avvalo inson, jamiyat, davlat va nodavlat subyektlari tashkil qiladi.

Jamiyatining umumiy ma‘naviy-axloqiy holatini talqin etgan taniqli rus tadqiqotchisi A.A.Guseynov fikricha, “Insonlarning muvafaqqiyat va farovonlikka intilishi ularni bir-biriga nisbatan bo‘lgan axloqiy mas’uliyatdan xatarli tarzda ajratadi (begonalashtiradi). Hozirda inson shunday vaziyatga tushib qolganki, ezgulik yoki baxtni o‘ziga xos bo‘lmagan, g‘ayri tabiiy ravishda tanlashga majbur”[4].

Yevropada “madaniyat” deyilganda dastlab insonning tabiatga ko‘rsatadigan maqsadga muvofiq ta‘siri, shuningdek, insonga ta’lim-tarbiya berish tushunilgan. AQSH tilshunosi R.Uilyams «kultura» so‘zining etimologik ma’nosini va genezisini o‘rganib, u lotincha «colere» so‘zidan yasalgan «cultura» atamasidan kelib chiqqan degan xulosaga keladi [5]. «Colere» co‘zidan «solonus» - koloniya, «cultus» - «kult» atamalar yasalgan. «Sultura» esa avval “yerni ishlash”, «qayta ishlash», «parvarishlash», (masalan, «agrokultura»), keyin XVIII asrga kelib, ingliz va fransuz tillariga o‘tib, «qurol», «vosita», «tarbiya», «ma‘rifat» ma’nolarida ishlatilgan. Rossiyada esa, u XIX asrning 60-yillarida mustaqil tushuncha sifatida shakllana boshlaydi [6]. Shuning uchun G‘arb va rus madaniyatshunosligida «kultura»ni ilmiy tushuncha sifatida qarash XVIII asrdan boshlandi degan fikr qaror topgan.

Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos, masalan, qadimgi Xitoyda jen, Hindistonda dxarma. Ellinlar “madaniyatsiz” varvarlardan o‘zlarining asosiy farqini “paydey”, ya’ni “tarbiyalanganlik”da deb bilganlar. Qadimgi Rimning so‘nggi davrlarida madaniyat tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o‘rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik yuzaga kelgan sivilizasiya tushunchasiga yaqin turadi.

«Madaniyat» so‘zining etimologiyasi ham, genezisi ham, «kultura» so‘zidan farq qiladi. Shuning uchun ayrim tadqiqotchilar, masalan, V.Alimasov, «madaniyat», «kultura» aynan tushunchalar emas, «madaniyat» so‘zi arablar orqali kirib kelgan, uning etimologik

ma‘nosi esa, musulmonlar sig‘inadigan shahar «Madina nomidan kelib chiqqan» deb hisoblaydi.

O‘rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri haqida risola», «Shaharlar ustidan siyosat yuritish kitobi, «Xalq va shaharlarni boshqarish huquqi haqida so‘z», «Shahar yig‘inlari haqida kitob» kabi asarlarida madaniyat atamasini «shahar», «boshqarish», «fozillik», «aqllilik», «kamolot», «mukammallik», «bilimlilik», «baxt-saodat» ma’nolarida ishlatganini ko‘ramiz. Umuman, Forobiy X asrdayoq «madaniyat» kategoriyasini falsafada keng qo‘llab, uning mohiyatida ijobiy fazilatlar, progressiv «quvvatlar» yotishini asoslab bergan. U «madaniy jamiyat», «madaniy shahar», «madaniy kishi» tushunchalarini ana shu ma’noda talqin qiladi[7]. Forobiy fikricha, har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi”, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta’kidlashicha, “madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb- hunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod yashaydilar”. Alisher Navoiy yetuk axloq, ma‘rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma‘naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb insonparvarlik g‘oyalariga muvofiqlikni tushundi. Shu boisdan ham birinchi Prezidentimiz bu ulug‘ zot haqida shunday degan edi: “O‘zbek xalqi ma‘naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz”[2]. Demak, G‘arbona «kultura» bilan Sharqona «madaniyat» kategoriyalari o‘rtasida nafaqat etimologik, shu bilan birga ularning genezisi, falsafada ilmiy tushuncha sifatida qo‘llanilishida ham farqlar mavjud. Agar G‘arbda XVIII asrdan boshlab «kultura» ma‘rifat, tarbiya, ijod ma‘nosida ishlatilgan bo‘lsa, Sharqda, xususan, o‘lkamizda, «madaniyat» X asrdayoq ilmiy iste’molda bo‘lgan. Agar «kultura» XVIII asrgacha «yer haydash, qayta ishlash», «agrokultura» ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, bizda madaniyat «shahar», «shaharliklar xislati», «jamiyatni boshqarishi», «ma‘rifat», «ruhiy quvvatlar», «ma‘naviy - ruhiy fazilatlar» sifatida qaralgan.

Madaniyatda belgilar muhim rol o‘ynaydi. “Madaniyatning belgili tizimi ijtimoiy, etnik, mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, davlat turdagi belgilarni o‘z ichiga oladi, ijtimoiy-madaniy makonda inson tomonidan o‘zligini namoyon etish shakllari esa ularni ajratish belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan belgilar turlari o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta‘sirda bo‘lib, madaniyatda bilish, moslashish-tartibga solish, identifikatsion-integrativ hamda ijtimoiylashtirish vazifalarini bajaradi”.

G‘arb Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asr oxiridan boshlab alohida ijtimoiy voqelikda hozirgi mazmunini kasb etgan bo‘lsada, u faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategoril tizimidan mustahkam o‘rin oldi. Kishilik jamiyatining keng ko‘lamli va doimiy ravishda o‘zgarib boruvchi, umumlashtiruvchi tushunchalarga bo‘lgan ehtiyoji madaniyatshunoslik fanining yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Har qanday sivilizasiyaning, shu jumladan Markaziy Osiyo sivilizasiyasining, o‘ziga xosligi avvalo uning ma‘naviy muhiti, tafakkuri, hissiyotining tuzilishi va faoliyat ko‘rsatuvchi individlarning haqiqiy xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatadi. Sivilizasiyalar bizga bir dunyo odatlar, cheklovlar, ijobiy baho berishlar, mulohazalarni namoyish etadi, bu mavjud narsalar har birimizga shaxsiy va o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lgandek tuyuladi, aslida esa ular hayotimizga uzoq o‘tmishdan kirib kelgan. Ular xuddi biz foydalanayotgan til singari merosdir.

XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan demokratik-ma‘rifat-parvarlik harakatining namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Avaz O‘tar, Komil Xorazmiy va boshqalar xalqni madaniyatli qilishning omili ilm-ma‘rifatni egallashda deb

bildilar. Ular o‘rta asr jaholatiga qarshi xalq o‘rtasida ilm – maorif va madaniyatni zo‘r ehtiros bilan targ‘ib qildilar. Masalan, Furqat fikricha, ilm-fan bir mash’al bo‘lib, insoniyatning baxt-saodat yo‘lini yoritib turishi kerak. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy va boshqalar o‘zlarining ma‘rifatparvarlik ishlari bilan madaniyat rivojiga muhim hissa qo‘shdilar. Ular turli gazeta va jurnallar chiqardilar, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochdilar, o‘tmish madaniyatimizni, tariximizni targ‘ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egallashga da‘vat etdilar. Ma‘rifatparvarlikning keng quloch yoyishi samarasi o‘laroq, xalqning umummadaniyati yuksala bordi.

Xulosa

Har bir inson, millat, jamiyat yoki davlat hayoti va taraqqiyotida ma‘naviyat g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Ma‘naviyatsiz, ma‘naviy madaniyatsiz jamiyat ijtimoiy hayotini rivojlantirib bo‘lmaydi.

Demak, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘lganidek, ma‘naviyat sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham ma‘naviyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishiga o‘tish milliy ma‘naviy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun‘iy tarzda “yagona umummadaniyat”ga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo‘lgan so‘nggi 70 yil davomida ma‘naviy madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G‘arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy ma‘naviyatning boy o‘tmishi bir yoqlama o‘rganilib, uning ko‘pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo‘lib keldi. Mamlakatimiz mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ma‘naviyatni yuksaltirishga ham alohida e‘tibor berilmoqda. “Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma‘naviyati bilan kuchlidir”. Ma‘naviyat, madaniyat ko‘pdan beri tadqiqotchilar e‘tiborini tortib, hozirgacha turli muqobil ilmiy-nazariy konsepsiyalar vujudga kelgan. Biroq, ma‘naviyatning davr ehtiyojlariga muvofiq konkret rivojlanish xususiyatlari – uni jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar nuqtai nazaridan baholab, o‘rganib, tadqiq etib borishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi” xaqidagi farmoyishi. -T.: Xalq so‘zi gazetasi, 8 – fevral soni.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
3. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
4. Гусейнов А.А. Великие моралисты.- Москва: Республика, 1995.
5. Williams R. Keywords A. Vocabulary of culture and society.-New York Oxford University Press, 1976.
6. Ионин Л.Г. Социология культуры. – Москва: Логос ,1998.
7. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr., 1993.
8. Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent: Yozuvchi, 2002.

UDK 294.3

MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIY HAYOTIDA BUDDAVIYLIK DININING QOLDIRGAN IZLARI

A.E.Amonov
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Buddaviylik dininig vujudga kelishi, jahon hamda Markaziy Osiyo madaniyatida tutgan o’rni batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari Buddaviylik dinining Markaziy Osiyo shu nuqtayi nazardan Kushon imperiyasi davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotida tutgan o’rni hamda bu dinning yoyilishida xizmat qilgan Buyuk Ipak yo’lining ahamiyati haqida tarixiy manbalar asosida yoritilib berilgan. Buddaviylik dinining asosiy markazlari hamda yodgorliklari ham sinchiklab o’rganilgan.

Kalit so'zlar: Buddizm, Kudzula Kadfiz, Baqtriya yozuvi, Qadimiy Termiz, Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom, Kushonlar davri arxitekturasi.

След буддизма в культурной жизни народов Центральной Азии

Аннотация. В этой научной статье подробно рассказывается об истоках буддизма и его роли в мировой и центральноазиатской культуре. Кроме того, в исторических источниках освещается роль буддизма в социально-экономической, политической и культурной жизни Центральной Азии во времена Кушанской империи и значение Великого шелкового пути в распространении этой религии. Также были тщательно изучены основные центры и памятники буддизма.

Ключевые слова: буддизм, Кудзула Кадфиз, бактрийская надпись, Древний Термез, Коратепа, Файозтепа, Айритом, архитектура кушанского периода.

Trace of buddhism in the cultural life of the peoples of Central Asia

Abstract. This article details the origins of Buddhism and its role in world and Central Asian culture. In addition, the role of Buddhism in the socio-economic, political and cultural life of Central Asia during the Kushan Empire and the importance of the Great Silk Road in the spread of this religion are covered in historical sources. The main centers and monuments of Buddhism have also been studied.

Keywords: Buddhism, Kudzula Kadfiz, Bactrian inscription, Ancient Termez, Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom, Kushan period architecture.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o`rin egallagan. O’lkamiz xalqlarining Xindiston bilan Kushon davlati va Eftalit davrida yaxshi yo’lga qo’yilgan savdo-iqtisodiy munosabatlari tufayli hind madaniyati unsurlari bilan Budda dini kirib kelgan. Buddizm Hindistondan markaziy Osiyoga, undan esa buyuk ipak yo’li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan. Budda dinining qadimdan keng hududlarga tarqalganligini Beruniy ham o’z asarlarida eslatib o’tgan: “Budda e’tiqodi janubga tomon Suriya hududigacha tarqalgan edi, so’ng mazdaizm siquvi ostida budparastlar Eron va Iroqdan Balxning janubidagi mamlakatlarga ko’chib o’tganlar”.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, baqtriyaliklar san’atga o‘z madaniy an’analarini olib kirdilar. Buddizmda Budda ta’limoti va hayotining botiniy mohiyatini ifodalovchi ramz - timsollarning butun boshli bir tizimi shakllantirilgan. Ko‘proq tarqalgani Budda va

uning ta’limotini anglatuvchi g‘ildirak yoki yarqirab turuvchi aylana tasviridir. Buddaning hayotiy aylanishlari bosqichlarini ifodalovchi ho‘kiz, sher, fil, ot ramzlari keng tarqalgan.

Shuningdek Budda tagida o‘zining ilk va’zlarini aytgan muqaddas Bodi daraxti tasviri ham buddizmning badiiy-diniy ramzi hisoblanadi. Arxitektura majmui buddizmda qat'iy qonunlar asosida amalga oshirilgan va bo‘rttirib ishlangan rasmlar, haykallar va tasvirlar joyi va xarakterini belgilagan. Buddizm sharqiy Eron va Movarounnahrda qaror topib, Balx hamda Buxorodek azim shaharlargacha yetib kelgan. Yorkent, Xo’tan, Qashg’ar, Toshkent, Turfon, Kuchi va Qorashaharda Budda ibodatxonalari qad ko’targan.

Mamlakatimiz davlatchiligi va madaniyati taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan sulolalardan biri Kushonlar sulolasi hisoblanadi. Kushonlar yangi era boshlarida Markaziy Osiyodagi va unga chegaradosh bo‘lgan barcha hududlardagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni birlashtira olgan va hukmronlikni boshlab bergan suloladir[1]. Aynan buddaviylikning Markaziy Osiyoga tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan grek-baqtriya podshohligining o`rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to`g`ri keladi.

Kushon podsholigi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk Ipak yo`li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyingi O`n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma`lumotlarni umumlashtirgan holda taxmin qilish mumkinki, islomgacha bo`lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g`oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalargagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag`al dehqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar qurganlar.

Kushonlar Sharqning minglab yillar davomida shakllanib kelgan an’anaviy va ellinlashgan madaniyatlari hamda Osiyoning keng dashtlarida shakllangan ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi xalqlar madaniyatlarini bir-birlari bilan sintezlashtira (uyg‘unlashtira) olgan sulola hisoblanadi.

Kushonlar taxt tepasiga kelgach, asosiy e’tiborni iqtisodiy hayotni mustahkamlashga, ya’ni, birinchidan, dehqonchilik madaniyatini yuksakka ko‘tarish uchun sun’iy sug‘orish shahobchalarini ko‘paytirishga, ikkinchidan, o‘sha davrning eng kuchli davlatlari bo‘lgan Rim, Parfiya va Xitoy bilan savdo- sotiqni rivojiantirishga, uchinchidan, tarqoq hududlami birlashtirish maqsadida pul islohotini amalga oshirishga qaratadilar. Natijada dehqonchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi.

Kushon hukmdori Kudzula Kadfiz oltin va misdan zarb qilingan tangalami muomalaga chiqaradi. Oltin tangalarning qiymati uning og‘irligiga qarab belgilangan. Ko‘shk dinor, dinor, yarim va chorak dinorlar muomalaga kiritilgan. Bir dinor 8 gramm oltinga teng bo‘lgan[2] .

Kushonlar saltanati tarixidagi oltin davr, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy- madaniy taraqqiyotda eng yuqori darajaga erishilgan davr Kanishka davri hisoblanadi. Kanishka saltanatda hukmronlik qilgan yunon va hind tillari o‘miga Kushon-Baqtriya tilini joriy qiladi. Tangalarga Baqtriya yozuvi zaib qilinadi. U muomalaga chiqargan tangalarga hindlarning xudosi Shiva tasvirini tushirtirib, unga o‘z nomidan «Shohlaming shohi - ulug‘ xaloskor»

yozuvini zabt ettiradi. Kanishka Buddaviylikni davlat dini deb e’lon qiladi. Davlatning diniy mafkurasi sifatida budda dinidan foydalangan bo‘lsa-da, boshqa diniy jamoalaming faoliyati uchun ham erkinliklar beradi.

Muomalaga chiqarilgan tangalarga hind, zardusht va yunon xudolarining nomi va tasvirining tushirilganligi ham diniy e’tiqodda tenglikka e’tibor berganligini anglatadi. Natijada Kushonlar saltanati sarhadlarida buddaviylik, zardushtiylik, jaynizm, manixeiylik va yunon xudolariga birdek sig‘inilgan. U mamlakatda budda diniga atab e’tiqod markazlari — budda ruhi saqlanadigan stupalar va ulaming yonida ibodatxonalar qurishga alohida e’tibor beradi. Buddaviylik biz yashayotgan hududlarda keng tarqalgan, hatto qadim ajdodlarimizning asosiy diniy e’tiqodiga aylangan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida markaziy budda ibodatxonalari mavjud bo‘lgan . Bu ibodatxonalarda o‘z davrining mashhur buddaviy kohinlari faoliyat ko‘rsatganlar. Vaqti-vaqti bilan bu ibodatxonalarda buddaviy kohinlarning yig‘ilishlari bo‘lib turgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra eski Termizdagi budda ibodatxonasi kohinlari Hindiston kohinlari bilan bemalol raqobatlasha olganlar. Termizlik ikkinchi bir buddaviy kohin — Gxoshaka Kanishka tomonidan Peshovarda chaqirilgan buddaviylarning IV umumbuddaviylar yig'inida qatnashgan. Hattoki Baqtriyada keng tarqalgan buddaviylikning - Vaybxashika yo‘nalishining kelib chiqishi va tarqalishini ham Gxoshaka nomi bilan bog‘laydilar.

Kushonlar imperiyasi davrida saltanatda har xil dinlarga e’tiqod qilingan, masalan, qadimgi Baqtriyada buddaviylikka e’tiqod qilish keng tarqalgan bo‘lsa, Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlari hududida zardushtiylikka e ’tiqod qilish kuchliroq bo‘lgan. Hozirgi Surxondaryo hududidagi Fayoztepa va Qoratepadagi ibodatxonalar ko‘rinishi bilan Hindistondagi budda ibodatxonalaridan ajralib turadi. Budda haykali ham Hindistonda keng tarqalgan budda haykallaridan farq qiladi.

Ma’lumki, buddaning uchta o‘ziga xos farqlanuvchi tomonlari — peshanasida dog‘, boshining o‘rtasida do‘nglik va qulog‘ining solinchagi uzun bo‘lishi bilan farqlangan. Qoratepa va Fayoztepadan topilgan budda haykallarida bunday o‘ziga xosliklar bilan birga budda boshi atrofi yog’du - nur yoki alanga bilan o‘ralgan. Ikkala manzilgohdan topilgan Budda haykallari esa ko‘proq Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi buddaviylarning ibodatxonalari va suratlariga o‘xshab ketadi. Lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa buddaviylik birmuncha keyin tarqalgan. Demak, bundan buddaviylik Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa O‘rta Osiyo orqali tarqalgan, degan xulosaga kelish mumkin [3].

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan kohinlar buddaviylik ta’limotlarining dastlab Xitoyda, so‘ngra Koreya orqali Yaponiyada keng tarqalishida muhim rol o‘ynaganlar. Ular buddaviylik ta’limotiga oid manbalarni Xitoy tiliga tarjima qilishib, diniy maktablami tashkil etishda ishtirok etganlar.

Turli davrlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Kushonlar sulolasi davrida madaniy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar xarobalari topilgan. Birgina qadimgi Baqtriya hududidagi Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qadimiy Termiz, Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom, Bagram, Surxko‘tal va Dilbarjin (hozirgi Afg‘oniston)da olib borilgan qazishmalar Kushonlar davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayoti haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kushonlar saltanati davrida me’morchilik ham rivoj topgan. Mustahkam istehkomlar bilan o‘rab olingan shaharlar qad ko‘targan. Shahar ichidagi saroylar, qasrlar va arkalaming ichki bezagi va tashqi ko‘rinishiga alohida e’tibor berilgan. Me’morchilikda monumental haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy bezak san’atlari uyg'unlashtirilgan. Binoning tashqi bezagida piramonlardan keng ko’lamda foydalanilgan bo‘lsa, ichki bezakda amaliy va tasviriy san’at hamda haykaltaroshlikdan foydalanilgan. Bunga misol tariqasida qadimgi Ayritomdagi ibodatxona peshtoqini bezab turgan sozandalar haykalini olib ko‘rish mumkin. Mazkur frizlarda tasvirlangan sozandalar budda dini bilan bog'liq bo‘lgan hind afsonalaridagi beshta «Muqaddas tovush taratuvchi» sozandalar tasviri bo‘lishi ham mumkin. Rivoyatlarga ko‘ra, Buddaning beshta sozanda hamrohi bo‘lib, ular chiltor, tor, nog‘ora, ud va hind nog‘orasini chalishib Buddaga lazzat bag‘ishlab yurganlar. Sozandalarning yuz tuzilishi, kiyimi va bezaklariga qarab, ularning baqtriyaliklar ekanligini bilish mumkin [4].

Qadimgi Xolchayondagi shahzoda saroyining ichki bezagi me’morchilikda tasviriy san’atdan foydalanish qay darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi. Saroydagi qabulxona devoriga tushirilgan suratlar diqqatga sazovor bo‘lib, suratda shoh, malika va saroy ahllari tasvirlangan. Shoh o‘tiradigan sahnaning chap tomoniga otlarini yeldek uchirib borayotgan kamonli otliqlar tasviri tushirilgan. Devorlarning yuqori qismida ikki metr balandlikkacha haykallar joylashgan. Saroy devorlarini bezab turgan haykallar va suratlarda tantanavor ruhdagi qabul marosimi va jang manzarasi tasvirlangan. Bu davr haykaltaroshligi, tasviriy va amaliy bezak san’atlarida, umuman, Kushonlar davri madaniyatida mahalliy xalqlar, ellinlar va ko‘chmanchi yuechji qabilalari madaniyati sintezlashib kelgan [5].

Kanishka davriga kelib tasviriy va amaliy bezak san’atlarida ellinizm an’analari o‘rnini budda dini bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular egallay borgan. Buning asosiy sabablaridan biri Kanishkaning buddaviylikni davlat dini deb e’lon qilishi bo‘lsa, ikkinchidan, Hindistonning Kushonlarning taxminan 400 yillik hukmronligi ostida bo‘lganligidir. Buning natijasida ilgari faqat savdo-sotiq orqali mavjud bo‘lgan madaniy aloqalar kushonlar davrida yaxlit jarayonga aylangan. Ko'hna Termiz va Ayritom xarobalarida sopol va toshga bitilgan sanskrit, kharoshti hamda Kushon - Baqtriya yozuvlari namunalari topilgan.

Buddaviylik bilan bog`liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o`rin tutadi. Buddaviylik bilan bog`liq imoratlar, qurilishlar hozirda ham Shimoliy Qirg`iziston, O`zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va Qozog`iston janubida ma`lumdir. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g`or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo`lib, unga qumtoshli g`or binolar o`yib solingan; yer ustida binolar barpo etilgan; bularning hammasi bir butun uyg`un bo`lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi [6].

Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg`a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o`rganishlar Qoratepaning milodning I asr oxiri va II asri boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar bosqinchiligidan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

Qadimda din har qanday jamiyatning davlat mafkurasi vazifasini bajargan. Aholiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish ko‘pincha san’at asarlari orqali amalga oshirilgan. Buddaviy

kohinlarning ham diniy ta’sir ko‘rsatishning bu yo‘lini tanlashi tabiiy. Buddaviylikning asosiy ta’limoti san’at asarlariga singdirilgan. Ibodatxonalar budda va bodxisatvalar haykallari bilan bezatilgan. Ibodatxona devorlariga ularning hayotini aks ettiruvchi suratlar chizilgan. Amaliy bezak san’atida ham diniy mavzuga e’tibor berilgan [7].

Xullas, Kushonlar davri arxitekturasi, tasviriy san’ati va haykaltaroshligining taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ibodatxonalar Dalvarzintepa, Zartepa, Dilbarjin va boshqa qadimgi shaharlarning xarobalari o‘rnidan ham topilgan.

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida buddizmga oid ko‘p sonli tangachalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklarni topganlar; ular ko‘pincha qimmatbaho metallar – oltin yoki kumushdan yasalgan [8].

Shunday qilib, Kushonlar o‘zlarining taxminan 400 yillik hukmronligi davrida ko‘pgina obod shaharlarni bunyod etishib, noyob san’at asarlarini yaratib, insoniyat taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirganlar. Ular ko‘plab sug‘orish inshootlarini – Xorazmda Gavhar va Charmanyob, Buxoroda Gav Kitfor, So‘g‘diyonada Darg‘om kanallarini qurdiradilar. Kulolchilik ravnaq topib, yorg‘uchoqlar o‘rniga tegirmonlar paydo bo‘ladi. Shuningdek, Kushon san`ati qadimgi Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti mobaynida o`ziga xos an`ana va yutuqlarni saqlabgina qolmasdan, ulkan mintaqada umumiy qadriyatlarni vujudga kelishi, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqa munosabatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratib madaniy yuksalishni yangi sifat bosqichiga ko`tardi. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining rivoj nuqtasi bo`lgan Kushonlar madaniyati hududiy va mazmun jihatidan ayro olingan madaniyat emas edi. U o`zida Sharq, Markaziy Osiyo, Antik dunyo va hind madaniyatlari yutuqlarini o`zida mujassam etib, Sharq va Jahon xalqlari madaniyatini yana ravnaq topishiga asos bo`ldi [9].

Umuman olganda, buddaviylik dini an'anaviy Sharq san'ati tamoyillarini shakllantirishga chuqur ta'sir ko'rsatdi, shuningdek Sharq san'atining noyob qiyofasini yaratishga imkon bergan muhim metodologik tamoyil desak mubolag’a bo’lmaydi.

Adabiyotlar

1. Ставиский Б. Судьбы буддизма в Средней Азии. – М., 1999.
2. Pidayev Sh. Sirli kushonlar saltanati. — T. «Fan». 1990.
3. Ставиский Б. Работы на Кара-тепе в 1970—1971 гг. (Предварительные сообщения)// Буддийский культовый центр Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1972.
4. Ставиский Б. Работы на Кара-тепе в 1970—1971 гг. (Предварительные сообщения)// Буддийский культовый центр Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1972.
5. Говинда Л.А. Психология раннего буддизма. Основы тибетского мистицизма. – СПб.: «Андреев и сыновья», 1993.
6. Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск: Наука. Сибирское отделение, 1991.
7. Лысенко В.Г., Терентьев А.А., Шохин В.К. Ранняя буддийская философия. Философия джайнизма. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1994.
8. Dunyo dinlari tarixi /tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Raximjonov, N.Muxamedov va b. –Toshkent: ToshDSHI, 2011.
9. Dinshunoslik asoslari. O’quv qo’llanma / Ochildiev A. va boshqalar. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

УДК. 364.1:12

MA'NAVIY RAQOBAT TUSHUNCHASI: GENEZISI VA EVOLYUTSIYASI

M.S.Abbasova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasining genezesi va ijtimoiy evolyutsiyasi haqida taxlil qilingan. Iqtisodiy termin bo'lgan raqobatning kelib chiqish tarixi yoritib berilgan. Ma'naviy raqobatning ijtimoiy muhitining yangilanishiga таьsiri o'rganilgan. Butun jahon hamjamiyatining tarixiy o'timishining ma'naviy qirralari bog'liqligi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Mamlakatimizda ma'naviy-maьrifiy sohani takomillashtirish va optimallashtirish borasida qilinadigan ishlar borasida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, raqobat, sog'lom ma'naviy raqobat, sog'lom ijtimoiy muhit, qadryatlar, globallashuv.

Понятие духовной конкуренции: генезис и эволюция

Аннотация. В данной статье проводится анализ генезиса и социальной эволюции понятия духовности. Освещается история возникновения конкуренции, являющейся экономическим термином. Изучено влияние духовной конкуренции на обновление социальной среды. Проведен социально-философский анализ связи духовных аспектов исторического перехода всего мирового сообщества. Рассмотрена предстоящая работа по совершенствованию и оптимизации образовательной сферы в нашей стране.

Ключевые слова: духовность, конкуренция, здоровая духовная конкуренция, здоровая социальная среда, ценности, глобалилизация.

The concept of spiritual competition: genesis and evolution

Abstract. This article analyzes the genesis and social evolution of the concept of spirituality. The article covers the history of the emergence of competition, which is an economic term. The influence of spiritual competition on the renewal of the social environment is studied. The socio-philosophical analysis of the connection between the spiritual aspects of the historical transition of the entire world community is carried out. The upcoming work on improving and optimizing the educational sphere in our country is considered.

Keywords: spirituality, competition, healthy spiritual competition, healthy social environment, values, globalization.

Biz bilgan ma'naviyat tushunchasi o'zida bizga ma'lum bo'lmagan qarashlarni ifoda etish va vazifasin ham bajaradi. Inson dunyoga kelibdigi olamning qanday yaratilganligi, oliy mavjudot hisoblangan-insonning paydo bo'lish sirlariga qiziqmagan bo'lsa. Olimlarning turli falsafiy yondashuvlari kishilar orasida raqobat, qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Azalda raqobat tushunchasi sifatga yetaklovchi kuch sifatida qaralgan bo'lsa, bu jarayon hozirda ham o'z mohiyatini yo'qotgani yo'q. Ammo, ba'zan bunday progressiv jarayonlar "olamning bir hovuch kishilari qo'lida" regressiv tus olmoqda. Biz tahlil qilmoqchi bo'lganimiz ma'naviy raqobat tushunchasi va jarayonlari bugungi "global ma'naviy inqiroz" ostonasida turgan insoniyat olamida o'ziga hos ahamiyat kasb etmoqda desak adashmagan bo'lamiz.

Davlatlar o'z mafkurasini keng yoyish siyosatini olib borish orqali, xalqning va millatning manfaatlarini himoya qilish yo'lidan bormoqda. Xalqlarning milliy ma'naviyatini, ularning mafkurasini mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi vaqtning dolzarb masalalaridan

biri bo'lib kelmoqda. Bunga esa XXI asr-axborot xurujurlari avj olgan davrning inson ongi va tafakkuriga ta'siri ortib borishi sabab bo'lmoqda. Raqobat tushunchasi shu vaqtga qadar iqtisodiy soha termini sifatida qo'llanilib kelingan bo'lsa, bugungi kunga kelib millatlar, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi ma'naviy hamda axloqiy tamoyillarning o'zaro raqobatini nazarda tutuvchi tushuncha vazifasini bajarmoqda.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – deb ta'kidladi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi bo'lib o'tgan yig'ilishda.

– Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoev.

– Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir, – dedi Prezident Sh.M.Mirziyoev. [1].

Ma'naviyat, ma'naviy hayotning jamiyat hayotida tutadigan o'rni haqida so'z yuritishdan oldin "Ma'naviyat" atamasining mazmunini aniqlab olishimiz lozim. "Manaviyat"ning o'zagini "ma'no", "ma'ni" so'zlari tashkil etishi haqida adabiyotlarda to'xtalib o'tilgan. Tegshiruvchilarning fikricha, "ma'naviyat" atamasi, bir tomondan arabcha "ma'ni" o'zagidan hosil bo'lgan.

Ilk islom ilohiyotchilari ta'limoticha, Kalom bir talay qismlarga bo'lingan: borliqdan avvalgi hayot – kummun, atomlar haqidagisi - javhar, sababiy bog'lanish to'g'risidagi ta'limot – tavallud, mohiyat to'g'risidagi ilm – ma'na hisoblangan. Shunday qilib, narsa – hodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, hatto Allohning mohiyati "ma'no" da o'z ifodasini topgan. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat ham, uning o'zagi bo'lgan "ma'na" ham qadimi hind falsafasida keng qo'llanilgan "manas" tushunchasi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Bunday taqdirda u do'stlar ulfatlar joyi ma'nosini bildiradi. Tilshunoslikka oid lug'atlarda ham "ma'naviyat" – axloqiylik, kishining ichki va ruhiy olami bilan bog'liq ma'nolarni anglatishi aytiladi. [2:5-6].

Qadimdan xalqlarning tarixiy jarayonlari natijasida yaratilgan ilm – fan, madaniyat va ishlab chiqarish sohalarining insonlar orasida ommalashib borishi uning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Vaqt o'tishi bilan bu jarayonlarning ba'zi birlari o'z mohiyatini yo'qotgan holda asliyatiga qarama-qarshilik funktsiyasini bajarib qoldi. Bunday muammolar esa bizning globallashuv davrimizda yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

Madaniyatning inson va millatning ehtiyojiga aylanishi, tarixiy tarakkiyotning muhim omili ekanligi uning qadriyatga aylanishini bidiradi. Demak, madaniyat (ma'naviyat) inson va millatning muhim belgisi bo'lishi bilan birga uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi va o'z navbatida uning ehtiyojiga aylangan qadriyati hamdir. [3:35].

Raqobatga bugungi kunga qadar bir qancha ta'riflar berilgan bo'lib, Adam Smit uni "ko'zga ko'rinmas qo'l" deb atagan edi. Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o'z mavqeini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imijiga ega bo'lish uchun kurashdan iborat jarayondir.

Raqobat so'zi lotincha "concurrerre" so'zidan olingan bo'lib, to'qnashuv, qarama-qarshi, musobaqalashmoq degan ma'noni bildiradi. Raqobat tovar oldi-sotdisi va eng yaxshi ishlab chiqarish uchun bozor tizimini qatnashchilari orasidagi o'zaro kurash demakdir.

Lekin iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda raqobat to'g'risida har xil va qarama-qarshi, fikrlar mavjud. Uni ishlab chiqaruvchilar orasidagi asosiy mexanizm, bozorning sifati,

chegarasi, belgisi, xo'jalik mexanizmning elementi, jamiyatni olg'a intiltiruvchi kuch sifatida ham ta'riflangan. [4:6].

Iqtisodiyot nazariyasi fanining kategoriyasi sifatida raqobat nisbatan uzoq vaqtlardan buyon mavjud bo'lgan tushuncha hisoblansada, iqtisodiy tabiatining murakkabligi bugungi kunda ham uning mohiyatini to'liq ochib berilgan, deyishga asos bo'la olmaydi. Chunki, raqobatning iqtisodiy mazmuni va ob'ektiv asoslarini ochib berish, uni ta'riflashdagi serqirralik, turfalilik va ziddiyatlar mazkur jarayon tadqiqoti mantiqiy jihatdan davom etayotganligini anglatadi.

Bugungi kunda raqobat tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raevlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» o'quv qo'llanmasida raqobatga berilgan ta'rifda asosan ikki jihat: 1) uning iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvidan iborat ekanligi; 2) yuqori foyda va naflikka ega bo'lish uchun kurash ilgari suriladi, ya'ni: raqobat - bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni kulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi.

Raqobat tushunchasi turli izohli lug'at va ma'lumotnomalarda ham turlicha ta'riflanadi. Jumladan, «Yazık biznesa» nomli lug'atda: «Raqobat (lotincha soncurrere - to'qnashuv; inglizcha somretition, rivalry) - bozorda ishtirok etayotgan korxonalar o'rtasidagi o'z mahsulotlarini sotishning eng qulay imkoniyatlarini ta'minlash, xaridorlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa va kurash iqtisodiy jarayonidir. Raqobat va monopoliya dialektik birlikni tashkil etib, doimo bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar», deb ifodalangan [5:10]. Bundan ko'rinadiki, raqobatni nafaqat kurash, balki o'zaro ta'sir va aloqa jarayoni sifatida ham talqin etilgan. Shu bilan bir qatorda, raqobat maqsadini «xaridorlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish» sifatida belgilab, ma'lum noaniqlikka yo'l qo'yilgan. Chunki, raqobatning asosiy maqsadi xaridorning emas, balki uning ishtirokchisining manfaatlarini to'laroq ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lib, bu maqsadga erishish yo'lidagi harakatlar pirovardida xaridorlarning turli tuman ehtiyojlarini qondirishga olib keladi.

Raqobatning asosiy sohasi - bozor, bozorda turli korxonalar tovarlari raqobatga kirishadi. Raqobat faqat tovarlarni sotuvchilar emas, balki xaridorlar o'rtasida ham yuz beradi. Korxonalar kerakli vosita, hom- ashyo, materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadilar [6:28], deb ta'kidlanadi. Ya'ni, yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, raqobat faqat bozor iqtisodiyotiga xos, degan qoida ilgari suriladi.

Shundan kelib chiqqan holda, raqobatni maksimal foydani qo'lga kiritish, nisbatan qulay xo'jalik yuritish sharoitlariga ega bo'lish uchun tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash sifatida baholash mumkin. Raqobatning vujudga kelishiga qarshi chiquvchi vositalardan biri monopolistik jamiyatning qaror topishi bilan tavsiflanadi.

«Jamiyatning ma'naviy hayoti» tushunchasi «jamiyatning ma'naviy soxasi» tushunchasi bilan konkretlashadi. Jamiyatning ma'naviy soxasiga butun ma'naviy xayot emas, balki uning ba'zi qatlamlari yoki maxsus ma'naviy ishlab chikarish darajasi bilan boglik bulgan (professional) tomonlar kiradi, maxsus amal kiladigan sotsial institutlar (mafkura va ilmiy muassalar, teatrlar, kutubxona, muzey, maktab va h.k) shular jumlasidan. Bular ma'naviy qardriyatlarni yaratuvchilar va tarqatuvchilardir. Shunday kilib, jamiyatning ma'naviy xayoti o'z mohiyatiga ko'ra, kishilarning yashab turishlarining real jarayoni, amal

qilishiga qarab — ijtimoiy hayotiy faoliyat va ongni ishlab chiqarish, tarqatish hamda kishilarning ma'naviy ehtiyojlari bilan boklangan nisbiy mustakil sohadir.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirga doir qilinadigan ishlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirishmiz mumkin. 2021-yilning 26-mart sanasida «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5040-sonli prezident qarori imzolandi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish. [7].

Jamiyatning ma'naviy xayoti kishilar ma'naviy jihatdan erkin bulishlari bilan boglik holda amal qiladi. Insonning ma'naviy erkinligi uning erkin faoliyat sohibi sifatida uzini anglab yetishini bildiradi. Insonning ma'naviy erkinligi hakikiy kadriyatlarga erkin munosabatda bo'lishda, ma'naviy-ijodiy erkinlikda namoyon buladi.

Ma'naviy sohaning asosini ma'naviy ishlab chikarish tashkil etadi. Bu jarayonda ong, ya'ni g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar ishlab chikariladi. Darhaqiqat, kishilar uzlarining hayot kechirishlari uchun zarur bulgan moddiy ne'matlarni ishlab chikarish bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki o'z tasavvurlari, tushunchalarini ham yaratadilar. Ongni ishlab chikarish tarixan konkret shakllar (turlar)da amalga oshiriladiki, uning har bir shakli (siyosiy, ahlokiy, estetik va h.k.) ma'naviy ishlab chikarishning alohida tarmorini tashkil etadi.

Ma'naviy ishlab chiqarish ijtimoiy ongni, ma'naviy kadriyatlarni yaratishdan iboratdir. Ma'naviy kadriyatlar (ilmiy g'oyalar, qarashlar, badiiy asarlar, rassomlik asarlari) ma'naviy muloqotlarning mohiyatini ifodalaydi. Buning natijasi o'larok; ijtimoiy ong omma urtasida keng tarqaladi.

Ma'naviy ishlab chikarishning uziga xosligi uning mahsulotlari bilan bog'liqligidadir. Ma'naviy ishlab chiqarish mahsulotlari uzining yangiligi, oxiri tuqilmaganligi (yangi badiiy asar, yangi kartina, yangi ilmiy bilimlar) bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati moddiy tusga kiradi, ya'ni kitob, rassomlik asarlari singari tarkib topib, o'z yaratuvchilari va iste'molchilaridan alohida yashashi xam mumkin. Boshqa xillari esa ularni yaratish va ijro etish jarayonida buladi. Masalan, artist sahnaga chikkanda, ma'ruzachi (lektor)-o'qituvchi

auditoriyaga kirganda shunday holat ro'y beradi. Demak, ma'naviy faoliyat jarayonining uzi uning mahsuli bo'lib namoyon bo'ladi. [8:10].

Insonning ma'naviy dunyoqarashi uning ichki dunyosini inkisodir. Aql va ruhning birlashuvi ma'naviy olamning kengayishi va inson hayotining tub ma'nosini ochib berishga ko'maklashuvchi kuchga aylanadi. Bu haqida M.Imomnazarov o'zining "Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar" nomli kitobida xususan quyidagilarni keltirib o'tadi: "Aql – ma'naviyatga dahldor, ammo ma'naviyat aqldan iborat emas. Ma'naviyat muvozanatni saqlay bilishdadir va aqlning bugungi qudrati inson ma'naviyatining o'zga jihatlariga ham jiddiy e'tiborni taqozo qiladi. Zotan aql va hudbinlikning birlashuvi yaxshilikka olib bormaydi". [9:64].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quydagi xulosalarga kelamiz:

Birinchidan: ma'naviy raqobat va uning vositasida vujudga kelishi kutilayotgan sog'lom ijtimoiy muhitni yaratilishi bugungi globallashuv davrining muhim talabi bo'lmoqda. Inson kamolotining zaruriy vositasi sifatida ma'naviyatni ko'rar ekanmiz, bunday ma'naviyatning sog'lom bo'lishi va hozirgi kun talabi doirasida shakllanishini taraqqiyotning omili deb qarashimiz zarur.

Ikkinchidan: tana tarbiyasi, aqliy va axloqiy tarbiya bilan bir qatorda kishilarda sog'lom raqobat tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirish bu o'rinda muammoli vaziyat bo'lib qolmoqda. Kishilar orasida amoralistik jarayonlarning oldini olish borasida tarixiy tajriba asosida insonlar ma'naviy-ruhiy tafakkurini shakllantirish har doimgidan muhim masala bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan: keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda sog'lom ma'naviy raqobat muhitini shakllantirish yo'lga qo'yilmoqda. Ammo bunday qamrovi keng islohotni kishilar ongiga singdirish esa falsafiy fanlarning oldida turgan vazifalardan biri sifatida qabul qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида/ www.zamon.uz. 19.01.20212.
2. Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. Т.: «Шарк;» НМАК, 2005.
3. Отамуратов Садулла, Отамуратов Сарвар. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. -Т.: "УАЖБНТ" Маркази, 2003.
4. Холиқов К.О., Дўсанов Р. Ҳ. Рақобат: назарияси, шаклланиши ва усуллари (илмий рисола)-Т.: "ТерДУ" 2009.
5. Язык бизнеса. Термины. Под ред. В.А.Чжена. Т.: ИПК «Шарк», 1995.
6. Ўлмасов А., Тўхлиев Н. Бозор иқтисодиёти. қисқача луғат-маълумотнома. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991.
7. Маьнавий-маьрифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида\www.lex.uz. 26.03.2021.
8. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар – Т.: "Шарқ", 1998.

UDK 130.122

IDEOLOGICAL FACTORS OF STRENGTHENING SOCIO-POLITICAL STABILITY IN UZBEKISTAN

B.M.Nabiyev
Namangan muhandislik-qurilish instituti
b.nabiev@mail.ru

Abstract. The article analyzes the factors of ideological activity in the process of building a democratic legal state and civil society in Uzbekistan, in particular in strengthening the socio-political stability of society from the socio-philosophical point of view. Also, proposals and recommendations were made in Uzbekistan aimed at strengthening the socio-political stability of society and the formation of ideological activity.

Keywords. civil society, society stability, legal culture, national self-awareness, national idea, ideology, ideological immunity, ideological activity.

O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashning mafkuraviy omillari

Annotasiya. Maqolada O’zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, xususan jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda mafkuraviy faoliyat omillari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O’zbekistonda jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlash va mafkuraviy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: fuqarolik jamiyati, jamiyat barqarorligi, huquqiy madaniyat, milliy o’zlikni anglash, milliy g’oya, mafkura, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy faoliyat.

Идеологические факторы укрепления социально-политической устойчивости в Узбекистане

Аннотация. В статье проведен социально-философский анализ факторов идеологической деятельности в процессе построения в Узбекистане демократического правового государства и гражданского общества, в частности укрепления общественно-политической стабильности в обществе. Также были высказаны предложения и рекомендации, направленные на укрепление социально-политической стабильности общества и формирование идеологической деятельности в Узбекистане.

Ключевые слова. гражданское общество, стабильность общества, правовая культура, национальное самосознание, национальная идея, идеология, идейный иммунитет, идеологическая деятельность.

Today, the construction of a legal democratic state based on free civil society in Uzbekistan is defined as the main goal, and in this process, the formation and promotion of civil responsibility is of great importance. Civil responsibility is a continuation and inseparable part of democratic changes in society, and society in its democratic development is not limited to granting citizens universal rights, such as equality, freedom, unity, but also requires observance of these rights, the use of their rights creatively, in the interests of society. The more progress and growth democracy in the life of society, the higher the responsibility of the citizens in it also increases and increases. In the process of restoration of democratic legal state and civil society in Uzbekistan, a citizen will be able to take an active part in solving the problems of society in the case of reliance on existing rights. Another

important task we have is to consistently implement the principle of interdependence of responsibility, rights and duties between citizens, state and society, says the president of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, – this principle is the constitutional basis that ensures effective cooperation between the state and the individual, state and civil society in solving important tasks facing our country. We are all equally responsible for the prosperity of our motherland – citizens, society and the state, for the strengthening of peace and stability in our country, for the preservation, enrichment of our historical, spiritual and cultural heritage and for the decoration of future generations. We must further work to preserve and strengthen the atmosphere of friendship and harmony, mutual respect and solidarity between representatives of different nationalities and peoples living in our country [1].

In the years of independent development of Uzbekistan, this is a clear proof of the fact that one of the main factors of restoration of a free and prosperous life is stability. In recent years, the concept of sustainable development has become widely popular in the world community. In particular, in the UN documents, along with the interpretation of sustainable development as a high value, its inherent characteristics, strengths and weaknesses of various models are analyzed.

When we say stability among experts, it is understood the ability of democratic structures to reflect on rapidly changing social processes. The stability is regarded as the function of democracy, it should also include the participation of people in the governance of the state through civil society institutions. The rule "transition from a strong state to a strong society" now indicates that it is necessary to accelerate the introduction of democratic institutions, that social stability in society should be based on the activity of the public.

It is worth mentioning in its place that the concept of "stability" has concentrated a lot of approaches. They can be summarized in the following way:

a) the absence of the threat of illegal violence and use of force in society;

b) the validity of one government for some long time, its effective adaptability to changing conditions;

c) the stability of the constitutional order;

d) the stable existence of legitimate power;

e) the availability of the opportunity to manage structural changes in

In our opinion, such features are common norms inherent in societies experiencing the process of democratization. But the general is always content with the particularity. The sustainable development of our country is analyzed in connection with the existing conditions and its conditions are indicated. These include:

a) the restoration of spiritual values and national self-awareness;

b) the formation of statehood and the strengthening of defensive capacity;

c) the formation of democratic institutions and the foundations of civil society;

d) the decision-making of market relations and the formation of a class of proprietors;

e) strong social policy and increased social activity of the population.

In a word, it is necessary that stability is not only a condition of some political object or institution, but also a system of internal and external relations. It is necessary to mention that socio-political stability requires unity, continuity along with a democratic order.

Thus, the maintenance of democracy can be carried out only in the conditions of socio-political stability, which characterizes the management system, civil order, the legality and reliability of management. In turn, democratic development provides a way to free and prosperous Homeland restoration.

The effect of democratic processes depends not only on political institutions, but also on the participation of citizens in these processes. Participation in political life is an important criterion of democratic order and process, in which the degree of involvement of political subjects in the system of political relations and power is especially evident in the process of elections. In this sense, democracy is transparent in society for the votes of voters, it is necessary to enter into honest competition before the eyes of all, and the "inclusion" of large groups of the population in the political process.

At present, great attention is paid to the issue of increasing legal literacy of citizens, comprehensive development of entrepreneurship, formation and strengthening of a sense of responsibility in youth in relation to society. The formation of civil responsibility in young people is carried out on the basis of strengthening ideological immunity on the basis of national self-awareness, restoration of historical memory, raising feelings of national pride and pride. The deep acquisition of the achievements of science by young people, the strong study of foreign languages, computer technologies, honest work, business and entrepreneurship, contribution to the economic, socio-political, spiritual and cultural development of Uzbekistan is of great importance in the process of formation and promotion of civil responsibility of young people. Today, a lot of attention is paid to human rights and their provision in the process of restoration of democratic legal state and civil society in Uzbekistan. For the perfection of a person's personality, civil society is necessary, only a person in civil society can fully manifest all his abilities. The process of development of democratic traditions is closely connected with the economic potential of the country, the high level of citizens and their political activity, and today the formation of civil responsibility in young people in the process of restoration of the democratic legal state and civil society in Uzbekistan plays an important role.

Today in the state policy on youth, carried out in Uzbekistan, in order to ensure the rights, freedoms and legitimate interests of young people, to preserve the life and health of young people, to promote the spiritual, spiritual, physical and moral perfection of young people, to ensure open and quality education for young people, to create conditions for employment and employment of young people, to, great attention is paid to the issue of upbringing as a person whose firm confidence and views on life are decided. At the same time with the national values and traditions that are being restored in the life of young people in ensuring the socio-political stability of the society at the present time, the emergence of the requirements for the rapid transformation of socio-political values that arise as a result of the penetration of foreign innovative changes and further deepening of reforms, In ensuring the stability of Uzbekistan, education of self-sacrificing, patriotic young people who deeply understand the essence and essence of the reforms carried out in the socio-political, economic, spiritual and cultural sphere, who live in harmony with society and for the future, who live as glue and citizen, their ideological upbringing and raising the level of socio-political knowledge will be of youth is a large and active social layer of the population of Uzbekistan. The formation of active civil responsibility in young people is carried out on the basis of the formation in them of an independent mind, independent consciousness, independent perseverance, this determination is formed on the basis of their aspiration to life goals, is strengthened, expresses the duty and responsibility of parents, the land, their people, life, nature, society and Homeland, religion, arises from the Increasing social activity of young people, formation of civil responsibility in them is carried out on the basis of ideological work, integration of national idea and ideology into the minds and hearts of young people,

strengthening ideological immunity. “By integrating the national idea into the hearts and minds of our compatriots, the formation of an ideological immune system in them is a periodical demand. This is not a process that takes place in one zone, one by one. The requires activity, factorization of each person. Its implementation will increase the potential of Uzbekistan, help to restore the great state of the future, strengthen the welfare of our people” [2].

Support and encouragement of talented and talented young people, creation of conditions for the development of youth entrepreneurship, formation of aspiration to a healthy lifestyle in young people, as well as the creation of conditions for the meaningful organization of leisure of young people and mass development of youth sports, moral and material support of young families, the implementation of a system of, the development of cooperation with international organizations that carry out activities in the field of realization of the rights and freedoms of young people also plays an important role in the state's youth policy[3].

On the issue of raising socio-political activity in the processes of ensuring the stability of society, it is important to take the following measures:

- to ensure the continuity of political propaganda work in society, taking into account the fact that today there are negative ideological processes aimed at the capture of the human soul, which are aimed at encouraging their youth to;

- to expand the participation of young people in socio-political institutions in society, especially in public organizations and political parties, to organize the process of conscious socialization of young people into social processes through political participation;

- to create effective mechanisms for the organization of public control in society through the participation of young people in self-governing bodies in society, in this process to;

- development of a system of measures aimed at ensuring the active and conscious participation of young people in the processes of direct democracy, in particular elections and referendums;

-organization of such processes as pluralism in society, diversity of views, diversity of political life, the existence of progressive ideas in ideological processes and the achievement of their manifestation in this reality as a political force;

- formation of skills of youth participation as a decisive force in ensuring peace and tranquility in society through increasing the social and political initiative of young people in the society, their active participation in state and public organizations;

- the use of the opportunities of mass media in the formation of democratic values in the minds of young people, the role of young people in Uzbekistan, attention is paid to the harmony of education and upbringing in the education of young people.

So, recognizing the measures taken by the state in the current conditions, the following recommendations can be made to further increase the effectiveness of ideological work:

• in today's conditions, the sub-factor in the field of social development, that is, the role of the individual is increasing, as long as its spirituality, therefore, to raise its high potential, is one of the foundations determining the development of society. In such conditions, it is necessary to take the leading place in the development of Science, the position of social structures, which include innovative and informative factors, first of all spiritual factors and social norms;

• we must pay special attention to the fact that the century in which we live is provided with information. With the effective use of media, it is necessary to further expand and revitalize the activities of national internet portals, e – libraries, information resource centers,

along with the excellent implementation of such activities as national values, traditions and customs, national identity, improvement of national spirituality in the minds and minds of young people;

• we should make effective use of the opportunities of art and literature in educating young people in a spirit of loyalty and respect to our national identity. In addition to high artistic skills in youth, it is necessary to further enhance and develop our national identity, national consciousness, the potential of national thinking;

• it is necessary to pay more attention to live communication and practical work in various discussions, conferences, meetings, to openly discuss the existing problems and shortcomings, without denying the use of quatrain, lectures of specialists of various specialties and directions in the field of youth propaganda and cooperation;

• it is necessary to identify young people who are talented, talented and talented, to create the necessary conditions for them, to support them, to encourage them. Taking advantage of their opportunities, it is also necessary to involve them in the work of propaganda and cooperation.

"We really understand well that life never stops in one place. If we take into account the fact that we live in the 21st century, at a time when increasingly volatile processes of globalization, the internet and global development play a decisive role, we feel particularly deeply that our lives are changing at an ever-increasing rate. Without admiring the results we have achieved in such conditions, not succumbing to the mood of the ventilation, we must clearly imagine to ourselves that the path we have traveled so far is only part of the complex and difficult path that lies ahead of us. I think that there is no need to talk superfluous about how quickly the world that surrounds us today is changing, various conflicts and bloodshed are continuing in our immediate and distant environment, the increased risk of terrorism, extremism and drug trafficking, the financial and economic crisis and its consequences are exacerbated. Of course, all this does not leave each of us without worries and requires us to calmly assess the situation that is happening in the world"[4].

So, the education of young people in high moral and disciplined manner, their quality education and maturation in the spirit of patriotism are recognized as an important factor of the development of Uzbekistan. The formation and development of civil responsibility in young people is an important basis of social stability, development of society and achievements in Uzbekistan, the issue of educating young people who are aimed at a specific goal and who are motivated on the basis of national idea and ideology is one of the most important tasks facing the state and society in Uzbekistan.

References

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz va mamlakatimizni yanada rivojlantirishning mustahkam poydevori //Xalqimizning roziligi – faoliyatimizga berilgan yuksak bahodir. 2-volume. -Tashkent, Uzbekistan, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir, Tasvir-2021.
3. Ergashev I. and others. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlari. -Tashkent, World of creativity, 2002.
4. Ochildiev A. Globalizm va mafkuraviy jarayonlar. - T.: Editor's publishing house, 2009.
5. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng ezgu saodatdir.- T.: Uzbekistan, 2015.

UDK: 323.1:347(575.1)

HARAKATLAR STRATEGIYASI – INSON HUQUQLARI KAFOLATI SIFATIDA

F.F.Xatamov
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi negizida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar ilmiy tahlil etilgan. Jumladan, inson huquqlarini ta’minlash, uning asosiy erkinlik va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish borasida jamiyat va davlat institutlarining faoliyati yoritilgan. Barcha islohotlarning bosh maqsadi sifatida “inson manfaatlari har narsadan ulug‘” degan g‘oya turishi asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, inson huquqlari, ustuvor yo‘nalish, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati.

Стратегия действий как гарантия прав человека

Аннотация. В статье дается научный анализ общественно-политических реформ, проводимых на основе Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. В частности, освещается деятельность общественных и государственных институтов по обеспечению прав человека, реализации его основных свобод и стремлений. Утверждается, что главной целью всех реформ является идея о том, что «интересы человека превыше всего».

Ключевые слова: Стратегия действий, права человека, приоритеты, демократия, правовое государство, гражданское общество.

Action strategy as a guarantee of human rights

Abstract. The article provides a scientific analysis of socio-political reforms carried out on the basis of the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan. In particular, it highlights the activities of public and state institutions to ensure human rights, the implementation of his fundamental freedoms and aspirations. It is argued that the main goal of all reforms is the idea that "human interests are above all else."

Keywords: Strategy of actions, human rights, priorities, democracy, rule of law, civil society.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati to‘laligicha yangi O‘zbekiston taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston o‘zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq sifatida dunyoga tanildi. Shu bilan birga mamlakatda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini bunyod etishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayni paytda, erishgan marralar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni muntazam tahlil qilish, yaqin va uzoq kelajakda qilinadigan ishlarni puxta o‘ylangan rejalar asosida olib borish talab etiladi. Chunki, hayot doimiy o‘zgarish va rivojlanishdan iborat. Bu yashash uchun kurashdir. Bu hayot falsafasi, uning ziddiyatlarga to‘la tomonlarini dialektik tafakkur yuritish asosida yechish taqozo etiladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yib, uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon

hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Hozirda O‘zbekiston ham o‘z tarixining ana shunday mas’uliyatli chorrahasida turibdi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g‘oyaga aylanmoqda. Yurtboshimiz rahbarligida hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa’y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda ***“Xalq xokimiyat manbaini tashkil etadi”, “Inson manfaatlari har narsadan ulug‘”***, ***“Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”***, ***“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”***, ***“Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”***, ***“Eng katta boylik - insonlarning salomatligi”***, ***“Xalqqa tinchlik va omonlik kerak”*** kabi g‘oyalarni aks ettirgan tamoyillarga qanchalik darajada amal qilinayotganligini tanqidiy tahlil qilish asosida anglab olish hamda tanlagan yo‘limizdagi rivojlanishimizni yangi bosqichga ko‘tarishni hayotning o‘zi zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

Izchillik va qat’iyat bilan amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida “odamlar o‘zlarining hayotidan rozi bo‘lishi kerak”, degan hayotbaxsh g‘oya yotadi. O‘zbekiston taraqqiyotining navbatdagi bosqichida ham odamlarning yashash sharoitini yanada yaxshilash, farovonligini oshirib borish asosiy vazifa va bosh maqsad sifatida belgilandi.

Tanqidiy tahlil natijalari, mamlakatimiz rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan holatlarni yaqqol ko‘rsatib berdi. Bunday holatlarning ob’ektiv va sub’ektiv sabablar sifatida:

- odamlarning o‘z kasbi va qiziqishiga mos ish joylarining yetarlicha yaratilmaganligi, ya’ni ishsizlikning tugatilmaganligi;

- odamlarning yaxshi yashashlari, samarali mehnat qilishlari uchun barcha qulayliklarga ega uy-joylar, to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi, gaz va elektr energiyasi bilan ta’minlanmaganligi va boshqa madaniy-maishiy shart-sharoitlarning to‘liq qoniqarli darajada yaratilmaganligi;

- inson salomatligini saqlash uchun yetarlicha sharit-sharoitlar: dori-darmonlarning haddan tashqari qimmat narxlarda sotilishi, tez yordam sohasi xodimlarining yetarli darajada faoliyat yuritmasligi, joylarda malakali shifokor mutaxassislarning yetishmasligi,tamagirlikning avjga chiqishi;

- har bir insonning tabiiy yashash va shaxsiy huquq va burchlarini og‘ishmay bajarishi, ularni buzuvchilarga nisbatan murosasiz kurash olib borish borasida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va ularning xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini suiiste’mol qilish, g‘ayriqonuniy ishlar sodir etish, ayniqsa, adolat mezonlarini ataylab buzish holatlarining mavjudligi;

- sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ishlarni tashkil etish borasida mutasaddilar tomonidan belgilangan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmasligi, o‘z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘yish, amal sehriga berilib oyog‘ining yerdan uzilishi, oddiy odamlarni mensimaslik kabi holatlarning odatiy tusga kirib qolishi;

- ilm-fanni rivojlantirishda haqiqiy olimning ijodiy mehnatini qadrlamaslik, o‘zini hammuallif sifatida tiqishtirish, jonkuyar tashkilotchi olimlar ustidan har xil ig‘volarni uyushtirish, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya berish o‘rniga, yuzsizlarcha ta’magirlik qilish kabilarni kiritish mumkin.

Bularning tag zamirida mamlakatda inson huquq va erkinliklarini tom ma’noda ta’minlash masalasi yotadi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, huquqiy davlatni yaratish yo‘lidagi siyosiy kursni amalga oshirish jarayonida eng jiddiy xavf, uni faqat rasmiy shaklini

haqiqiy imkoniyat deb hisoblash bo‘ladi. Shu munosabat bilan, huquqiy davlat javob berishi kerak bo‘lgan eng umumiy talablar sifatida quyidagilarni tasniflash mumkin:

1. Fuqarolar asosiy huquqlarining har tomonlama kafolati, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalda ro‘yobga chiqarish hamda himoya qilish uchun samarali ishlaydigan, sodda va oshkora bo‘lgan yuridik mexanizmning mavjudligi.

2. Qonunchilikning barcha sinflar va ijtimoiy qatlamlarning eng muhim manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va jamiyatdagi axloqiy-psixologik vaziyatga muvofiqligi.

3. Dolzarb muammolarni hal qilishning amaliy jarayoni kontekstida qonunchilikni organik ravishda takomillashuvi.

4. Konstitutsiya va amaldagi qonunchilikning qonunosti hujjatlariga nisbatan ustuvorligi, huquqning mutloq ustuvorligi.

6. Qonun hujjatlari barqarorligi va dinamizmining dialektik birikmasi;

7. Fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi uchun amaliy demokratik protseduralarning mavjudligi;

8. Jamoatchilik fikrini hisobga olish.

9. Davlatning qonun ijodkorligi, tashkiliy, mafkuraviy va huquqni muhofaza qilish faoliyatining birligi;

10. Siyosiy, davlat va ijtimoiy tizimning barcha darajalarida huquq sub’ektlari o‘rtasidagi ziddiyatli va nizoli vaziyatlarni hal qilishning mukammal huquqiy mexanizmining mavjudligi;

11. Davlat apparati va jamoat tashkilotlari xodimlarining kasbiy va ma’naviy yetukligi, ularning kasbiy vazifalarini sifatli bajarishga intilishi;

12. Mamlakat fuqarolarining yuqori huquqiy bilim va huquqiy madaniyati.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarni isloh qilish orqali shaxs huquqlari muammosini har tomonlama va izchil bartaraf etish uchun muhim imkoniyatlarni yaratish mumkinligi haqidagi tezisni tan olgan holda, ushbu imkoniyatlar faqat tegishli siyosiy hayotni amalga oshirish orqali yaratilishini unutmaslik kerak. Bunday ta’sirning tabiati, uning samaradorligi taxminan bir xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda turlicha bo‘lishi ham mumkin. Bunday holda, ma’lum bir ijtimoiy haqiqatdan kelib chiqish muhimdir, chunki har qanday individual huquq maqsadga muvofiq boshqarish faqat eng keng ijtimoiy-siyosiy yo‘llarda samarali bo‘lgan ko‘plab va ba’zan qarama-qarshi omillarning murakkab o‘zaro ta’sirining natijasida hosil bo‘ladi.

Aynan shu omillarni to‘la ma’noda anglab yetmasdan turib, mamlakatimizni yangi sifatiy taraqqiyot bosqichiga olib chiqish mumkin emas. Bu esa, o‘z navbatida, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilish, xolisona baholash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasini qo‘ydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmon konseptual asoslarni yaratib berdi, deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘lib, ular: 1)

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; 2) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada islohqilish; 3) Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; 4) Ijtimoiy sohani rivojlantirish; 5) Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabilarni qamrab oladi.

Harakatlar strategiyasidagi har bir vazifa inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni yanada jadallashtirish, odamlarning orzu-intilishlarini yuzaga chiqarishga yaqindan ko'maklashish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub ijobiy o'zgarishlarga erishishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: *"Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renesans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak"*. Demak, mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmon diqqat bilan o'rganib chiqilsa, unda nafaqat 2017-2021 yillar, balki kelajakdagi o'n yilliklar ham e'tiborga olinganligini anglash mumkin. Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning pirovard natijasi sifatida mamlakatimizda inson huquqlari g'oyasiga asoslangan erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy-demokratik davlatning shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T: «O'zbekiston», 2020,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni 07.02.2017. // https://lex.uz/docs/3107036.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: «O'zbekiston», 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: «O'zbekistn», 2016.
5. Jurayev N. Tamaddunga da'vat. T., "O'zbekiston", 2018.
6. Bekmurodov M., Quronboyev Q., Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T., 2017.
7. Saidov S. Ijtimoiy kapital – fuqarolik jamiyatining muhim mezoni. –T., 2019.
8. Gewirth Alan. The Basis and Content of Hunan Rights H Human Rights Nomos. N.Y.: New York University Press. 1998.

UDK:342.9:35(575.1)

MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR TO'G'RISIDA"GI QONUNNI DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR

B.M.Azizov
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining muhim jihatlari, ma'muriy tartib-taomil tushunchasi va ma'muriy tartib-taomilni amalga oshiruvchi organlar tushunchasi yoritilgan.

Shuningdek, maqolada Qonunni amaliyotga tatbiq qilishda, ma'muriy hujjatni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topishda, prinsiplarini shakllantirishda, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarning huquq va majburiyatlarida belgilashda, protsessual hujjatlarni qabul qilishda va rasmiylashtirishda yuzaga kelayotgan muammoli holatlar yoritilgan.

Ushbu muammoli holatlardan hamda Germaniya, Rossiya, Ozarbayjon va MDH davlatlari tajribasidan kelib chiqib, ushbu qonunni takomillashtirish va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish bo'yicha asoslantirilgan takliflar yoritilgan.

Kalit so`zlar: ma'muriy tartib-taomil, qonunni amaliyotga tatbiq qilish, ma'muriy hujjatni bekor qilish, protsessual hujjatlarni qabul qilish.

Актуальность Закона об административных процедурах в публичном управлении и проблемы его применения

Аннотация. В данной статье описаны важные аспекты Закона Республики Узбекистан «Об административных процедурах», понятия административной процедуры и органов, осуществляющих административные процедуры. Кроме того, в статье освещены проблемные ситуации, возникающие при реализации Закона на практике, отмене, изменении или признании недействительным административного акта, формировании принципов, определении прав и обязанностей свидетелей, экспертов, специалистов, переводчиков, принятии и оформлении процессуальных актов. На основе вышеперечисленных проблемных ситуаций, а также исходя из опыта Германии, России, Азербайджана и стран СНГ выдвинуты обоснованные предложения по совершенствованию данного закона и разработке новой редакции Закона «Об административных процедурах».

Ключевые слова: административное производство, правоприменение, отмена административного документа, принятие процессуальных документов.

Importance of the Law on Administrative Procedures in Public Administration and Problems of its Implementation

Abstract. This article describes important aspects of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Administrative Procedures", the concept of an administrative procedure, and the bodies carrying out administrative procedures.

In addition, the article highlights the issues arising upon the implementation of the Law in the practice; the cancellation, change, or invalidation of an administrative act, the formation of principles thereof; the determination of the rights and obligations of witnesses, experts, specialists, translators, adoption, and the execution of procedural acts.

Considering the existence of the abovementioned issues, as well as based on the experience of Germany, Russia, Azerbaijan, and the CIS countries, there have been put

forward the substantiated proposals to advance the Law “On Administrative Procedures” and draft a new edition thereof.

Keywords: administrative procedure, law enforcement, repeal of administrative document, adoption of procedural documents.

Ma’muriy tartib-taomillar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi rivojlanishining muhim elementi hisoblandi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashdan, jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy organlar bilan munosabatlarida qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, ixcham davlat apparatini yaratish amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim vazifasi hisoblandi.

Shu maqsadda, 2018 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) qabul qilingan[1]. Qonun bevosita ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ma’muriy tartib-taomil bu ma’muriy organlarning ma’muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalar hisoblanadi.

Qonunni vazifasi ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib hisoblandi.

Qonunchilikka muvofiq ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma’muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar **ma’muriy organlar** hisoblandi[2].

Qonun ma’muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan litsenziya, ruxsat berish, ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma’muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish, davlat xizmatini o‘tash, referendumlar, saylovlar o‘tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoiy majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ma’muriy jarayonlar funksional ravishda mansabdor shaxs tomonidan mustaqil ravishda ma’lum ma’muriy ishni ko‘rib chiqish va adolatli qarorlarni kafolatlashga qaratilgan muhim vosita sifatida tan olinishi kerak[3]

Ma’muriy tartib-taomillar hokimyatning davlat boshqaruvi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan harakatlarining tartibini ifodalaydi, ularning maqsadi ma’muriy huquqning moddiy normalarini amalga oshirishdir[4].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Qonunni ma’muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etilishi doirasi to‘liq emas. Ya’ni, Qonun ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasida jismoniy va yuridik shaxslarni huquqiy himoyalanganligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsada, uning mexanizmlarini amalga oshirishda ko‘plab kamchilar mavjud. Bu esa Qonunni qo‘llanilishida ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Quyidagilarga ko‘ra hamda Qonundagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun tatbiq etiladigan sohalarni qayta ko‘rib chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, Qonun qo‘llaniladigan sohalarni kengaytirish va uni yangi tahrirda qabul qilish lozim.

Birinchi, Qonun hamda ma’muriy tartib-taomillarni belgilovchi boshqa qonun hujjatlarining maqsadi bevosita jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy himoyalanganligini ta’minlashdan iborat bo‘lsada, davlat organlari va tashkilotlarning mansabdor shaxslarni ushbu Qonun hujjatlarining **mazmun-mohiyatini, qo‘llanilishi doirasini bilmaydi**.

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish va tahlillar ayrim davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari va xodimlari xatto **ushbu Qonunning mvjudligidan xabardor emasligini** ko‘rsatgan.

Uchinchi, Qonun 2018 yilda qabul qilingan bo‘lsada, qonun osti hujjatlari ushbu **Qonunga muvofiqlashtirilmagan**. Natijada davlat organlari ushbu Qonunga zid yoki nomuvofiq bo‘lgan qonun osti hujjatlaridan foydalanib kelmoqda.

To‘rtinchi, ayrim ma’muriy organlar ushbu Qonunga zid yoki nomuvofiq bo‘lgan o‘zlarining **ichki hujjatlaridan foydalanib kelmoqda**.

Beshinchi, ma’muriy hujjatni bekor qilish, o‘zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish asoslari aniq belgilanmagan.

The Carnegie Foundation also admits that the definition can be made more precise by embedding students' competency as cognitive skills along with, or rather than, time, and it could improve education. However, the Foundation decided to keep it as it is stasting that Carnegie unit definition is not obstacle for improving educational system that it might seem. It also, states more evidence to be gathered to make sure for success. It might be the role of world educational institutions as in the case of Weights and Measures to update the precision of the credit definition by including other parameters in the future. As the Foundation states, the Carnegie Unit is still an essential component of the CS, and CS is one of the best systems.

However, there are some Universities, and Colleges like University of New York, Thomas Edison State College, and others are experimenting with adding evidence of achievement, learning outcomes into the definition of credit. It is very positive that our country is implementing a credit unit definition updated by ECITS system in Euro meeting in Bolognya.

Credit calculation and credit-based assessment.

In Canada, particularly in Ontario, the definition of credit is a bit different from the one used in the United States. The values differ, but the concepts are the same. This difference usually comes from the educational natures of different countries. This changing value, or coefficient, differs with the multiplication or division of a number similar to a coefficient; for example, 1000 between kg and g units in weight and mass measurement. So, a coefficient of 1000 is the kg being divided by 1000, and it does not alter the kg standard per se. Thus, every country, province, or university might use different coefficients to take into account the specific of a particular geographic area or a group of entities.

After all, credit is a relative number assigned to a course. In the province's universities, and particular, Wilfrid Laurier University, a 1.0-credit course carries twice the weight of a 0.5-credit course and normally consists of three contact hours per week over two terms from September to April. It is indicated in the course description. A 0.5-credit course carries twice the weight of a 0.25-credit course and is normally conducted over a four-month period.

A credit is a course with a coefficient of 0.5 (credit) consisting of three contact hours per week during a semester and 2 hours of students' independent work for each contact hour. A contact hour is a time spent in the classroom.

Credit hours and assessment points are reflected in a student's transcript. A transcript is an inventory of the courses taken and grades earned. Figure 5 shows a transcript of a high school student. For the sake of space, only a portion of the transcript is shown. This portion is sufficient to show that it consists of a subject with its credit hours and grade in percentage.



Ontario Ministry of Education ONTARIO STUDENT TRANSCRIPT Date of Issue 2020/06/25 Page 1 of 1

Surname [redacted] Given Names [redacted] OEN/MIN [redacted] Student Number [redacted] Gender M Date of Birth Year Month Day 2002/04/15

Name of District School Board / School Authority: Waterloo Region DSB Number: B66176 Name of School: Bluevale CI Number: 895458 Date of Entry Year Month Day 2016/09/06

Date Year Month	Course Grade/Level	Course Title	Course Code	Percentage Grade	Credit	Compulsory	Note
2017 02	9	Instrumental Music-Band	AMI1OI	86	1.00	X	
2017 02	9	English	ENG1DI	90	1.00	X	
2017 02	9	Principles of Mathematics	MPM1DI	81	1.00	X	

Figure 5. A portion of a high school student's transcript

Figure 6 shows a transcript of a student graduating from university with a bachelor's degree in physics with some minors. The identifying details, except for the name for Laurier University student are covered for privacy reasons. The student's name is Benjamin, and he kindly agreed to contribute his transcript to this work.

Winter 2019

Program: Honours Bachelor of Science **Year:** 3

Subject	Course	Campus	Level	Title	Grade	Credit Hours R
FR	102	Waterloo	UG	Introductory French II	A	0.50
PC	315	Waterloo	UG	Intro: Scientific Computation	B	0.50
PC	331	Waterloo	UG	Quantum Mechanics II	A+	0.50
PC	360	Waterloo	UG	Electromagnetic Theory	B+	0.50
ST	231	Waterloo	UG	Stats for Life & Health Sci.	C	0.50

Cumulative Totals (Undergraduate)

	GPA	Credits
Overall	9.33	15.00
Major: Physics	10.06	8.00
Non-Major	8.50	7.00

Academic Standing: May Proceed

** This is NOT an official transcript **

Fall 2019

Program: Honours Bachelor of Science **Year:** 4

Subject	Course	Campus	Level	Title	Grade	Credit Hours R
CP	202	Waterloo	UG	Web Site Design	A+	0.50
MA	235	Waterloo	UG	Introduction To Game Theory	A-	0.50
PC	454	Waterloo	UG	Solid State Physics	A+	0.50
PC	481	Waterloo	UG	Fibre Optics	A-	0.50
PC	491	Waterloo	UG	Research Project I	A	0.50

Cumulative Totals (Undergraduate)

	GPA	Credits
Overall	9.57	17.50
Major: Physics	10.21	9.50
Minor: Computer Science	10.25	4.00
Minor: Mathematics	8.00	3.00
Non-Major	8.81	8.00

Figure 6. A university student's unofficial transcript

We focus on credit and assessment calculations on the university transcript. This is true for Ontario's high schools as well. Although, the criteria for the eligibility for pension support from the Carnegie Foundation are related to the admission of high school students to colleges and universities. It was imposed on high schools by effort. The schools had to put in place the criteria for the definition of credit in order for their students to be eligible for admission.

Let us examine Ben's transcript. His undergraduate Bachelor of Science (BS) degree in physics has a requirement of 20.0 credits for the program and a minimum of 4.0 credits for a minor one. A minor program is a secondary area of concentration, degree allowing students to expand their learning in other areas of their interest. Ben will be awarded a BS degree when he accumulates these fixed 20.0 credits. We focus on his fall course credits. His credits, also it is called credit hour are 2.5 for the fall 2019 semester. Adding 2.5 credits to the accumulated previous credits since the beginning of the studies, we get 17.5. Thus, he needs to take courses worth a minimum of 2.5 credits to be eligible for the BS degree.

Ben knows that his credits are determined by the learning outcome, workload, as well as contact hours. A contact hour is usually equal to 50 minutes and refers to a lecture or a lab time (a teaching class). This may, however, vary between different Credits Systems. The more effort and work he put into a course, the more credit that a particular course is worth. So, he knows in advance when he will meet the requirement. He also has a reasonable estimate of the workload of the program and earns credits at his own pace.

Letter Grades and Grade Points

Let us look at the learning assessment linked to the credit unit. Grading in education is the process of applying standardized measurements of varying levels of achievement in a course. Grade point is a numerical weight assigned to each letter grade on a 12-point scale (Table 2) as you can see a 5.0 scale does not more accurately reflect 12 point scale. For all A+ outstanding, A excellent and A- Very good grades are only five on a 5.0 scale. The difference between A+ and A is enormous, and it is a result of a more precise 12-point grading system.

Table 2. Undergraduate grading system

Percentage	12-points	4.0 scale	5.0 scale
A+	90-100	4	5
A	85-89	4	5
A-	80-84	4	5
B+	77-79	3	4
B	73-76	3	4
B-	70-72	3	4
C+	67-69	2	3
C	63-66	2	3
C-	60-62	2	3
D+	57-59	1	1
D	53-56	1	1
D-	50-52	1	1
F	0-49	0	0

GPA is used to assess students' performance. GPA stands for Grade Point Average. GPA for all semesters is cumulative GPA: CGPA. The CGPA - GPA is the ratio of the sum of the products of the number of credits with grade points obtained by a student in all the courses taken by a student and the sum of the number of credits of these courses obtained by a student.

These assessment criteria are linked to the credit and expressed as follows:

$$CGPA = \frac{\sum g_i * C_i}{\sum C_i}$$

C in the abbreviation stands for cumulative, consisting of i- number of courses. g_i is a grade for i number of courses, and C_i is the credit students accumulated since the beginning of their study. We can reformat this in the following easily read and visualized form:

GPA = (grades * credits)/credits

There is another assessment criterion: Semester Grade Point Average (SGPA). It shows students' performance for a particular semester. These GPAs for different durations of time are used for different purposes. SGPA shows a student's performance progress for one semester and allows the university administration to decide to award student scholarships. We can calculate Ben's GPAs using his Transcript in Figure 6.

We will again take his performance information for the fall of 2019 and calculate his SGPA. This calculation is illustrated in Table 3.

Table 3. CGPA calculation for a particular semester

Course	Credit	Letter	Grade	Grade Points x t
CP202	0.5	A+	12	12*0.5 = 6

MA235	0.5	A-	11	11*0.5 =5.5
PC454	0.5	A+	12	12*0.5 = 6
PC481	0.5	A-	11	11*0.5 = 5.5
PC491	0.5	A	10	10*0.5 = 5
Total	2.5			28

Ben's SGPA is 28/2.5 or 11.20, which is excellent. CGPA, as well as SGPA, are rounded off to 2 decimal points and reported on the transcript. The requirement to pass a course is C+. It can be seen that Ben is an outstanding student. We can see from his transcript that he is taking some minors as well. So, as a highly motivated student, he had the chance to gain extra credits, and he did.

Moreover, he wants to pursue a master's degree in Corporate Law. Thus, he needs to acquire job oriented skills. He is currently taking a geography course. He has greater flexibility in the choice of courses and can choose courses at basic or advanced levels. We would especially like to indicate his choice flexibility in learning path from Major in physics, minor in Computer Science, and minor in Mathematics. He has published a couple of scientific papers on Fibre optics and presented his results at conferences. Ben's achievement is an example of how a credit system to benefit students learning.

Conclusions

1. The Carnegie Unit has served as a standard in education for more than a century and has played a crucial role in education growth and efficiency in the United States. It has resulted in the acceptance of the Credit system of education by almost all countries of the world
2. The precision of the definition of "credit" needs to be improved, just as the unit of weight and mass, by including other parameters like students' competency, but for the time being, the Foundation has kept it as it is. Greater definition precision might come with the transformation of the Carnegie Foundation to an international one.
3. A credit system benefits students. They explicitly know how many credits and minimum CGPA are required to obtain a degree and earn credits at their own pace.

References

1. Elena Silva & Taylor White (2015) The Carnegie Unit: Past, Present, and Future, Change: The Magazine of Higher Learning, 47:2, 68-72,
2. Fain, Paul, "Carnegie Foundation Says Credit Hour, Although Flawed, Too Important To Discard," Inside Higher Ed, January 29th, 2015
3. Wall, J. F., 1970. Andrew Carnegie, New York: Oxford University Press
4. Brian Resnick The world just redefined the kilogram. It involves complex science and beautifully simple philosophy. Nov18, 2018.
5. https://students.wlu.ca/programs/science/physi-and-computer-science/program-requirements.html
6. Norman Hamilton, What Can be done about the Carnegie Unit? Association for Supervision and Curriculum Development, 1966.
7. Paul Fain, Hour by Hour. Inside of higher education, September 5th, 2012.

UDK:37:004.9

TA’LIMNING KREDIT TEXNOLOGIYASI SHAROITIDA MODULLI TA’LIM TAMOYILLARI

Umarov I.S, Ergashov Y.S.
Bosh ilmiy-metodik markaz

Annotasiya. Muallif tomonidan modulli ta’lim nazariyasi umumiy didaktika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tamoyillarga asoslanganligi, modulli ta’limning umumiy yo‘nalishi, uning maqsadlari, mazmuni va tashkil etish metodikasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kredit-modul, modullilik, ta’lim mazmuni, harakatchanlik, moslashuvchanlik, paritetlik, tamoyil.

Принципы модульного обучения в условиях кредитной технологии обучения

Аннотация. Автор поясняет, что теория модульного образования базируется на своеобразных принципах, тесно связанных с общей дидактикой, раскрывает общие направления модульного образования, его цели, содержание и методы организации.

Ключевые слова: Кредитный модуль, модульность, содержание обучения, мобильность, гибкость, паритетность, принцип.

Principles of modular education in terms of credit technology of education

Abstract. The author explains that the theory of modular education is based on specific principles closely related to general didactics, general directions of modular education, its goals, content and methods of organization.

Keywords: Credit module, modularity, learning content, mobility, flexibility, parity, principle.

Bugungi kunda turli xil ko‘rinishlarda modulli o‘qitish ko‘plab ta’lim muassasalari tomonidan keng qo‘llaniladi. O‘tgan yillar mobaynida uning g‘oyalari AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlarda keng tarqaldi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ko‘pchilik mamlakatlarda dasturiy-boshqariladigan uskunalar, kompyuterlar va boshqa texnik kommunikasiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadigan sanoatlashgan davrdan axborot davriga o‘tishda, ishchi va mutaxassislarni tayyorlashga yuqori talablar qo‘yiladi. Zamonaviy mutaxassisning malaka darajasining asosiy ko‘rsatkichi kasbiy kompetentlikdir, u bilim, ko‘nikma va malakalarning bog‘lovchi zanjiri bo‘lgan prosessual komponentlarni o‘z ichiga oladi. Muayyan mutaxassis esa muammoning mohiyatini bilishi, uni amalda hal qila olishi va muammoga qo‘llaniluvchi usulining moslashuvchanligiga ega bo‘lishi kerak.

Ushbu talablarni bajarish uchun oliy o‘quv yurtlarida ta’lim tizimini uzluksiz takomillashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi, yangi bosqichga o‘tmoqda, ya’ni bunda mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganishga, talabalarning mustaqil ta’lim olishlari, ularning akademik mobilligini oshirish maqsadida kredit-modul tizimi joriy qilinmoqda. Hozir kunga qaqdar 50 ta oliy ta’lim muassasasi kredit-modul tizimiga o‘tdi.

Kredit-modul tizimining an’anaviy ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlaridan yana biri shundaki, bunda fanlar modulli asosda tashkil qilinadi va o‘qitiladi. Ya’ni har bir modul (fan va uning bo‘limi) kirish nazorati, nazariy materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari materiallari, mustaqil ish topshiriqlari, keyslar, nazorat materiallari, testlar, tarqatma materiallar, glossariy, adabiyotlar, chiqish nazoratlari va h.k. qismlardan tashkil topgan bo‘lad [1].

Modulli ta’lim nazariyasi umumiy didaktika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tamoyillarga asoslanadi. Modulli o‘qitishning umumiy yo‘nalishi, uning maqsadlari, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagi tamoyillar asosida belgilanadi:

- modullilik;

- ta’lim mazmunidan alohida elementlarni tanlash;
- harakatchanlik;
- bilimlar va ular tizimining operativligi va harakatchanligi;
- moslashuvchanlik;
- metodik maslahatning xilma-xilligi;
- paritetlik.

Modullilik tamoyili ta’limga yondashuvni belgilaydi, mazmunda, tashkiliy shakl va usullarda o‘z aksini topadi. Bu tamoyilga muvofiq ta’lim muayyan didaktik maqsadlarga erishish uchun mo‘ljallangan alohida funksional birliklar - modullarga asoslanadi. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik qoidalarga amal qilish lozim.

- o‘quv materiali har bir talaba uchun belgilangan didaktik maqsadlarga erishishni to‘liq ta’minlaydigan tarzda loyihalanishi lozim;
- u shunday to‘liq blokda taqdim yetilishi kerakki, alohida modullardan murakkab didaktik maqsadga mos yagona o‘qitish mazmunini qurish mumkin bo‘lsin;
- o‘quv materialiga muvofiq o‘qitishning har xil turlari va shakllari integrasiyalanishi, ko‘zlangan maqsadga erishishga bo‘ysunishi lozim.

Ta’lim mazmunidan alohida elementlarni ajratish tamoyili modul ichidagi o‘quv materialini yaxlit didaktik maqsadni yechishga qaratilgan yagona subyekt sifatida qaralishini talab qiladi, ya’ni modul aniq tuzilishga ega bo‘lishi lozim. Bu tamoyil dasturlashtirilgan ta’limda o‘quv materialini qismlarga (qismlarga, pog‘onalarga) bo‘lish tamoyiliga o‘xshaydi, lekin sezilarli farq ham mavjud. Dasturlashtirilgan mashg‘ulotlarda materialni asta-sekin murakkablashtirish tartibiga, albatta yo‘lga qo‘yilgan kichik, chambarchas bog‘liq qismlarga bo‘lish kerak. Modulli o‘qitishda ta’lim mazmunining eng kichik birligi muayyan kursning muayyan mavzusi yoki muayyan didaktik maqsadga javob beradigan mavzuning fragmenti hisoblanadi va modul elementi deb ataladi [2].

O‘qitish mazmunidan alohida elementlarni ajratish tamoyiliga amal qilib, quyidagi pedagogik qoidalarga amal qilish kerak.

- integrasiyalashgan didaktik maqsadda xususiy maqsadlar strukturasini ajratib ko‘rsatish kerak;
- ularning har birining yutug‘i har bir elementning o‘quv materiali bilan to‘liq qo‘llab-quvvatlanishi kerak;
- alohida xususiy maqsadlar majmui, bitta integrasiyalashgan didaktik maqsad bitta modul bo‘lishi lozim.

Harakatchanlik tamoyili ijtimoiy tartibni hisobga olgan holda modullar mazmunini erkin o‘zgartirilishini ta’minlaydi. Ilmiy va texnologik taraqqiyotning yuqori sur’atlari ijtimoiy va umumiy texnik bilimlarning tez qarishiga olib keladi, hatto vaqti-vaqti bilan bizni umumiy ilmiy bilimlarning qiymatiga qayta qarashga majbur qiladi. Ta’limning barcha darajalariga xos inertlik ta’lim bilan jamiyatning turmush sharoiti o‘rtasidagi tafovutning sabablaridan biridir. O‘quv materiali doimiy, deyarli har yili qayta ishlanib, yangilanib turishi kerak. Bu qiyin vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo‘li, o‘quv materialining o‘zgaruvchan qismining bo‘limlari bir-biridan yetarli darajada mustaqil bo‘lishi va har bir bo‘lim o‘quv materialini tez o‘zgartirish, to‘ldirish va rivojlantirish imkonini beruvchi o‘quv materialini tuzishdir.

O‘quv materialining barqaror va o‘zgaruvchan mazmuni o‘rtasidagi ziddiyatni harakatchanlik tamoyilini amalga oshirish yo‘li bilan hal qilish mumkin. Uning pedagogik qoidalari quyidagicha:

- har bir elementning mundarijasi va shunga muvofiq har bir modul osongina o‘zgartirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin;
- turli modullarning elementlarini qurish orqali yangi modullarni yaratish mumkin;

- modul shunday ko‘rinishda taqdim etilishi kerakki, uning elementlarini osongina almashtirish mumkin bo‘lsin.

Bilimlar va ularning tizimining operativligi va harakatchanligi tamoyili. Ta’lim sohasida talabalar o‘rtasida samarali bilimlarni shakllantirish muammosi yuzaga keldi, bu yesa mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holatdan chiqish yo‘li - nafaqat faoliyat turlarini, balki harakat yo‘llarini ham o‘rgatishdir. Modulli ta’limda faollikka asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga yega, lekin uning cheklanganligi shundaki, u o‘quv jarayoniga ijodiy munosabatni rivojlantirishni talab qilmaydi [3].

Talabalar tashabbuskorlik, topqirlik ko‘rsatsalar, mavjud bilimlardan o‘zlari egallagan yoki o‘zlashtirganlaridan boshqa vaziyatlarda foydalana olish ko‘nikmalari bo‘lsa, operativ bilimlar yanada muvaffaqiyatli egallanadi. Samarali va operativ bilimlar tizimi faqat malakalar bilan uzviy birlashgandagina muhokama qilinishi mumkin. Bu talaba amaliyotda erkin va mustaqil qo‘llay oladigan umumiy ilmiy, umumiy texnik va maxsus bilim va ko‘nikmalar tizimini anglatadi. Bilimlar va ularning tizimining operativligi va harakatchanligini amalga oshirishga rahbarlik qilishi lozim bo‘lgan pedagogik qoidalar va uning tizimi quyidagilardan iborat:

- modulli ta’limda maqsadlar faoliyat usullari (aqliy yoki amaliy) va harakat yo‘llari bo‘yicha shakllantirilishi lozim;
- qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun aqliy yoki amaliy faoliyat mantig‘iga asoslangan modullarning intizomiy va fanlararo mazmunini qurish mumkin;
- ta’lim olish muammoli yondashuv asosida tashkil etilishi kerak, shunda ta’limga ijodiy munosabat ta’minlanadi;
- bilimlarni bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tkazish imkoniyatlarini aniq ko‘rsatish kerak.

Moslashuvchanlik tamoyili modulli dastur va shunga mos ravishda modullarni shunday tuzishni talab qiladiki, o‘qitish mazmuni va uni o‘zlashtirish yo‘llarini tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlariga oson moslashtirilsin.

Moslashuvchanlik tamoyilini amalga oshirish quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishni talab qiladi:

- ta’lim mazmunini individuallashtirishda bilimning dastlabki tashxisi zarur;
- u shunday tashkil etilishi kerakki, uning natijalari asosida muayyan modulning individuallashgan strukturasini qurish oson bo‘lsin;
- ta’lim mazmunini individuallashtirish uchun talaba tomonidan o‘quv ehtiyojlarini tahlil qilish zarur;
- xuddi shu maqsadda uni qurish uchun keng qamrovli mezondan foydalanishingiz mumkin, jumladan, asosiy ta’lim va shaxsiy ta’lim maqsadlari;
- o‘zlashtirishning individual sur’atiga rioya qilish muhim;
- modulning metodik qismi ta’lim texnologiyasini individuallashtirilishi ta’minlanadigan tarzda loyihalanishi lozim;
- muayyan o‘quv maqsadiga erishgandan so‘ng individual nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish talab yetiladi.

Ta’lim samaradorligiga ko‘pgina omillar, birinchi navbatda, ta’lim mazmunining talabalar imkoniyatlariga mosligi ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bu shart bajarilsa ham, o‘quv jarayonida, xususan, talabalarning materialni o‘zlashtirishning optimal yo‘llarini tanlay olmasligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining yo‘qligi tufayli ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. O‘qituvchilar faoliyatida ham muammolar mavjud, masalan, mahorat yetishmasligi, barcha o‘qitish usullarini qo‘llay olmaslik va ushbu sharoitda yoki ularning tanlagan usullarining uyg‘unligi.

Bu muammolarni hal etish yo‘llari pedagogik qoidalar, metodik maslahatlarning xilma-xilligi tamoyilini amalga oshirish orqali ochib beriladi :

- o‘quv materiali axborotlarni o‘zlashtirishni osonlashtiruvchi shaxsiy tushuntirish usullaridan foydalangan holda modullarda taqdim etilishi lozim;
- ta’lim mazmunini o‘zlashtirishning turli usullari va yo‘llari taklif etilishi lozim, talaba erkin tanlashi yoki ularga tayanishi yoki shaxsiy tajribadan kelib chiqib, ta’limning o‘ziga xos metodini yaratishi mumkin;
- o‘qituvchiga o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha metodik maslahatlar berish zarur. Muqobil yechimlar sifatida ekspert o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, muayyan kontentning ulushini o‘zlashtirish uchun eng mos bo‘lgan turli usullar va treningning tashkiliy sxemalaridan foydalanish mumkin;
- o‘qituvchi mashg‘ulotning taklif etilayotgan usullari va tashkiliy maqsadlarini erkin tanlashi yoki o‘z, original usullari va tashkiliy sxemalariga ko‘ra ishlashi mumkin;
- o‘qituvchi modulni o‘zi tuzgan hollarda uning mazmuniga o‘zi qo‘llagan ta’lim berish usullarini kiritishi maqsadga muvofiqdir, chunki bu ekvivalent kurslar yoki fanlarni o‘qitayotgan o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish uchun sharoit yaratadi.

Paritetlik tamoyiliga rioya qilish muhimdir. So‘nggi yillarda pedagogik jarayonda talabalarni faollashtirish, boshqaruvni rivojlantirish va uning mustaqilligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Talaba iloji boricha faol bo‘lsa, o‘qituvchi konsultativ va muvofiqlashtiruvchi funksiyani har biriga individual yondashish asosida amalga oshirsa, samarali pedagogik jarayon ta’minlanadi. Lekin buning uchun ularni modul kabi samarali o‘qitish vositalari bilan ta’minlash lozim. Bu axborot vositasidan foydalanib, talaba mustaqil ravishda yangi materialni o‘zlashtirish va tayyorlangan har bir pedagogik uchrashuvga, muammoli masalalarni yechishga, tadqiqot faoliyatida ishtirok etishga va hokazolarga kelishi mumkin bo‘ladi.

Modulli o‘qitishda paritetlilik tamoyili quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishni talab qiladi:

- modulli dastur talabalarning ma’lum darajagacha mustaqil bilim olishlari uchun imkoniyat yaratadi;
- o‘qituvchini sof axborot funksiyasini bajarishdan ozod qilish va konsultativ va muvofiqlashtiruvchi funksiyaning yanada yorqin namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratish uchun mo‘ljallangan;
- modullar o‘qituvchi va talabaning birgalikda optimal ta’lim yo‘lini tanlashi uchun sharoit yaratishi kerak;
- modulli o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ayrim boshqaruv funksiyalarini modulli dasturga o‘tkazadi, bunda ular o‘z-o‘zini boshqarishga aylanadi.

Modulli ta’limning yuqoridagi tamoyillari o‘zaro bog‘liq bo‘lib ular (paritetlik tamoyilidan tashqari) ta’lim mazmunini qurish xususiyatlarini aks ettiradi va paritetlik tamoyili ta’lim jarayonida modulli yondashuvni amalga oshirish davomida rivojlanadigan yangi sharoitda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabatlarini tavsiflaydi. Bu tamoyillarning barchasi umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi va ular bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Adabiyotlar

1. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y.
2. С.Я. Батышев, Блок-модулли таълим. М., 2010.
3. О.П. Микуляк, Г. П. Матвеев, М. П. Костюченко ва б. Модулли таълим технологияси - Донецк: ТОВ «Юго-Восток, Лтд», 2010.

UDK: 378.2:53

KASBIY YO‘NALTIRILGAN MASALALAR ASOSIDA KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

F.X.Baychayev
Navoiy davlat konchilik instituti
E-mail:bfazliddin1983@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida buyurtmachi korxonalar talab va ehtiyojlari asosida fizika fanini o‘qitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, amaliy mashg‘ulot darslarida kasbga yo‘naltirilgan masalalardan foydalanish samaradorligi hamda talaba yoshlarga fizik qonuniyatlarning o‘zlari egallagan sohaga qanchalik uzviy bog‘liqligi aniq faktlar orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, bevosita kon-metallurgiya sanoati tizimiga oid kasbiy yo‘naltirilgan masalalarni ishlab chiqish va amalda foydalanishda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishdagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, ishlab chiqarish, fizika, kasbiy yo‘naltirilgan masalalar, amaliyot, mutaxassis, amaliy mashg‘ulot.

Актуальность повышения компетентности за счет профессионально ориентированных задач

Аннотация. В данной статье освещены преимущества применения передовых технологий в преподавании физики на основе потребностей и требований предприятии заказчиков в технических вузах, использования профессионально ориентированных задач на практических занятиях, а также показана эффективность взаимосвязи законов физики с выбранной профессией. Показано, что использование профессионально ориентированных задач повышает профессиональную компетентность будущих специалистов горно-металлургической отрасли.

Ключевые слова: высшее образование, производство, физика, профессионально ориентированные задачи, практика, специалист, практическую занятие.

The relevance of increasing competence through professionally oriented tasks

Abstract. This article highlights the advantages of using advanced technologies in teaching physics based on the needs and requirements of the enterprise of customers in technical universities, the use of professionally oriented tasks in practical classes, and also shows the effectiveness of the relationship between the laws of physics and the chosen profession. It is shown that the use of professionally oriented tasks increases the professional competence of future specialists in the mining and metallurgical industry.

Keywords: higher education, production, physics, professionally oriented tasks, practice, specialist, practical lesson.

Ilg‘or texnologiyalar asrida ta’lim inson faoliyatining eng ko‘p yo‘naltirilgan sohasiga aylanib ulgurdi, ta’limning ijtimoiy o‘rni ham jiddiy o‘zgardi: bugun uning samaradorligi insoniyatning rivojlanish istiqbollari bilan belgilanayotganligi uchun ham kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ijodiy fikrlaydigan yetuk mutaxassislarni yetishtirib chiqarish bugungi kunning asosiy talab sifatida qaralmoqda.

Keyingi yillarda oliy ta’limdagi islohotlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, ta’lim rivoji mamlakatimizning kelajak ravnaqini belgilab berishi e’tirof etildi; oliy ta’lim muassasalari soni oshdi, ta’lim sifatiga qo‘yilgan talablar kuchaytirildi, ta’lim tizimini buyurtmachi korxonalar talab va extiyojlaridan kelib chiqib, mehnat bozorining ehtiyojlariga yo‘naltitirish ta’lim sifatining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib qolmoqda.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish saloxiyatidan samarali foydalanishga alohida urg‘u berilib, mutaxassislarga bo‘lgan

umumdavlat va mintaqaviy talablar istiqbolini aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish talablariga asosan, avvallari faqat fundamental fan sifatida qaralib kelgan tabiiy fanlar, bugungi kunga kelib, ixtisoslik fanlarini chuqur o‘rganish uchun asosiy bug‘inning bir o‘zagi sifatida tan olinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida: “Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo‘lganini ko‘ramiz. Haqiqatan ham fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, energetika, “IT” (Information Technology), suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijalarga erishib bo‘lmaydi.” [1]. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida fizikani o‘qitish sifatini tubdan oshirish kabi tizimli ishlarni amalga oshirish talabi qo‘yildi.

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirishda kon-metallurgiya sanoati alohida o‘ringa ega. Kelajakda yer osti boyliklaridan yanada samarali foydalanish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish eng avvalo bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatiga uzviy bog‘liq. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ko‘p jihatdan ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi bog‘lanishni olib boradigan oliy ta’lim muassasalari zimmasidagi asosiy vazifadir. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan oliy ta’limni rivojlantirishdagi tub islohotlar o‘tiladigan har bir fanning ishlab chiqarishdagi ahamiyati bilan bog‘liq holda olib borish talabini quymoqda. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarni mustaqil izlanishga va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib, unga ijodiy yondashishga o‘rgatish zaruriyatini tug‘diradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining bosh vazifasi bo‘lib, bunda kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha mustaqil fikrlash, kreativ masalalarni ijodiy yechish, texnologik jarayonlarni zamon talablar asosida loyihalash asosida rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu tadqiqotlarining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarni kasbga yo‘naltirish haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan [2,3,4].

Ilmiy adabiyotlar taxlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga oid tadqiqotlarda “kasbiy kompetentlik” tushunchasi turlicha talqin qilinadi: bilim va kasbiy muloqot malakalari (P.R.Atutov, V.N.Vvedenskiy, N.V.Kuzmina, B.A.Nazarova)[5,6,7,8]; faoliyatning muayyan turlarini mustaqil bajarishga tayyorlik, kasbiy vazifalarni hal qilish va o‘z mehnati natijalarini baholash malakalari (V.A.Slastenin, E.F.Zeer, A.I. Shcherbakov)[9,10,11], kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga qodirlik, o‘zini kasbiy mehnatda namoyon qilish (V.A. Slastenin, A.K. Markova, R.S.Gershunskiy)[9,12,13] tadqiq qilingan. Ammo, texnika oliy ta’lim muassalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini fundamental fizika fani miqyosida to‘liq ko‘rib chiqilishi amalga oshirilmagan. Ayniqsa, kon metallurgiya sanoati bo‘lajak mutaxassislari uchun kasbiy yo‘naltirilgan masalalar asosida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning o’rganilmaganligi tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

Hammamizga ma’lumki, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirishda kon-metallurgiya sanoati alohida o‘ringa ega. Kelajakda yer osti boyliklaridan yanada samarali foydalanish, sifatli maxsulot ishlab chiqarish eng avvalo bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatiga uzviy bog‘liq. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ko‘p jihatdan ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi uzviy bog‘lanishni olib boradigan oliy ta’lim muassasalari zimmasidagi asosiy vazifadir. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan oliy ta’limni rivojlantirishdagi tub islohotlar, o‘tiladigan har bir fanning ishlab chiqarishdagi ahamiyati bilan bog‘liq holda olib borish talabini quymoqda. Buni amalga oshirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, buni fizika fani misolida ko‘rib chiqamiz.

Hozirgi vaqtda ish beruvchilar “bitiruvchi”ning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmasiga, balki kon-metallurgiya sanoatidagi mavjud muammolarni yechishda nazariyani amaliyotga qo‘llay bilish sifatiga e’tibor qaratishmoqda. Demak, bunda har bir mavzudagi fizik qonuniyatlarning bo‘lajak mutaxassislar kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligini aks ettirilishi muhim vazifa hisoblanadi, bu esa, bo’lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini oshirishdagi dastlabki qadamladan biri bo’ladi.

Pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda faqat an‘anaviy ko’rinishdagi masalalar yechish, grafiklar qurish va b. asosida mavzuga oid amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bilan chegaralanish yaramaydi, chunki talaba har doim o‘z mutaxassisligiga oid tushunchalarning fan bilan qanchalik aloqadorligini ko‘rib, sezib turishi talabaning fanga bo’lgan qiziqishini orttiradi. Shu maqsadda kon-metallurgiya sanoati tizimiga oid kasbiy yo‘naltirilgan fizik masalalar ishlab chiqish, nafaqat nazariya bilan amaliyotning uzviyligini ta’minlaydi, balki bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini oshirishdagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Fizikaning “Mexanika” bo‘limi mavzularining kon-metallurgiya sanoatida qo‘llanilishi asosida mutaxassislikka yo‘naltirilgan masalalarni ishlab chiqish hamda ular asosoda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	**“Mexanika” bo‘limiga oid mavzular**	**Kon-metallurgiya sanoatida qo‘llanilishi**
1	Mexanik harakat, ko‘chish, yo‘l, tezlik, tezlanish. Normal va tangensial tezlanishlar.	Portlatish ishlarida tog‘ jinslarining harakat kinematikasi.
2	Aylanma harakat kinematikasi qonunlari. Burchak tezlik, burchak tezlanish va chiziqli tezlik, tezlanish bilan bog‘liqligi.	Karyerlarda aylanma harakat qiluvchi vositalar kinematikasi qonunlari.
3	Ilgarilanma harakat dinamikasi. Nyuton qonunlari. Inersiya. Massa, kuch tushunchalari. Jism impulsi va uning saqlanish qonuni.	Tegirmonda o‘zaro ta’sir kuchlari ta’sirida rudalarni maydalash. Tegirmondagi sharlarning to‘qnashishi.
4	Tabiatda kuchlar. Tortish kuchi. Jismning og‘irligi va vaznsizlik. Ishqalanish kuchi. Elastiklik kuchi. Guk qonuni. Deformatsiya va uni turlari.	Tog‘ jinslarining mustahkamligi, mo‘rt va qattiqliklari tahlili. Ishqalanish kuchlari ta’sirida rudalarining konveyerdagi harakati.
5	Ish va energiya. Mexanik sistemaning kinetik va potensial energiyasi. Quvvat. Konservativ va dissipativ kuchlar. Sharlarning elastiklikva noelastiklik to‘qnashishi.	Tegirmonda rudalarni yanchishda sharlarning to‘qnashishi. Portlatish ishlarida energiyaning saqlanish qonuni.

Jadvalda keltirilgan mavzularning kon-metallurgiya sanoatida qo’llanilishi asosida fizikadan amaliy mashg‘ulotlarni olib borishga oid masalalar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday masalalardan namuna keltirib o‘tamiz.

Rudalarni yanchilishda ishlatiladigan diametri 4500 mm bo‘lgan sharli tegirmon(MSHS 45-60) ning kritik tezligini va aylanishlar sonini aniqlang.

Dastlab, talabalarga sharli tegirmon(MSHS 45-60) ning ishlash tamoyili tushuntiriladi (1-rasm). Rudalarni tegirmonlarda yanchish jarayonida, tegirmon barabanining ichki yuzasidagi R massali shar harakati ko‘rib chiqiladi va unga ta’sir qiluvchi kuchlar haqida fikr yuritilib, tegirmonning aylanishlar tezligi haqida ma’lumot berish kerak bo‘ladi.

Tegirmonda rudalarni yanchish jarayoni maydalangan rudalarni ezg‘ilovchi po‘lat sharlarning o‘zaro to‘qnashish natijasida hosil bo‘lgan kinetik energiya hisobiga amalga oshiriladi.

$$E_к = \frac{mv^2}{2} \qquad (1)$$

bu erda *m* va *v* - po‘lat sharning tezligi va masssasi.

Shuningdek, katta tezlik bilan aylanayotgan tegirmon barabani markazdan qochma kuchlar ta’sirida sharlarni ichki yuzaga tirab, rudalar bilan birga aylantira boshlaydi.

$$F_{мк} = \frac{m\vartheta^2}{R} \qquad (2)$$

bu yerda *m* - po‘lat sharning masssasi ϑ – tegirmon barabanining tezligi

Bu jarayonda birinchi qatlamdagi sharlar rudalar yanchilishida qatnashmaydilar, bunday aylanishga mos tezlik kritik tezlik deb ataladi.

Birinchi qatlamdagi sharlar yanchishda ishtirok etishi uchun barabanning aylanish tezligi kritik tezlikdan kichik bo‘lishi kerak. Buning natijasida bu qatlamdagi sharlar ma’lum bir balandlikka ko‘tarilib tushishdagi zarb ta’sirida rudalarni yanchishga ishtirok etadi. Bu holda sharlar barabanning ichki yuzasi bo‘ylab aylanma traektoriya bo‘yicha ma’lum A nuqtagacha ko‘tarilib, og‘irlik kuchi ta’sirida uziladi va shu nuqtadan parabolalik traektoriya bo‘yicha B nuqtaga tusha boshlaydi.



1-rasm

Sharlarning ko‘tarilish balandligi qancha katta bo‘lsa, ularning tushish tezligi shuncha katta bo‘ladi. Bunda sharlarning tushish tezligi

$$\vartheta = \sqrt{2gh} \qquad (3)$$

Natijada, B nuqtadagi rudalarga sharlar katta zarba kuchi bilan ta’sir etadi.

$$P = m\upsilon = F \cdot t \qquad (4)$$

Agar barabanning aylanish tezligi sharlarning tezligidan kichik bo‘lsa, ular yuqoriga ko‘tarilmay, dumalab tushadi. Demak, sharlar o‘rtasida (shar-shar) va tegirmon (shar-tegirmon) ichki yuzasi orasida rudalarning ezilishi ishqalanish kuchi ta’sirida yuz beradi.

Endi esa, tegirmon barabanining ichki yuzasidagi *m* massali shar harakatini ko‘rib chiqaylik. ϑ tezlik bilan aylanma harakatlanayotgan sharga A nuqtada markazdan qochma kuchdan tashqari og‘irlik kuchi ham ta’sir etadi:

$$P=mg \qquad (5)$$

bu yerda g – erkin tushish tezlanishi.

Sharlarning yuqoriga ko‘tarilishida ishtirok etayotgan og‘irlik kuchini ikkita tashkil etuvchiga, ya’ni radius bo‘yicha yo‘nalgan $F_1=P\sin\alpha$ va urinma bo‘yicha yo‘nalgan $F_2=P\cos\alpha$ kuchlarga ajratamiz. Shar baraban devoridan tushmasligi uchun,

$$\frac{p\vartheta^2}{gR} \geq P\sin\alpha \quad \text{yoki} \quad \frac{\vartheta^2}{gR} \geq \sin\alpha$$

shart bajarilishi kerak.

Agar $\alpha=90^0$ desak, $\sin\alpha=1$ demak, tegirmon barabanining kritik tezligi

$$\vartheta = \sqrt{2gR} \qquad (6)$$

bo‘ladi.

Tegirmonning aylanish chastotasini aylana/minutlarda olsak, tegirmonning aylanish tezligi

$$\vartheta = \frac{2\pi R}{T} = \frac{\pi Dn}{t} \qquad (7)$$

bo‘lsa, u holda (6) va (7) ifodalarni tenglashtirib,

$$\vartheta^2 = \left(\frac{\pi D n}{60}\right)^2 = g\frac{D}{2} \qquad 2\pi^2 D^2 n^2 = 60^2 gD$$

barabanining kritik aylanishlar soni n_{kr} quyidagicha

$$n_{кр} = \sqrt{\frac{60^2 g}{2\pi^2 D}}$$

kelib chiqadi. Bunda D- tegirmon barabani diametri.

Bu kabi kasbiy yo‘naltirilgan masalalar talabalarnig hozirgi paytda ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan tegirmonlarning parametrlarini aniqlab topishga va unda bo‘ladigan fizik jarayonlarni tushunib, fizik qonuniyatlar va formulalarning qo‘llanish darajasini tushunib yetishga hamda ijodiy fikrlashiga yordam beradi.

Bu ko’rinishda olib borilgan amaliyot mashg‘ulotlarning natijasi quyidagi xulosalarni beradi:

- ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi uzviylik rivojlanishiga asos solinadi;
- ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar bilan yaqindan tanishishga imkonini beradi;
- tanlagan kasbiga oid atamalarni o‘rganishga sharoit yaratadi;
- fizik qonuniyatlarni amaliyotga qo‘llash malakasini hosil qiladi;
- mavzuni o‘zlashtirish asosida mutaxassislik fanlarini o‘rganishga zamin bo’ladi;
- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi oshiriladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 30 dekabr.
2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. O‘zbekiston Respublikasi FA M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975.
3. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, V tom. 1976.
4. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T.:Ma’naviyat, 1998.
5. Atutov P.R., Lojkin V.M. Подготовки преподвателей для профессиональной подготовки учащихся // Sov. Pedagogika. – Moskva, 1985.– №2.
6. Kuzmina N.V. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / N.V. Kuzmina. – M.: Vыsshaya shkola, 1990.
7. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Dis. … ped. fan. nom. – T.: 2009.
8. Vvedenskiy V.N. Моделирование профессиональной компетентности педагога / V.N. Vvedenskiy // Pedagogika. – 2003. - №10.
9. Slastenin V.A., Podmova L.S. Педагогика: инновационная деятельность – M., 1997.
10. Zeer E.F. Личностно-ориентированное профессиональное образование. – Ekaterinburg, 1998.
11. Shcherbakov A.I. Формирование личности учителя в процессе его профессиональной подготовки. Monografiya. 1969.
12. Markova A.K. Психология профессионализма. – M.: Znanie, 1996.
13. Gershunskiy B.S. Педагогическая прогностика: Методология,теория, практика.– Kiev.: 1986.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Texnik muharrir **A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.n., dotsent
E. U. Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O. Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Haydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 10.11.2021 yilda ruxsat etildi. Qog`oz o`lchami A-4. Nashriyot hisob tabog`i 10,00. Buyurtma raqami 483. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDUbosmaxonasida chop etildi.